

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

SHAHRISABZ FILIALI

«Tasdiqlandi»
TDPU Shahrisabz filiali
direktorining o'quv va
tarbiyaviy ishlar bo'yicha
o'rinnbosari
N.J.Toshmanov
«_» 2019-yil



MAKTABGACHA PEDAGOGIKA

FANIDAN O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lrim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta'lrim yo'nalishi:	5111800 – Maktabgacha ta'lrim

№	Mashg'ul turi	Ajratalgan soat	Semestr	
			I	II
1	Nazariy (ma'ruza)	52	24	28
2	Amaliy	96	48	48
3	Mustaqil ta'lim	132	66	66
4	Kurs ishi	-	-	-
Jami auditoriya soatlari		148	72	76
Umumiy o'quv soatlari		280	138	142

Shahrisabz– 2019

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua “Maktabgacha pedagogika” fani bo‘yicha yaratilgan bo‘lib, unda mazkur fanning o‘quv dasturi, ishchi dasturi, ma’ruza mashg‘ulotlarining ta’lim texnologiyasi va seminar mashg‘ulotlarining ta’lim texnologiyalari jamlangan.

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua oliy o‘quv yurtlarining bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

Tuzuvchilar:

Z.K.Alimova Nizomiy nomidagi TDPU, Shahrisabz filiali Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Sh.A. Boyjigitov Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim kafedrasi mudiri

Taqrizchilar: Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim

Sh.S. Shodmonova fakulteti professori

O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali kengashining 2019-yil «__» dagi №__-sonli qarori bilan ma’qullangan.

MUNDARIJA

I. TITUL.....
II. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....
III. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....
IV. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI.....
V. GLOSSARIY.....
VI. ILOVA (namunaviy dastur, ishchi o'quv dasturi, baholash mezonlari, test, adabiyotlar ro'yxati).....

NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-Mavzu: Maktabgacha pedagogikaning umumiy asoslari. Maktabgacha pedagogika fanining predmeti, vazifalari

Reja:

- 1. Maktabgacha pedagogika fanining vazifalari**
- 2. Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.**
- 3. Maktabgacha pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.**

Maktabgacha pedagogika maktabgacha ta'lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Maktabgacha pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi tug'ildan to yetti yoshgacha bo'lgan bolalarga har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganadi va maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, shakl, metod va vositalar hamda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni ishlab chiqadi. U maktabgacha ta'lim muassasalari, oila va matab ishidagi izchillikni ta'minlaydi hamda bolalarni matab ta'limiga tayyorlaydi.

Maktabgacha pedagogika umumiy pedagogikaning alohida sohasi bo'lib, uning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, metodologik asosi, tashkiliy shakl, metod va vositalariga tayanadi. Maktabgacha pedagogikaning nazariyasi va amaliyoti maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga yaxlit tarbiya berishning maqsadi, bolaning yosh imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha ta'limni hayot, amaliyot va zamonaviylik bilan bog'liqlikda olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga asoslaniladi.

Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihat – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos – "o'rgatuvchi", didasko – "o'rganuvchi") ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyatları, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi muammolarni tadqiq etadi. Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Maktabgacha pedagogika fanining *ob'ekti* – yaxlit maktabgacha pedagogik jarayon.

Maktabgacha pedagogika fanining *predmeti* – maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, metod va vositalari.

Maktabgacha pedagogika fanining vazifalari.

Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Maktabgacha pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rinn tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama uyg'un rivojlantirish, ularni mifikta ta'limga tayyorlash vazifasini muvafaqqiyatli hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi *vazifalarni* bajarishga e'tibor qaratiladi:

1. Har tomonlama uyg'un rivojlangan bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.
2. Bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar maktabgacha ta'limga tizimi tajribasini o'rganish asosida ta'limga tizimini takomillashtirish.
4. Maktabgacha ta'limga muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar faoliyatini mazmunini asoslash.

2-rasm. Maktabgacha pedagogika fanining asosiy vazifalari

5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Tarbiyachilarni maktabgacha pedagogikaga oid bilimlar hamda ta'limga tarbiya usullari bilan qurollantirish.
7. Ta'limga tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.
8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.
9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalari

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniylari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Maktabgacha pedagogika fanining asosiy kategoriyalari maktabgacha ta'limga muassasasi tarbiyalanuvchisi shaxsi kamolotini ta'minlash, ta'limga va tarbiya samaradorligiga erishishga haratilgan jarayonlarning umumiyligi mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: ta'limga (o'qitish, o'qish), tarbiya, ma'lumot, shakllanish va rivojlanish.

Ta'limga – tarbiyalanuvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini

shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon. Ta'lim o'zida uch asosiy elementni aks ettiradi: bilim, ko'nikma va malaka.

Bilim – tarbiyalanuvchining ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ta'lim ikki tomonlama tavsifga ega bo'lib, o'qitish va o'qishni o'z ichiga oladi.

O'qitish – pedagogik faoliyat bo'lib, u bilim, ko'nikma va malakalarni bolalarga singdirish, ularning bilish va amaliy faoliyatiga rahbarlik qilishdir.

O'qish – ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi amaliy faoliyatidir.

Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyanı tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi. Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya – muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Shakllanish – pedagogikaning asosiy kategoriyalardan biri bo'lib, ko'pincha "shaxsning shakllanishi" tarzida ishlataladi. Jumladan, pedagog olim Y.K.Babanskiy shaxsning shakllanishi pedagogikaning asosiy kategoriyalardan biri bo'lib, muhit, irsiyat, tarbiya ta'sirida uning rivojlanishi jarayoni va natijasidir¹, degan ta'rifni beradi. V.A.Slastenin, I.F.Isayev, Y.N.Shiyanovlarning fikricha, shakllanish – hayotiy faoliyat jarayoni va maxsus tarbiyaviy xatti-harakatlar ta'sirida inson rivojlanishining muhim shakli. Shaxsning shakllanishi – bu ijtimoiylashuv, tarbiya va o'zini-o'zi rivojlantirish jarayoni va natijasi. *Shakllantirish* – "aniq shaklga kiritish, tugallanganlik"ni bildiradi².

Bizningcha, shakllanish pedagogik tushuncha sifatida zamonaviy yondashuv asosida I.P.Podlsiy tomonidan to'liqroq ochib berilgan: "Shakllanish – hech qanday istisnosiz omillar – ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik va boshqalarning ta'sirida insonning rivojlanish jarayoni. Shakllanish – undan keng

¹ Бабанский Ю.К., Сластенин В.А., Сорокин Н.А., Мальковская Т.Н., Белозерцев Е.П., Поляков В.А., Гришин Д.М. Педагогика / Под. ред. Ю.К. Бабанского. – М.: Просвещение, 1991. – С.10.

² Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. / Под. ред. В.А. Сластенина: В 2 ч. – М.: ВЛАДОС, 2003. – Ч.1. – С.91.

foydalanimayotganligiga qaramay, hali to‘liq o‘zlashtirilmagan pedagogik kategoriya. Shakllanishning mazmuni ba’zi holatlarda juda qisqarib ketadi, ba’zan esa, haddan tashqari kengaytirib yuboriladi. Avval nashr etilgan pedagogik adabiyotlarda shakllanish atamasi ba’zan boshqarilmaydigan, shaxsga ta’sir ko‘rsatuvchi tasodiflarni aniqlash uchun qo’llanilgan. Masalan, pedagogika qo’llanmasining taniqli muallifi P.N.Gruzdev shakllanishni stixiyali tarbiya – “ongli faoliyatdan mustaqil tarzda odamlarga ta’sir etuvchi turli shart-sharoitlar” deb nomlashni taklif etgan”³.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon. Boshqacha aytganda, rivojlanish deganda tarbiyalanuvchining psixikasi va jismoniy taraqqiyotida bosqichma-bosqich va qonuniy o‘zgarishlarning sodir bo‘lishiga aytildi. Rivojlanish – bu yangi sifat holatiga o‘tish, harakat va o‘zgarishlar jarayoni. Maktabgacha pedagogikada rivojlanish haqida gap ketganda yoshga doir (maktabgacha yosh davrlari bilan bog‘liqlikda rivojlanishning o‘ziga xosliklari va qonuniyatlar), individual (rivojlanishning individual o‘ziga xosliklari), shaxsiy (bolada shaxsiy sifatlarning yuazaga kelishi va ularning o‘ziga xosliklari) rivojlanishni alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo‘lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, uning umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan maktabgacha pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o‘rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g‘oya, qarash hamda ta’limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarini tahlil etishga imkon beradi.

2. Iqtisod – maktabgacha ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘quv binolarini qurish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarining iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

3. Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo‘lish asosida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Etika – shaxs ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliv insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi.

³ Подласый И.П. Педагогика. – М.: Высшее образование, 2008. – Б.60-61.

5. Estetika – shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. Fiziologiya – o‘quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang‘ich asoslarni beradi.

7. Gigiyyena – bolalarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to‘g‘ri shakllantirishda nazariy va amaliy g‘oyalari bilan yordam beradi.

8. Psixologiya – shaxsda ma’naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

9. Tarix – maktabgacha pedagogika fani taraqqiyoti, ta’lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq maktabgacha pedagogikasi g‘oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo‘naltiriladi.

10. Madaniyatshunoslik – bolalarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

11. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to‘g‘ri rivojlanishini ta’minlash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash muammolarini o‘rganishda ko‘maklashadi.

Maktabgacha pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Maktabgacha pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarning g‘oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta’minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiharish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma’naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o‘rganish, mavjud ko‘rsatkichlar vositasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator ob‘yektiv va subyektiv omillarga bog‘liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul. Ayni vaqtida samarali bo‘lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqr, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob‘ekti va sub‘ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtida, O‘zbekiston Respublikasida pedagogik yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqyelik va ularning qonuniyatlarilarni aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayondlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzuksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta’minlashi, şarama-şarshiliklarning shaxs kamolotini ta’minlashdagi o‘rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriylarining ahamiyatini e’tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, uning samarali bo‘lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- 2) ilmiy farazlarning to‘g‘ri shakllantirilganligi;
- 3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to‘g‘ri belgilanganligi;
- 4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan ob‘ektiv yondashuv;
- 5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to‘g‘ri hisobga olinganligi;
- 6) tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini aytib o‘tish;
- 7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo‘nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta‘lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o‘rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo‘llash jarayonida, ta‘lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma'lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta‘lim-tarbiya sifatini oshirish, bola shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;
- 5) xulosa chişarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo‘lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to‘g‘ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam

beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylilik va izchillikni ta'minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofikdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rghanish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'il qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va mакtabgacha ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh jurnallari, bolalarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash sharorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlar samaradorligi darajasi, bolalarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rghanishda muhim ahamiyatga ega.

Bolalar ijodini o'rghanish metodi. Mazkur metod bolalarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda bolalarning ijodiy ishlar - kundaliklari, insholari, yozma ishlar, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum bolaga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha “sinab ko‘rish”, “tajriba qilib ko‘rish”) metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in’ikosiga ega bo‘la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo‘naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. “Maktabgacha pedagogika” tushunchasi qanday mazmunni anglatadi?
2. Maktabgacha pedagogika fani nimani o‘rganadi?
3. Maktabgacha pedagogika fanining ob'ekti va predmetini izohlang.
4. Maktabgacha pedagogika fanining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
5. Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriylarini sanang va mohiyatini yoriting.
6. Qanday metodlar pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari hisoblanadi?

Mavzu bo‘yicha test savollari:

1. Pedagogika atamasining ma'nosi nima?

- A) ingliz tilidan olingan “ota” degan ma'noni anglatadi;
B) fransuz tilida “enaga” ma'nosini bildiradi;
V)* lotin tilida “bola yetaklovchi” ma'nosini anglatadi;
G) lotin tilida “ustoz” ma'nosini bildiradi.

2. Pedagogika fanining metodologik asosi – bu..

- A) bilib, ko‘nikma va malaka;
B) yangi pedagogik texnologiyalar, AKT, interfaol metodlar;
V)* ajdodlarimizning pedagogikaga oid asarlari, “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy” Dastur.
G) dars, mashg‘ulot, seminar, konferensiya, forum.

3. “Muallimus soniy” taxallusini olgan buyuk Sharq qomusiy olimi kim?

- A) Yusuf Xos Xojib;
B)* Abu Nasr Farobi;
V) Alisher Navoiy;
G) Abdulla Avloniy.

4. Quyidagi javoblardan bilimga berilgan to‘g‘ri ta'rifni toping

- A) shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.
B) muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.
V) shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

G)* shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliqhaqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

5.Quyidagi javoblardan tarbiyaga berilgan to'g'ri ta'rifni toping

A) shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

B) muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

V) shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

G)* muayyan, aniqmaqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

6) Sharqda ta'lim-tarbiyaning ilk tizimi qaysi asarda berilgan?

A) "Fozil odamlar shahri";

B) "Qobusnoma";

V)* "Avesto";

G) "Mahbub-ul-qulub".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947 sonli Farmoni.
2. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
3. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
4. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
5. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.
6. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

2-Mavzu: Maktabgacha pedagogika fanining tadqiqot metodlari.

Reja:

1. Fanning ilmiy tadqiqot metodlari haqida tushuncha va ularga qo'yiladigan talablar.
2. Ilmiy tadqiqot metodlariga tavsif berish.

Tayanch tushunchalar: Metod, usul, yo'l, tadqiq etish, o'rghanish, tajriba o'tkazish, sinash, ta'lim-tarbiya, ma'lumot, ko'nikma, malaka, o'zlashtirish, tadbiq etish, nazariya, o'quvchi, shaxs, faoliyat, suhbat, kuzatish, eksperiment, anketa, test, [maktab hujjatlari](#), ijodni o'rghanish, statistika, kibernetika, sotsiologiya.

Ilmiy tadqiqot metodlari. Har bir predmet uning metodlari bilan chambarchas bog'langan. Fan metodlari uning metodologiyasiga mohiyati va prinsiplariga bog'liq bo'ladi. Pedagogikaning bunday mustahkam va ishonchli falsafiy asosi dialektik metoddir.

Pedagogikaning hodisalarini o'rghanish va ularning qonuniyatlarini aniqlash masalasida bir-biriga qarama-qarshi ikkita yo'nalish metofizik va dialektik yo'nalish mavjuddir.

Metofiziklar pedagogikaning hodisalari va faktlarini o'zgarmas, vaqt, joy va konkret sharoitlardan tashqari boshqa ijtimoiy hodisalar bilan aloqasi bo'limgan hodisa sifatida olib qaraydilar.

Dialektik metod esa metofizika talqiniga qarama-qarshi o'laroq, o'qitish, bilim berish, tarbiyalash jarayonlarini va ularning mohiyatlarini quyidagicha o'rghanishni talab etadi:

1. Ularning umumiyo aloqasi bir-birini taqoza etishi va o'zaro ta'sir jarayoni-da bolalarni tarbiyalash, o'qitishning turmush, siyosat, ideologiya, madaniyat, fan, axloq, san'at, ta'lim-tarbiya muassasasi tarmoqlarining va ijtimoiy, maktab va oilaviy tarbiyalarning o'zaro bog'liqligi va boshqalar.

2. Ularning to'xtovsiz harakati, o'zgarishi va taraqqiy etishi jarayonida ijtimoiy va ilmiy vazifalarning tug'ilishi natijasida kelib chiqadigan o'qitish va tarbiyalash vazifalari, forma va metodlarning o'zgarishi; tarbiyalash qisqa muddatli va [tez olib boriladigan ish emas](#), balki qiyin va murakkab jarayondir, bolalarni andoza, universal sxema asosida o'qitish va tarbiyalash mumkin emas.

3. Bolalarning o'sishida miqdor va sifat o'zgarishlari jarayonida har bir maktab yoshining o'ziga xosligi, tarbiya va ta'lim bola shaxsining sifat jihatidan o'sish va tarkib topishi ekanligi, ong va axloqning, so'z va ishning birligi va boshqa mezonlar.

4. Qarama-qarshi tomonlar, an'analar, qarashlar va fikrlarni aniqlash jarayonida, tarbiya va ta'limda, turmush dialektikasida, yangi va eski o'rtasidagi kurash, shaxs va jamoa o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va h.

5. Pedagogikaning qonuniyatlarini ob'yektiv o'rghanishda dialektika kategoriyalari hodisa va mohiyat, sabab va natija, zaruriyat va tasodif, mazmun va shakl, [tarixiy va mantiqiy](#), umumiyo va shaxsiy, asosiy va xususiy, aniq va abstrakt kabi kategoriylar muhim ahamiyatga egadir.

Dialektikaning yuqorida ko'rsatilgan prinsiplari asosidagi pedagogika hodisalari, faktlari va jarayonlarini ilmiy tekshirish, ularning taraqqiy etish qonuniyatlarini bilish mumkin. Binobarin, pedagogik tadqiqot metodlariga ob'yektivlik, o'qituvchilik, pedagogik faoliyatni oshirishga qaratilgan tadqiqot vazifalarining anqligi, o'quvchilarining yosh xususiyatlarini, bolalar psixologiyasi qonuniyatlarini hisobga olish kabi talablar qo'yiladi. Lekin, bolalarni o'qitish va tarbiyalash amaliyotining o'zi hamma vaqt pedagogik tadqiqotlarning manbai

hisoblanadi. Faqat maktab tajribalarigina har bir ilmiy nazariyaning haqqoniyligi hisbolanadi.

Tadqiqot metodlarining tanlash fanning o‘zi uchun muhim ahamiyatga egadir. Uning metodlari qanchalik mukammal bo‘lsa, shu fan oldida turgan aktual vazifalar ham shunchalik muvaffaqiyatli hal etiladi. Hozirgi pedagogik tadqiqotlarning metodlar tizimini to‘la hal etilgan deb bo‘lmaydi.

Pedagogika tajribasini o‘rganishda quyidagi metodlar: kuzatish, eksperiment, suhbat, o‘quvchilar ijodini o‘rganish, tarbiya muassasalari hujjatlarini o‘rganish turli xilda qo‘shib olib borilishi mumkin.

1. Ilmiy pedagogik tadqiqotning [asosiy metodlari kuzatish](#), suhbat, tekshirish, eksperiment metodlari singari faoliyat natijalarini o‘rganishdan iborat.

2. Hozirgi vaqtida quyidagi metodlar asosida ishlaydi. Bular: pedagogik kuzatish, so‘rash, o‘quvchilar faoliyati natijalari va o‘quv-tarbiya muassasalari hujjatlarini o‘rganish, pedagogik eksperiment, modellashtirish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va yoyish, sotsiologik, matematika va statistika materiallarini ishslash kibernetika, anketa, intervyu olish va tasvirga olish singari metodlardan foydalilanildi.

Pedagogik kuzatish murakkab va maxsus xususiyatga ega. Bunda kuzatilayotgan pedagogik hodisaning mohiyatini ko‘ra bilish, o‘qituvchi va o‘quvchi harakatlarining o‘zaro aloqasi dialektikasini, ulardan har birining individualigini aniqlay olish lozim. Har bir pedagog kuzatuvchan bo‘lishi, hodisa va dalillarning [tafsilotlarini payqay olishi](#), ularni tahlil qila bilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Kuzatishlar biror maqsadga qaratilgan holda amaliy va tizimli mavzuli yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, eng kerakli dalillarni, mazkur kuzatishdan o‘z vaqtida chiqarilgan pedagogik-psixologik xulosalarni hisobga olgan holda tashkil qilinsa, samarali bo‘ladi. Kuzatish ta’lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va takomillashtirish maqsadida olib borilishi mumkin. Masalan, o‘qitish jarayonida bolalarning qanday o‘sayotganligi, dars jarayonida bilim berish va tarbiyalash vazifalari birligi qanday amalga oshirilayotganligi; fan asoslarini o‘rganishda o‘quvchilarnig tafakkuri qanday faollashayotganligi va boshqalar aniqlanadi.

Ilmiy kuzatishda ba’zan tadqiqotchi chidamsiz, shoshqaloq va sismavzuli ish ko‘rmasligi singari holatlarga yo‘l qo‘yilsa, uning samaradorligi pasayadi.

Suhbat metodi. Ilmiy maqsadda olib boriladigan suhbatning aniq maqsadi, vazifasi, shakli va ularni o‘tkazish metodikasi mavjud. Suhbat metodining individual, guruhli va jamoa turlari mavjud. Tadqiqotchi suhbat olib borishni va uni kerakli maqsadli tomonga yo‘naltira olishi g‘oyat muhimdir. Suhbat olib boruvchi quyidagi pedagogik qoidalarga rioya qilishi shart:

- 1) suhbat savollarini oldindan belgilash;
- 2) vaqt va joyini belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarini belgilash (soni, miqdori);
- 4) qulay sharoit [yaratib ochiq suhbatlashish](#);

- 5) suhbatdoshga o‘z fikrini aytishga imkon berish;
- 6) sergak va bachkana bo‘lmaslik;
- 7) suhbatdosh haqida biografik ma'lumotga ega bo‘lish;
- 8) olingen materialni o‘z vaqtida ishlab chiqish va qo‘sishchalar qilish.
- 9) suhbatdan ilmiy xulosa chiqarish.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi. Maktab hujjatlarini tahlil qilish davlat qonunlarining amalda bajarilish darajasini, har bir xodimning faolligini aniqlash, ularning amaliy hayot faoliyatidagi kamchilik va xatolarni aniqlashga va ularning topshirilgan ish uchun mas'uliyatini oshirishga imkon beradi. Ular quyidagilar: maktab hujjatlarini rejalshtirishning barcha turlari; umumiy ta'limga doir hisob va hisobot; dars jadvali; o‘quvchilar tarkibi soni; sifati; ta'lim-tarbiya ishlarini taqsimlash; o‘quvchilarining delolari; sinf jurnallari; o‘quvchining kundalik daftarlari; buyruqlar daftarlari; pedagoglar kengashi qarorlari daftari; maktab smetasi; maktab pasporti; inventarlar daftari va h.

Hujjatlarni tahlil qilishda o‘quvchilar kontingentining o‘sishi va kamayishi tavsifiga, bolalarning maktabga ketib qolishiga, ularning ayrimlari va sinf bo‘yicha o‘zlashtirish darajasiga, rag‘batlantirish va jazolash choralarini to‘g‘ri tashkil qilinishiga, maktab pedagoglar tarkibiga va maktabning o‘quv-moddiy bazasiga alohida e’tibor beriladi.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi. O‘quvchilar ijodini hamda ularning turli faoliyati (xatlari, kundaliklari, insho, bayon, chizgan suratlari, bajargan amaliy ishlari, namunalari, rejalarini va hisobotlari)ni o‘rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Bolalar ijodining ahamiyati shundaki, unda yosh avlodning tipik layoqati va xususiyatlari aniq ochib beriladi.

Bu metodni qo‘llashdan asosiy maqsad hozirgi yosh avlod ijodining manbalari va faktorlarini chuqur bo‘lishiga hamda rivojlantirish va takomillashtirishning to‘g‘ri yo‘llarini ko‘rsatib berishga qaratilgandir. Bizda bolalar ijodi shakllari turlicha: olimpiadalar, mavzutik konkurslar, maktab ko‘rgazmalar, turli xil musobaqalar, poxodlar, quvnoq startlar, ziyraklar va topqirlar, iste’dodlar va h.

Eksperiment metodi. Bu so‘z lotincha sinab, tekshirib ko‘rish, ilmiy maqsadga qaratilgan tajriba ma’nosini anglatadi. Ta’lim-tarbiya ishlarida qo‘llaniladigan biror shakl, metod va vositaning foydalilagini aniqlash va tekshirish uchun o‘quv yurtlarida o‘tkaziladi.

Eksperiment metodlari sharoitiga qarab turli xil qo‘llaniladi.

1. Tabiiy eksperiment (yaratuvchi, ixtiro qiluvchi eksperimentlar). Ushbu eksperimentning asoschisi rus psixolog A.F.Lazurskiy hisoblanadi. Bu metodda maktab faoliyati, ma'lum ta'lim-tarbiya muammolari asl holda suhbat, kuzatish va anketa asosida o‘quvchining o‘qish jarayonida, o‘z-o‘zini nazorat qilishida aniqlanadi. Masalan, maktab internatining tarbiyachilari o‘quvchilarining o‘zlarini haqidagi g‘amxo‘rligini tabiiy tekshirishda pechda yoqadigan ho‘l va quruq o‘tin vositasida aniqlangan. Bolalar yashaydigan binoda yaqin joyda ho‘l o‘tin borligi,

uzoqroq joyda quruq o‘tindan foydalanishning samarasini tekshirishni ko‘rsatish mumkin. Shunday qilinsa, natija haqiqiy bo‘ladi.

2. O‘quvchilarning ongliligini yaratuvchi eksperiment (tadqiqotchi biror ma’no bo‘yicha taxminiy reja asosida o‘quvchi faoliyatining o‘quv jarayonida o‘zini-o‘zi nazorat qilish usullari, yo‘llari tekshirilib, ma’lum bir ilmiy pedagogik xulosa chiqariladigan tajriba deyish mumkin). Bu metoddan chiqarilgan xulosalar boshqa hamma mакtablar hayotiga tadbiq qilinishi uchun nazorat eksperimentidan o‘tkazdiriladi. Chiqarilgan pedagogik xulosa esa o‘z navbatida mazkur masalani hal qilishning nazariyasini va metodologiyasi bo‘lib pedagogika yutug‘i hisoblanadi.

Eksperiment metodlari o‘z mazmuni, turi va xarakteriga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linish mumkin: didaktik, tarbiyaviy, mакtabshunoslik, chog‘ishtirma pedagogika va h.

Statistika ma’lumotlarini analiz va sintez qilish metodi. Pedagogik tadqiqotning kerakli statistika ma’lumotlari ma’lum bir maqsad bilan sismavzuli o‘rganish va umumlashtirishsiz amalga oshmaydi. Chunki bu ma’lumotlar jamiyatimizda madaniyat, fan, tarbiya va ta’limning barq urib taraqqiy etish qonunlarining rivojlanishida muhimdir. Xalq maorifi budgetining oshishi, o‘quv yurtlarida bolalar sonining ko‘payishi, mакtabdan tashqari tarmoqlarning kengayishi, darsliklar, ko‘rgazmali qurollar, texnika vositalarinig ortishi, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash kabilalar statistika ma’lumotlari bilan isbotlanadi.

Anketa metodi. Anketa fransuzcha so‘z bo‘lib, tekshirish degan ma’noni anglatadi. Anketa metodi o‘quvchilardan so‘rash metodi bo‘lib, u o‘quvchilar tarkibining sifati to‘g‘risida kerakli ma’lumotlarni olish uchun, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun, shuningdek, kasbga yo‘llashni belgilash uchun ma’lum bir shaklda o‘tkaziladi. Bu metodni qo‘llashda quyidagi talablarga amal qilish kerak:

1. Anketalar o‘quvchilarning pedagogik va ruhiy tavsifini tuzishning manbai va universal vositasiga aylantirmasligi kerak.
2. Anketalar juda katta va noaniq bo‘lmasligi kerak.
3. Anketani o‘tkazishda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish va unga ajratilgan vaqt normada bo‘lishi kerak va h.

Nazorat savollari

1. Maktebgacha ta’lim pedagogikasi fanining yaratilishi?
2. Maktebgacha ta’lim pedagogikasi fanining maqsad va vazifalarini izohlang.
3. Maktebgacha ta’lim pedagogikasining asosiy tushunchalari va ularning mohiyati nimada?
4. Ilmiy tadqiqot metodlari va ularning ahamiyati.
5. Maktebgacha ta’lim pedagogikasiga doir adabiyotlar ro‘yxatini tuzing

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

7. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

8. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
9. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
10. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
11. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.
12. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

3-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tarixi.

Reja:

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalash dasturining yaratilishi va tarixi.
2. Ta'limning predmeti va bajarish funksiyalari

Tarixdan ijtimoiy maktabgacha tarbiyaning rivojlanishi bilan birgalikda tarbiyalash dasturi ham takomillashib boradi. Maktabgacha muassasalar ishini tashkil etish, uning mazmuni va metodlari yuzasidan asosiy ko‘rsatmalar 1919-yilda Maorif xalq kommissiyalarining maktabgacha tarbiya bo‘limining vazifasi «Oila o‘chog‘i va bolalar bog‘chasini yuritish yuzasidan instruksiya»da bayon qilib berilgan edi. Maktabgacha tarbiya sifatini yaxshilish uchun bolalar bog‘chasingiz ishining ilmiy asoslangan dasturini yaratish katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Programmaga oid har bir xujjat muayyan tarixiy bosqichda vujudga keldi va maktabgacha tarbiya nazaryasi va amaliyoti rivojlanishining tegishli bosqichini aks ettiradi.

Dasturning dastlabki loyihasi 1932-yilda chiqarilgan edi. Bu xujjat bolalar faoliyatining tegishli turlariga mos keladigan bilimlardan: ijtimoiy-siyosiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, musiqa-harakat tarbiyasi, tasviriy faoliyat, matematika, savod bo‘limlaridan iborat edi. Unda bolalar bog‘chasidagi bolalar bilan ishslash vazifalari va xajmini belgilashga urinib ko‘rilgan edi. «Dastur»ning vujudga kelishi esa maktabgacha tarbiya muassasalari ishini tartibga solishga, tarbiyachi-pedagoglar faoliyatiga ko‘proq yo‘nalish va mazmun bag‘ishlashga yordam berdi. 1934 yilda takomillashtirilgan «Tarbiyalash dastur» nashr etildi. Unda bolalar bog‘chasi bolalarning ko‘p qirrali xayotini tashkil etish va uning mazmuni masalalariga katta e’tibor berildi.

«Dastur»da quyidagi: ijtimoiy tarbiya, jismoniy tarbiya, rasm chizish, loy va plastelindan narsalar yasash, mehnat mashg‘ulotlari, nutqni o‘sirish, kitob va rasmlar bilan mashg‘ulotlar, tabiat haqidagi bilimlarning kurtaklari, dastlabki matematik tasavvurlarni rivojlantirish, savod chiqarish mashg‘ulotlari bo‘limlari

bor edi. Shu bilan birga unda muhim kamchiliklar mavjud edi, chunonchi, murakkab bilish materialining kiritilganligi, bolalarni yosh hususiyatlarni hisobga olinmaganligi, pedagogik jarayonni tashkil etishda tarbiyachining raxbarlik roliga yetarli baho berilmaganligi shular jumlasidandir. 1938-yilda «Bolalar bog‘chasining tarbiyachi uchun qo‘llanma» nashr etildi. Unda maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalari to‘g‘ri yoritildi. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish haqida aniqroq gap yuritiladi. «qo‘llanma» ilgarigidek, bolalar bilan ishlash mazmunini yosh guruppalarga qarab emas, balki tarbiyaning ayrim bo‘limlari bo‘yicha belgilangan edi. Bu esa tarbiyachini u yoki bu yoshdagi bolalar bilan ishlash uchun programma materialini tanlashda qiyin ahvolga solib qo‘yar edi. Jismoniy, aqliy, axloqiy tarbiyaning ko‘pgina masalalari «qo‘llanma»da yetarli darajada o‘z aksini topadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta‘lim berish masalalari ilmiy asosida ochib beriladi. Ota-onalar bilan ishlash ham yetarli yoritilgan edi.

1953-yilda bolalar bog‘chasida ta‘limning joriy etilishi munosabati bilan ta‘lim-tarbiya ishlari sifatini oshirish va bolalarni maktabgacha tayyorlash maqsadlarida «qo‘llanma» qayta ishlab chiqiladi. dasturda tarbiyachining rahbarlik roli ta‘minlangan holda tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bolalar o‘zlashtirishlari kerak bo‘lgan bilim mundarijasi ancha aniq ko‘rsatib berilgan.

1959-yil may oyida «Maktabgacha tarbiya muassasalarini yanada rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berish va meditsina hizmat ko‘rsatishni yaxshilish tadbirlari to‘g‘risida» qaror qabul qilindi. +aroda jumladan mahalliy sharoit va imkoniyatlarni hisobga olgan holda bolalar muassasalarining ikkita tipini-yasli va bolalar bog‘chalarini yagona maktabgacha muassasasiga (yasli bog‘cha) birlashtirilishi hamda yasli va maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning tarbiyalashning yagona dasturini ishlab chiqish ko‘zda tutildi.

Yangi xujjatda maktabgacha tarbiya pedagogikasi, bolalar psixologiyasi, hamda bolalarni o‘sishini o‘rganadigan yondosh fanlar to‘plagan ma'lumotlar hamda maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tarbiyalashning eng yaxshi tarbiyasini umumlashtirish asos qilib olindi. Atroflarning katta kollektivi tomonidan tayyorlangan ilk yoshdan to maktabgacha kirish yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan tarbiya ta‘lim ishlarining yagona programmasi birinchi marta 1962-yilda e’lon qilindi.

«Dastur» e’tibor tarbiya jarayonida yosh davomiyligi o‘rtasidagi aloqa uzilib qolishini tugatishga qaratilgan edi. Ilgari programma metodik jihatlariga qaraganda unda maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ta‘lim berish masalalari ko‘proq aks ettirildi. «Mashg‘ulotlarda ta‘lim berish» bo‘limida taqdim etilgan programma materiali ta‘lim berishda sistemalilikni amalga oshirish, bolalarning bilim minimumini to‘la o‘zlashtirish, ularning atorfagini voqyelik predmedlar va xodisalarning o‘zaro bog‘liqligini anglay olishlari uchun qulay sharoitlar yaratadi.

«Dastur» shuningdek, bola shaxsiyatini har tomonlama kamol toptirish uchun zarur bo‘lgan muayyan bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar, yurish-turishdagi ijobiy odatlar, ahloqiy fazilatlarni shakllantirishni ham ko‘zda tutadi. Unga mashg‘ulotlar, dam olish, ko‘ngil ochish, uyqu, ovqatlanish, sayr qilish rejimi kiritilgan. Tarbiyachi «Bolalar bog‘chasida tarbiya dasturi»ga ko‘ra,

maktabgacha tarbiya yoshdagi bolani o‘yinlar ko‘ngil ochish va mehnatda ta’lim berish va turmush jarayonida tarbiyalashning ko‘p tomonlama vazifalari xal etilishini ta’milamog‘i kerak edi. 1969-yilda takomillashtirilgan. «Bolalar bog‘chasida tarbiya dasturi» Chop etildi. U ilmiy tadqiqot va eng yaxshi ish tajribasidan foydalanish asosida tuzilgan bo‘lib, maktablarning boshlang‘ich ta’limning yangi programmalarga o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan talablarni hisobga oladi. Shundan keyingi yillarda bu «Programma» ba’zi qo‘srimcha va tuzatishlar bilan bir necha marta qayta nashr etildi. Masalan, 1978-yilda, 1988 va 1995-yillarda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalar singari ta’lim-tarbiyada ham ko‘pgina yangilanishlarni amalga oshirish extiyoji tug‘ildi. Buning uchun esa pishiq-puxta ishlagan ma'lum maqsad va vazifalarni uzi mujassamlashtirgan istiqbolli dastur talab etilardi. Bola dunyoga kelgan kunidan boshlab, davlat va jamiyat hamda ota-onas zimmasiga uni sog‘lom aqli, hushxulqli tarbiyalash vazifasi qo‘yiladi. Davlat va jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday voyaga yetishga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. O‘z navbatida jamiyat taraqqiyoti millatning ma’naviy darajasi bilan belgilanadi. Sog‘lom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor yo‘nalishidir.

Davlat va jamiyat maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalarni yagona talab asosida rivojlantirish vazifasini qo‘yadi. Shunga ko‘ra «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari»ga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga integral tarzda ta’lim tarbiya berish maqsadida 2002 yilda «Uchinchi ming yilliking bolasi» dasturi o‘zbek olimlar tomonidan yaratiladi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning 17 foizi ta’lim tarbiya muassasalarida, qolgan 83 foizi esa bevosita oilada tarbiyalanadi. Shu bois, taqdim etilgan dastur tarbiyachilar va ota-onalarga mo‘ljallangan.

Nazorat uchun savollar:

1. Maktabgacha ta’lim dasturini yaratilishi tarixi haqida nima bildingiz?
2. Uchinchi ming yillikni bolasi dasturini mazmunini asoslab bering.
3. Maktabgacha ta’lim tayanch dasturini asosiy bo‘lim va mazmunini izoxlang.
4. Dasturni takomillashtirishga sizni fikringiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

13. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947 sonli Farmoni.
14. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvinu tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
15. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.

16. "Maktabgacha ta'lismi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
17. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// "Maktabgacha ta'lismi" jurnali, 3-sod, 2017. 2-3 bet.
18. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

4-Mavzu: O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limi tizimi va uning turlari.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lismi to'g'risida"gi qonuni. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

Reja:

1. Xalq ta'limi tizimi va uning turlari
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lismi to'g'risida"gi qonuni.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari.

Aniq maqsadni ko'zlab mamlakatimiz yoshlariga ta'lim-tarbiya beradigan muassasalar xalq ta'limi tizimidir.

Xalq ta'limi tizimining taraqqiyoti shu mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini rivojiga, jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etadigan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga, milliy xususiyatlarga bog'liq.

Xalq ta'limi tizimi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'grisidagi qonunga muvofiq tashkil etiladi va nazorat qilinadi. Konstitutsiyamizning 18-, 41-moddasida ko'rsatilganidek, barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy maqyeidan qa'tiy nazar bilim olish huquqiga egadirlar. Fuqarolarning bepul umumiy ta'lim olishlari davlat tomonidan kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustda o'tkazilgan IX sessiyasida umumxalq muxokamasidan o'tgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshirilib boriladi. Har bir bosqich muayyan vazifalarni hal etishni nazarda tutadi.

I-bosqich (1997-2001) - mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloq qilish va rivojlantirish uchun ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoit yaratish.

II-bosqich (2001-2005) – milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorini rivojlantirish va real ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda aniqliklar kiritish.

III-bosqich (2005 yil va undan keyingi yillar) to'plangan tajribalarni tahlil etish, umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish.

Samarali ta'limga tashkil etish jamiyat taraqqiyotini millatning, xalqning porlok kelajagini ta'minlaydi. Shu bois ta'limga tashkil etish nafaqat davlatning

balki umumhalq ishdir. Ta'lim muassasalarida tashkil etilgan ota – onalar ko‘mitasi o‘kvchilar o‘z - o‘zini boshqarish organlarining kuchi va imkoniyatlaridan shuningdek otalik tashkilotlarning moliyaviy ma’naviy qullab quvvatlashlari evaziga ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Ushbu prinsip manna shu g‘oyani ochib berishga hizmat qiladi. Ta'lim tizimi deb muayyan jamiyatda ijtimoiy tarixiy jarayonda tarkib topgan ma'lum talablar asosida boshqariladigan xamda bir – biri bilan bog‘langan barcha tipdagi o‘kuv tarbiya muassasalarining yig‘indisiga aytiladi.

Ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo‘lib, qonun va xujjatlarda belgilangan tartibda faoliyat olib boriladi. ta'lim tizimi ijtimoiy – tarixiy xarakterga ega bo‘lib, muayyan jamiyatning ijtimoi- iqtisodiy madaniy taraqqiyoti darajasida, hamda siyosati mazmuni bilan bog‘lik xolda tarkib topadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX – sessiyasida (1997-yil 29-avgust) qabul qilingan ta'lim tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- a) davlat ta'lim standartlariga muvofiq, ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
- b) ta'lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan ilmiy – tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy pedagogik muassasalar;
- v) ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar. O‘zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi yagona va uzlucksiz bo‘lib, mazkur tizim doirasida faoliyat yurituvchi muassasalar ta'limni bosqichma – bosqich amalga oshirish uchun xizmat qiladilar.

O‘zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi.
Ta'lim turlari:

- Maktabgacha ta'lim
- Umumiyl o‘rta ta'lim
- O‘rta maxsus kasb - hunar ta'limi
- Oliy ta'lim
- Oliy uquv yurtidan keyingi ta'lim
- Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limi
- Maktabdan tashqari ta'lim.

O‘zbekiston Respublikasi «Ta'lim to‘g‘risidagi qonuni», «Ta'lim turlari» xususidagi 10-moddasida shunday deyiladi:

- Maktabgacha ta'lim.
Uch yoshdan boshlab, olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va mulkchilik ko‘rinishlaridan qa’tiy nazar, boshqa ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.
- Boshlang‘ich ta'lim. 1-4 sinflarni o‘z ichiga oladi. O‘qish 6-7 yoshdan boshlanadi.
- Umumiyl ta'lim. O‘quvchilarga 5-9 sinflar doirasida bilim va tarbiya beralida.
- O‘rta maxsus bilim va kasb-hunar bilimi. O‘qish muddati 3 yildan kam bo‘lмаган akademik va kasb-hunar litseylari va kollejlari.

- Oliy mutaxassislik ta'limi To'rt yildan kam bo'lmagan muddatda davom etadi.

Oliy mutaxassislik ta'limi: bakalavrlik, magistraturaga bo'linadi.

Bakalavrlik – bazaviy oliy ta'lim berish demakdir. Unda o'qish kamida 4 yil davom etib, oliy ma'lumot va tayanch mutaxassislik diplomi olish bilan tugaydi.

Magistratura – aniq mutaxasislik bo'yicha oliy kasbiy ta'lim bo'lib, bakalavrlik negizida kamida 2 yil davom etadi. Unda tahsil yakuniy kvalifikatsion davlat attestatsiyasi va magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan yakunlanadi.

- Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim PhD nihoyasiga yetkazilgan magistrlik negizida 3 yil davom etadi. PhD akademiya va kvalifikatsion imtixonlari, nomzodlik dissertatsiyalarini himoyasi bilan yakunlanadi.

Doktorantura – fan nomzodi ilmiy darajasi negizida 3 yil davom etadi, dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi.

- Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash.

- Maktabdan tashqari ta'lim.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarlarida haqli ravishda ta'kidlaganlaridek, "Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiyligidir, desak o'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz"⁴.

Chindanda o'z ertangi kelajagiga befarq bo'lmagan millat, yorug' va farovon kunlarini uning egalari bo'lmish yosh avlod istiqbolida ko'rgan millat ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi.

Istiqlol yillarida Prezidentimiz tashabbusi bilan avvalo ertangi kun egalari bo'lgan yosh avlod istiqboli, ta'lim-tarbiyasiga mas'ul bo'lgan ustoz va murabbiylar kasbiga bo'lgan munosabat o'zgardi. Jamiyatda bu sharaflri va o'z navbatida o'ta mas'uliyatli kasb egalariga nisbatan yuksak hurmat va e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida uzoqni ko'zlab olib borilayotgan islohotlar bugun nafaqat jamoatchiligidimiz, balki butun jahonda ham katta e'tibor bilan e'tirof etilmoqda.

Bugun yangicha qiyofa kasb etgan, zamon talablari darajasida ta'mirlangan, eng so'nggi rusumdag'i o'quv jihozlari bilan jihozlangan mакtablar orzu emas ayni haqiqatdir.

Mamlakatimiz ravnaqi va islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning bilim darajasi va dunyoqarashiga bog'liq. Shaxsning ta'lim-tarbiya sohasidagi faolligi, uning chinakam fuqaroviy munosabati, demokratik isloqotlarga intiluvchanligi belgilangan maqsadlarga tezroq erishishning muhim omilidir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Ta'lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi".

⁴ И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.

Bugungi kunda yangi ta'lim tizimi faoliyatini takomillashtirish va barqarorlashatirish hamda fuqarolarning bilim olish huquqlarini ta'minlashda rivojlangan xorij davlatlarining tajribasi bilan bir vaqtida Sharqdagi mutafakkir ajdodlarimizning bebaho meroslaridan ham foydalanish taqozo etiladi.

O'tgan yillar mamlakatimiz hayotida haqiqatan ham ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim Ijtimoiy dasturlar - Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limni rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining ijrosi amalda nihoyasiga etkazildi. 9 yillik umumta'lim maktab bosqichini va 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim bosqichini o'z ichiga olgan uzlusiz yaxlit ta'lim tizimi yaratildi va 12 yillik ta'lim tizimiga o'tish yakunlanmoqda.

2009-yilda Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan chora tadbirlar samaradorligi haqida gapirganda, ularning avvalo eng muhim masalalarga - yangi ish o'rinalarini yaratish va aholimizning turmush darajasini yanada oshirishga yo'naltirilganish aloxida qayd etish zarur.

"O'rni kelganda aytish kerakki, yangi 2010-yilda davlat byudjetining 50 foizdan ko'prog'i mamlakatimizda faqat ta'lim-tarbiya va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Barkamol avlod haqida so'z borganda, o'tgan yillar davomida katta kuch va mablag' hisobidan ta'lim sohasida barpo etilgan moddiy-texnik bazadan oqilona va samarali foydalanish masalasi qanchalik muhim ekani barchamizga ayon bo'lishi kerak, deb o'layman".


Ta'lim sohasida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikasiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg'or yutuqlar nafaqat maktab, lisey va kollejlar, oliy o'quv yurtlariga, balki har qaysi oila hayotiga keng kirib borishi uchun zamin tug'dirishning ahamiyatini chuqr anglab olishimiz lozim.

Mas'uliyatli va murakkab bu vazifa, davlatning boshqa tadbirlari qatorida, Respublika Oliy Majlisining IX-sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni (1997-yil 29-avgust) ro'yobga chiqarish orqali bajariladi. Bu dasturni tarkibiy qismi sifatida ta'limning yangi modeli yaratiladi. Bundan ko'zlangan maqsad ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratish edi.

Prezident tomonidan ilmiy asoslab berilgan ta'lim-tarbiya modelini amaliyatga tadbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalash bilan uzviy bog'liqdir.

Ushbu dastur mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxasisni tarbiyalab voyaga etkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darjasiga etkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir.



Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

«Ta'lim to'g'risidagi qonunga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish.

Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash.

Kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning kunduzgi va ijtimoiy maqomini ko'tarish.

Kadrlar tayyorlash tizimini hozirgi talablar doirasida qayta qurish.

Ta'lim oluvchilarni ma'nnaviy-axloqiy tarbiyalashning samarali uslublarini ishlab chiqish va joriy qilish

Tizimni attestatsiya va akkreditatsiya qilishning yagona tizimini joriy qilish

Normativ moddiy-texnika axborot bazasini yaratish

Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlash

Tizimga byudjetdan tashqari investitsiyalarni jalg qilish

Kadrlar tayyorlash sohasini o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish

— shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi;

— davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

— uzluksiz ta'lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

— fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

— ishlab chiqarish kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Ana shunday buyuk vazifalar va ularni amalga oshirish uchun ajratilayotgan mablag'lar haqida gapirar ekanmiz, ertangi kunimiz uchun, bolalarimiz, farzandlarimizning baxti uchun mehnat qilish, fidoiylik ko'rsatish - bu barchamizning muqaddas burchimizdir.

Nazorat uchun savollar.

1. Ta'lim tizimida maktabgacha ta'limning tutgan o'rnini izohlang.
2. Ta'lim tizimi doirasida faoliyat ko'rsatuvchi muassasalar haqida nimalar bilasiz?
3. Ta'lim tizimini boshqarishni qanday tushunasiz?
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy boskichlari qaysilar?
5. Ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim muassasalarining vazifalarini aniqlab bering.
6. Maktabgacha ta'limni asosiy turlari qaysilar?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

19. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
20. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-tonli Farmoni.
21. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-tonli Qarori.
22. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-tonli Qarori.

23. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// “Maktabgacha ta'lim” jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.
24. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

5-Mavzu: Mustaqillik yillarda maktabgacha ta'lim tizimiga yangicha yondashuv.

Reja:

1. Maktabgacha ta'limga qo‘yiladigan davlat talablarini ta'limiy-tarbiyaviy jarayonlarda tatbiq etish
2. Davlat talablariga rioya qilingan holda muassasaning ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish.

Pedagoglar Maktabgacha ta'limga qo‘yilgan davlat talablarini hayotga tatbiq etish uchun avvalo o‘zлari Davlat talablarini mazmun-mohiyatini chuqr anglashlari, Davlat talablarining besh yo‘nalishi mazmunidagi vazifalarni ta'limtarbiya jarayoniga yo‘naltirish malakasiga ega bo‘lishlari lozim.

Davlat talablari tug‘ilgandan to 7 yoshga yetgunga qadar bolaning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy tomonidan zamon talablariga qay darajada mos ravishda rivojlanganligi va erishgan yutuqlari, natijalarini baholab boruvchi talablar bo‘lib, bolalarni mifikta ta'limiga sifatli tayyorlashda egallagan bilim, malaka va ko‘nikmalar ko‘rsatkichlarini **5** yo‘nalishdagi sohalar bo‘yicha belgilaydi.

Maktabgacha ta'limga qo‘yilgan davlat talablarining **“Jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigienik ko‘nikmalarni shakllantirish”** mavzusidagi birinchi yo‘nalishi asosida pedagoglar bolalarning jismoniy faolligini oshiradilar, ularda yirik motorika, mayda motorika, sensomotorikanirovjlantirib, madaniy-gigienik ko‘nikmalarni shakllantirib boradilar. Mazkur yo‘nalish indikatorlari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida va kun davomida harakatli o‘yin, kam harakatli o‘yin, montessori o‘yinlari, yirik va mayda o‘yinchoq (konstruktor) bilan o‘yinlar, stol usti o‘yinlari (mozaika, loto, domino), voqyeaband o‘yinlar, suv va qum o‘yinlari, ertalabki badantarbiya, sport bayramlari, ko‘ngil ochar daqiqalar, sog‘lomlashtirish tadbirlari, sport musobaqalari, mehnat faoliyatlarida:madaniy-gigienik ko‘nikmalarkichik sohaning indikatorlari kun davomida yuvinish, kiyinish, ovqatlanish jarayonlarida hamda sayr, mehnat, turli o‘yinlar, mustaqil faoliyatlarda rivojlantiriladi.

Maktabgacha ta'limga qo‘yilgan davlat talablarining **“Ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish”** - ikkinchi yo‘nalishi asosida pedagoglar bolalarda muloqot va odob-axloq qoidalari, bolaning oila va jamiyatda o‘zini tutishi, bolada mehnat tarbiyasi, xavfsizlik asoslari (xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan manbaalardan o‘zini ehtiyoq qilish)ni shakllantirib boradilar.

Mazkur yo‘nalish indikatorlari atrof olam bilan tanishtirish, nutq o‘stirish, tabiat bilan tanishtirish, badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish, jismoniy tarbiya,

musiqa mashg‘uloti, psixolog, logoped mashg‘ulotlarida, nutq, matematika, tabiat, tasviri faoliyat, chet tillarining o‘rgatilishiga tayyorlash mashg‘ulotlarida va kun davomida voqyeaband, ta’limiy, rivojlantiruvchi, sahnalashtiruvchi, didaktik, vaziyatli o‘yinlarda, oila bilan o‘zaro hamkorlik jarayonida, ertalabki qabul, ovqatlanish, kiyinish, yuvinish, sayr, mustaqil faoliyat, mehnat faoliyatida, sport bayramlari, ko‘ngil ochar soatlar, bayram ertaliklari, sog‘lomlashtirish soatlarida rivojlantiriladi.

Maktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablarining “*Nutq, savod, o‘qish va chet tillarining o‘rgatilishiga tayyorlash*”-uchinchi yo‘nalishi asosida pedagoglar bolalarda nutqni madaniyat va muloqot ko‘nikmasini hosil qildirib, so‘z lug‘atlarini boyib boradilar. Bolalarning dialogik va monologik nutqi, nutqning tovush va intonatsiya madaniyati, fonematik eshitish rivojlantiriladi, savodga tayyorgarlik, yozish va o‘qish malakalari shakllantiriladi, chet tillarni o‘rganishga hohish, istak rivojlantiriladi.

Mazkur yo‘nalish indikatorlari nutq o‘stirish mashg‘uloti, savodga tayyorlash mashg‘uloti, chet tili, atrof olam bilan tanishtirish, tabiat bilan tanishtirish, ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg‘uloti, badiiy adabiyotmashg‘ulotlarida va kun davomida nutq o‘stirishni rivojlantiruvchi o‘yinlar, voqyeaband, roli, sahnalashtiruvchi, didaktik o‘yinlar, barmoq harakatlarini rivojlantiruvchi o‘yinlar, tovush madaniyatini rivojlantiruvchi o‘yinlar, logopedik o‘yinlar, bosma harflar to‘plami o‘yinlari, chet tillarini o‘rganishga mo‘ljallangan didaktik o‘yinlar, bolalar kutubxonasi faoliyati, o‘yin, sayr, yuvinish, ovqatlanish, kiyinish, mustaqil faoliyat, mehnat, sport bayramlari, ko‘ngil ochar soatlar, bayram ertaliklari, sog‘lomlashtirish tadbirlari, sport musobaqalarida rivojlantiriladi.

Maktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablarining “Bilish jarayonini rivojlantirish” mavzusidagi to‘rtinchi yo‘nalishi asosida pedagoglar bolalarni bilish jarayoniga qiziqishlari rivojlantiriladi, qiziquvchanlik va bilish istaklari orttiriladi. O‘z Vatani, yurti, mahallasi, qishlog‘i va millatining urf-odatlari, qadriyatlari va bayramlari haqidagi bilimlari shakllantiriladi. Bolalarda elementar matematik tasavvurlar shakllantiriladi: son-sanoq va hisoblashga oid bilimlar, geometrik shakllarni bilish, predmetlarni toifalash va tartib bo‘yicha joylashtirish, fazo va vaqt haqidagi bilimlar beriladi. Yangi tahrirdagi Davlat talablarining elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish bo‘limiga 1 dan 100 gacha bo‘lgan sonlarni to‘g‘ri va teskari sanash, 20 gacha bo‘lgan sonlar ichida ayrim matematik amallarni bajarish (qo‘sish, ayirish, taqqoslash) vazifalar kiritildi. Bunda pedagoglarga tarbiyalanuvchilarning qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda ularning qiziqish, ehtiyojlarini qondirishda ta’lim berishning differensiallashgan yondashuvlarini joriy etish malakalariga ega bo‘lishlik va otaonalarni ta’lim jarayoniga jalb etish talab etiladi.

Mazkur yo‘nalish indikatorlari atrof olam bilan tanishtirish, tabiat bilan tanishtirish, nutq o‘stirish mashg‘uloti, sensor tarbiya mashg‘uloti, ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg‘uloti, badiiy adabiyot mashg‘ulotlaridava kun davomidabiat haqidagi bilimlarini rivojlantiruvchi o‘yinlar (ta’limiy, didaktik, mantiqiy), atrof olam haqidagi bilimlarini rivojlantiruvchi o‘yinlar (ta’limiy,

didaktik, mantiqiy), elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishga mo‘ljallangan o‘yinlar (ta’limiy, didaktik, mantiqiy), yassi geometrik shaklli o‘yinlar (ta’limiy, mantiqiy, didaktik) va kun davomida mustaqil faoliyatlarda,sayr, tajriba o‘tkazish jarayonida, mehnat faoliyati, bolalar kutubxonasi faoliyati, to‘garaklarda rivojlantiriladi.Pedagog hamda ota-onalar bilan uzlusizhamkorlik qilinsagina ta’lim samaradorligiga erishiladi.

Maktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablarining “**Badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish va badiiy estetik rivojlantirish**” mavzusidagi beshinch yo‘nalishi asosida pedagoglar bolalarga kitobning qadr-qiymati, kitob o‘qish madaniyati tushuntiradilar, bolalar adabiyoti bilan tanishtiradilar. Shuningdek bolalar san‘at asarlari bilan tanishtiriladi. Musiqa, badiiy adabiyot, xalq og‘zaki ijodi haqidagi tushunchalarga ega bo‘ladilar.

Mazkur yo‘nalish indikatorlari badiiy adabiyot bilan tanishtirish, musiqa, rasm, loy, aplikatsiya, qurish-yasash mashg‘ulotlarida va kun davomidadidaktik, barmoq harakatlarini rivojlantiruvchi syujjetli o‘yinlar, musiqiy harakatli o‘yinlar, stol usti teatri, barmoq teatri, qo‘lqopli teatr, bolalar kutubxonasi, to‘garak faoliyatlarida rivojlantiriladi.

Yangi tahrirdagimaktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablari mazmunida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan talablar, maktabgacha ta’lim dasturidagi mashg‘ulotlar hajmi, soha va yo‘nalishlarning mashg‘ulot va faoliyatlardagi(kun davomida barcha faoliyatlarda) integrallashuvi mazmuni yoritib berilgan.

Maktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablarining 7-ilovasida Davlat talablari soha va yo‘nalishlarning mashg‘ulot va faoliyatlardagi integrallashuvi ko‘rsatilgan. Pedagoglar yo‘nalishlar asosidagi indikatorlarni kun davomida turli faoliyatlarda integrallashuv orqali amalga oshirishlari hamda mashg‘ulotlarni integrallashuv tarzda olib borib, Maktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablarining indikatorlarni bolalarda rivojlantirishga erishmog‘i darkor.

Integrallashuv – bola rivojlanishining har bir sohasi, uning boshqa sohalari bilan uzviy bog‘liqligi va ularning bir-biri bilan o‘zaro uyg‘unlashib ketgan jarayonidir. Masalan,matematika, qurish-yasash, aplikatsiya yoki nutq o‘stirish, badiiy adabiyot, rasm mashg‘ulotlarini bir-biriga uzviy bog‘lab, o‘zaro uyg‘unlashtirib olib borishni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Buning uchun pedagoglar Davlat talablarining yo‘nalishlari asosida berilgan indikatorlarni mashg‘ulot maqsadiga kiritgan holda mashg‘ulot ishlanmalarini tuza olishlari va mashg‘ulotga olingan maqsadniamalga oshira olish malakalariga ega bo‘lishlari kerak. Pedagoglar Davlat talablarini bajarish uchun mashg‘ulotdan tashqari bolalarning qiziqishlariga ko‘ra ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan to‘garaklar ochishlari, bolalar o‘rtasida qobiliyatli, iqtidorlilarini aniqlab, shaxsni rivojlantirishga qaratilgan festival, tanlovlardan va boshqa tadbirlarni o‘tkazishlari kerak.

Maktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablarining 8-ilovasida maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘tkaziladiganmashg‘ulotlar davriyligi berilgan. Pedagoglar Davlat talablariga rioya qilingan holda muassasaning ta’lim-

tarbiya faoliyati rejalashtirishga qaratilgan mashg‘ulotlar jadvalini ijodiy yondoshgan holda tuzadilar.

Mazkur malaka ishda namunaviy haftalik mashg‘ulotlar bir-biri bilan uyg‘unlashtirilib – integrallashgan tarzda ilova qilindi. Tarbiyachilar mashg‘ulotlar jadvaliga ijodiy yondashgan holda foydalanishlari mumkin.

Davlat talablari sohalari yo‘nalishlari bo‘yicha indikatorlarni bolalar tomonidan o‘zlashtirganlik darajasini tahlil qilish.

Bolalarning bilim, ko‘nikma va malakalari, ularning har tomonlama rivojlanishi hamda maktab ta’limiga tayyorgarlik darajalari mazkur Davlat talablarining 7-ilovasida nazarda tutilgan mashg‘ulot va faoliyatlarni o‘tkazish jarayonida mazkur Davlat talablarining 1–6-ilovalarida ko‘rsatilgan indikatorlarning bajarilishini kuzatish, o‘rganish, tahlil qilish va baholash orqali aniqlanadi.

Mazkur Davlat talablarida yo‘nalishlar bir necha sohaga bo‘lingani, sohadagi indikatorlar soni ko‘pligini inobatga olib, pedagoglar mazkur indikatorlar yuzasidan tarbiyalanuvchilar egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘rganish va tahlil qilishda ma’suliyat bilan yondoshib, kun davomida har bir bolani kuzatishi, o‘rganishi bilan, indikatorlarni bolalar tomonidan o‘zlashtirganlik darajasini turli faoliyatlarda (mashg‘ulotlar, o‘yinlar(*voqyeaband, ta’limiy, harakatli*), yertalabki badantarbiya, mustaqil faoliyat, ko‘ngil ochar soatlar, musobaqalar, ko‘rik tanlovlari, to‘garak ishlarida vahokozo) kuzatib, o‘rganib tahlil qilib boradilar. Bunda ***bolani kuzatish xaritasida berilgan indikatorlar, nazorat tekshiruv topshiriqlardan*** foydalanishlari tavsiya etiladi.

Nazorat tekshiruv topshiriqlarni baholash mezoni.

3ball–faoliyat me'yorga mos keladi.

(*Bola topshiriqni mustaqil bajardi*)

2ball–me'yordan biroz pastroq.

(*Bola topshiriqni bajardi, lekin 1-2ta xatoga yo‘l qo‘ydi*)

1 ball - me'yordan sezilarli darajada past.

(*Bola topshiriqni bajarishga harakat qildi, lekin 3tadan ortiq xatoga yo‘l qo‘ydi*).

Tarbiyachilar bolalarda ijtimoiy-kommunikativ rivojlantirish yo‘nalishdagi indikatorlarni bolalarda shakllanganini aniqlash uchun mazmunli suratlar, badiiy asarlar o‘qib berish, oila, odob-axloq haqida suhbatlar tashkil etib bolalarning voqyeaga nisbatan fikrlari, javoblarini eshitib, voqyeaband o‘yinlarda bolalarning o‘zlarini ijobjiy fazilatlarini namayon etishlari asosida baholash tavsiya etiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

25. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

26. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
27. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
28. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
29. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.
30. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

6-Mavzu: Maktabgacha ta'lim – uzlucksiz ta'lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini

Reja:

1. Soha rivojiga hissa qo‘shayotgan bir qator qaror va farmoyishlar
2. Ularning soha rivojida tutgan o‘rni

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo‘lishlari shart!” degan hayotiy da‘vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi hamda qalbidan mustahkam o‘rin egallaganini, bu sohada olib borilayotgan keng miqyosli ishlar, xususan, ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarni mantiqiy yakuniga yetkazish, yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash eng muhim vazifa ekanini alohida ta’kidladi.

Zero, har tomonlama sog‘lom avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, bu borada shakllantirilgan mustahkam tashkiliy-huquqiy asos bolalarning zamon talablariga mos ravishda ta’lim olishi, munosib sharoitda kamolga yetishi, iqtidor va salohiyatini namoyon etib, rivojlantirishi uchun zamin yaratmoqda.

Prezidentimizning 2016-yil 30-dekabrda qabul qilingan “2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, ta‘bir joiz bo‘lsa, ana shu ezgulik yo‘lidagi yana bir dadil qadam sanaladi.

Mazkur hujjat maktabgacha ta'lim tizimining moddiy-texnika bazasini kuchaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, pirovardida bolalarni maktabga

tayyorlashni sifat jihatidan yanada yaxshilashga qaratilganligi bilan g‘oyatda ahamiyatlidir. Unda respublika bo‘yicha bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo‘lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish, 3 — 6 yoshdagi maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo‘llanmalar bilan ta’minalash orqali maktab ta’limiga tayyorlashni samarali yo‘lga qo‘yish, maktabgacha ta’lim muassasalari davlat tarmog‘i bilan bir qatorda, nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarini kengaytirish bo‘yicha puxta chora-tadbirlar o‘z ifodasini topgan.

Chindan ham, bolaning ongu tafakkurini rivojlantirish va umumta’lim maktabiga tayyorlashda maktabgacha ta’lim muassasalarining roli hamda ahamiyati beqiyosdir. Shu ma’noda, mazkur qarorga muvofiq, Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017 — 2021 yillarga mo‘ljallangan dasturning ijroga yo‘naltirilishi ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, buning uchun, avvalo, ushbu muassasalarga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o‘quv reja hamda dasturlarini takomillashtirish, tizimda innovatsion yondashuvlarni rag‘batlantirish singari ustuvor maqsadlarni ro‘yobga chiqaradi.

Uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich va muhim bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini yangi bosqichga olib chiquvchi Dasturning to‘liq hamda sifatli bajarilishida parlament nazoratining ta’sirchan mexanizmlarini amalga oshirish Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari oldida turgan asosiy vazifalardan biriga aylandi. Umuman, bu yo‘nalishdagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat va hududiy dasturlar ijrosini nazorat-tahlil tartibida o‘rganib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda mahalliy hokimiyat organlari, fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, yosh avlod manfaatlarini har taraflama kafolatlashga qaratilgan sa'y-harakatlar qamrovini va sur'atini yanada jadallashtirish zarur.

Unutmaylikki, bugun kamolga yetayotgan farzandlarimiz — ertamiz egalari davlat va jamiyat salohiyatini, taraqqiyotini belgilab beruvchi kuchdir.

Mamlakatimiz Prezidentining tashabbusi bilan hozirda uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish va faoliyatini takomillashtirish, tarbiyalanuvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish yuzasidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida “Davlat maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to‘lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini e’tirof etishimiz mumkin.

Ta’kidlash joizki, o‘tgan yillar mobaynida maktabgacha ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan rahbar va pedagog xodimlarning, maktabgacha ta’lim

muassasasidagi ta'lim-tarbiyaga mas'ul xodimlarning mehnatini rag'batlantirishga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan.

Masalan, 1993-yilga qadar mактабгача та'лим muassasalarining tarbiyachisi va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchisi mehnatiga haq to'lash miqdori bir xil bo'lган bo'lsa, Hukumatning alohida qarorlari bilan hozirga qadar umumta'lim maktablari pedagog xodimlari mehnatiga haq to'lash miqdorlari bir necha marta oshirilgani holda mактабгача та'лим muassasalari xodimlarining ish haqi miqdorlari o'zgarishsiz qoldirilganligi hisobiga ularning o'rtacha ish haqi miqdori umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisiga nisbatan 60 foizni tashkil etadi, xolos.

Bu esa, o'z navbatida, mактабгача та'лим muassasalari pedagog xodimlari iste'dodi, kasb mahorati va ish faoliyatida shaxsiy hissasi namoyon bo'lmасligiga hamda muassasaning pedagogik salohiyatini pasaytirishga olib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat mактабгача та'лим muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori aynan mактабгача та'лим sohasida yuqorida qayd etilgan xato va kamchiliklarni bartaraф etish maqsadida qabul qilingan. Mazkur qaror bilan mактабгача та'лим muassasalari ayrim xodimlarining ish haqi to'lovlarini quyidagi miqdorlarda 2 ta bosqichda oshirish ko'zda tutilgan:

1. 2018 yil 1 martdan – mudir, tarbiyachi, uslubchi, o'qituvchi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari va tarbiyachi yordamchisi 30 foizga;

2. 2018 yil 1 sentyabrdan:

oliy ma'lumotga ega bo'lган tayyorlov guruhi (5 yoshdan 6-7 yoshgacha) tarbiyachisi, o'qituvchi, defektolog, psixolog 30 foizga;

oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar pedagogik ma'lumotga ega bo'lган tarbiyachi yordamchisi 20 foizga;

mактабгача та'лим muassasasi mudiri 10 foizga.

Buning natijasida davlat mактабгача та'лим muassasalarida mehnat qilayotgan jami 93555 nafar xodim, shundan 4908 nafar mudir, 3924 nafar oliy ma'lumotli tarbiyachi, 39523 nafar o'rta maxsus ma'lumotli tarbiyachi, 673 nafar metodist, 3765 nafar defektolog, 1450 nafar psixolog, 33259 nafar tarbiyachi yordamchisi va 7503 nafar musiqa rahbarining ish haqlari sezilarli darajada oshiriladi.

Ushbu qarorda 2018-yil sentyabr oyidan boshlab oliy ma'lumotga ega bo'lган tayyorlov guruhi (5 yoshdan 6-7 yoshgacha) tarbiyachisi mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalari miqdori umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflari o'qituvchilarining bazaviy tarif stavkalari miqdoriga tenglashtirilishi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, qaror bilan mактабгача yoshdagи bolalarni mактабгача та'лим bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida hamda qishloq joylardagi aholi turmush darajasini inobatga olib, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, Kasbi, Mirishkor, Qamashi, Chiroqchi, Nishon, Yakkabog' va G'uzor tumanlarida, Buxoro viloyatining Olot, Shofirkon, Qorako'l, Peshku va Romitan tumanlarida, Surxondaryo viloyatining Qiziriq, Muzrabot, Oltinsoy, Boysun, Qumqo'rg'on, Uzun, Sariosiyo tumanlarida joylashgan davlat mактабгача та'лим muassasalarida

2023-yilning 1-yanvarigacha ota-onalar badal to‘lovi miqdorini 50 foizga kamaytirish nazarda tutilgan.

Hukumatimiz tomonidan maktabgacha ta’lim tizimida mehnat qilayotgan xodimlarning moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi hamda qishloq hududlarda bog‘chalar uchun ota-onalar to‘lovining keskin pasaytirilishi maktabgacha yoshdagi bolalarni bog‘chalarga qamrab olish darajasini oshirishga hamda maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

31. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
32. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
33. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
34. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
35. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta’limga qamrab olish.// “Maktabgacha ta’lim” jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.
36. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

7-Mavzu: Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi shaxsiga qo‘yilgan talablar. Uning shaxsini shakllantirish

Reja:

1. Pedagog – tarbiyachi shaxsiga qo‘yilgan talablar
2. Pedagog – tarbiyachi shaxsini shakllantirish.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan ulkan islohatlarning muvaffaqiyatga eng avvalo odamlarning o‘z ishlariga ma’suliyat bilan qarashlariga, kundalik mehnat faoliyatida mamalakat taraqqiyotiga hissa bo‘lib qo‘shiladigan savobli ishlarni qila oshilariga bog‘liq. Jamiyatda pedagog (o‘qituvchi, tarbiyachi) birinchidan, o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va ma’suliyatli vazifalarni bajaradi.

Pedagogika – bu kelajak, istiqbol uchun meros qilib qoldiriladigan boylikdir. Bu boylikning qadr-qimmati shu qadar buyukki, u odamni ma’naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to‘ldiradi. Dunyoda biror kimsa yo‘qki, uning ustozи bo‘lmasa. U xukumat rahyuarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq

mexrini qozongan yozuvchimi yoki qo‘ligul kosibmi, qo‘yingki, barcha-barchaning o‘z ustozi va hayot yo‘lini charog‘on etib turuvchi yo‘lboshchisibo‘ladi.

Ustozning eng buyuk burchi – uning xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli, uquvli shogirdlar tayyorlashdir.

Tarbiyachi yosh avlodni halqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va fahrli shu bilan birga ma’suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun halq va jamiyat oldidagi o‘z ma’suliyatini anglashga ta’lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o‘z maxoratini doimo faollashtirib bori shva hamkasblarning ishdagi o‘sishga ko‘maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o‘zi yashab turgan o‘lka xayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo‘lishi kerak.

Respublikamiz rahbariyati pedagoglar faoliyatini yuqori baholamoqda. Ma'lumki Uzbekiston Respublikasi prezidenti farmoniga binoan oktyabr oyining Halq ta'limi hodimlari – o‘qituvchi murabbiylar kuni deb e'lon qilindi. Bu voqyea davlatimizni o‘qituvchilarni jamiyatda tutgan o‘rni naqadar yuksakligidan dalolat beradi. Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda erishgan yutuqlari uchun, pedagog ishidagi ijodiy mehnatlari uchun, ilg‘or tajribalarni umumlashtirishda erishgan yutuqlari uchun o‘qituvchi, tarbiyachilar «Metodist o‘qituvchi», «katta o‘qituvchi», «Metodist - tarbiyachi», «Xalq maorifi a'lochisi» vash u kabi sharaflı unvonlar bilan taqdirlanadilar. Xalq ta'limi xodimlari orasidan respublika bo‘yicha deputatlar saylanishi ham ularga bo‘lgan chuqur xurmat-ehtiromni bildiradi.

Jumxuriyatimizda pedagog xodimlarning oylik maoshlari yildan-yilga oshirilib, turmush sharoitlari yaxshilanib kelinmoqda. Pedagog xodimlarni malakasini oshirish ilmiy-metodik markazlari kengaytirilmoqda, ularning siyoiy tayyorgarligiga talab kuchaytirilmoqda; har 4-5 yilda qayta tayyorlashdan o‘tishlari uchun shart-sharoit yaratilmoqda.

Pedagog – tarbiyachi shaxsiga qo‘yilgan talablar

Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o‘yinlarda, mashg‘ulotlarda, bigalikkagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo‘ladigan muomalada ta’sir ko‘rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o‘rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o‘z kasbiga sadoqatliligi, goyaviy e’tikodliligi o‘z kasbini sevishi va bu kasbga bo‘lgan cheksiz sadoqat o‘kituvchi – tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turiladi. Pedagog – tarbiyachi shaxsiga quyiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o‘z predmetini, uning metodikkasini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasi chuqur bilishi bolalarni bilishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Bu pedagog – tarbiyachining obro‘sini ko‘taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo‘lgan muxim fazilatlaridan talablaridan biri bolalarni sevish ularning xayoti bilan qiziqish har bir shaxsn xurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar kilaoladigan odamgina

hakiqiy tarbiyachi pedagog bo‘la oladi. Bolaga befarq uning kelajagi va qiziqmaydigan tarbiyachilik kasbiga loqayd odam haqiqiy pedagog – tarbichi bo‘la olmaydi.

Bolalarni sevish – pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. O‘qituvchi tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga xurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagoga nisbatan ishonchni uyg‘otadi, o‘qituvchiga bolalarga chinakam ma’naviy murabbiysi bo‘lishga imkon beradi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog‘liqdir. Pedagogik qibiliyatlar – pedagogik mahoratiga erishishning zaminidir. Pedagogik qibiliyatlar tarkibiga: pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi. Pedagogik qibiliyatlar pedagogik faoliyati jarayonida, shuningdek uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogik mahorat – bu yosh avlodga ta‘lim-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san‘atidir.

Pedagog – tarbiyachi shaxsini shakllantirish.

Tarbiyachi maktabgacha yoshidagi bolalarga tabiat, jamiyat xodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang‘ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy ahloq, o‘z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli manosabatda bo‘lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo‘ylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga xurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o‘simgilik va hayvonlarga g‘amxo‘rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalarni mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi ahloqiy sifatlarni tarbiyalaydi.

Xalq san‘ati, musiqa, ashula, adabiyot, tasviriy san‘atni bilish, san‘atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar bilan olib boradigan ishida yordam beradi. Pedagog kerakli bilim, malaka va ko‘nikmalarni ma'lumbir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta‘lim berish ishida yaxshi natjalarga erishadi. Tarbiyachi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rishi kerak. U quyidashi shartlarga amal qilishi kerak:

1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg‘or tajribali pedagoglarning tajribasini o‘rganib, o‘z ishiga tadbiq eta oladigan kishi bo‘lishi kerak.

2. Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ijobiy ta’sir etuvchi vositalarni topa olishi kerak.

3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo‘lishi lozim. Ta‘lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko‘nikmalarni yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun faollashtirib savollardan foydalanishi kerak.

4. Tarbiyachi o‘ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o‘sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg‘ota olish, ularning diqqatini jalb

qilib, faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi kerak.

5. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi kerak.

6. Kun tartibini to'g'i tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish.

7. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi lozim.

8. tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib, axborot almashtirib turishi kerak.

9. Pedagog bolalarga nisbatan hayrihoxlik munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, hafa bo'lsa ovuntara olishi kerak.

10. Kun tartibida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak.

Eng muhimi – tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to'g'ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar.

Nazorat savollari.

1. Tarbiyachi – pedagoglik kasbi qanday kasb va bunga sizning munosabatingiz?
2. Tarbiyachining shaxsiy sifatlari va pedagogning odobi qanday bo'lishi kerak?
3. Hozirgi davr o'kituvchisiga quyilgan pedagogik talab nimalardan iborat?
4. Kasbiy layoqat deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

37. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947 sonli Farmoni.
38. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
39. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
40. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
41. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.

42. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

8-Mavzu: Pedagog tarbiyachi shaxsini shakllantirish, tarbiyachining nutq madaniyati

Reja:

- 1.** Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo'yilgan talablar.
- 2.** Uning shaxsini shakllantirish.
- 3.** Pedagog-tarbiyachining nutq madaniyati.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan ulkan islohatlarning muvaffaqiyatga eng avvalo odamlarning o'z ishlariga ma'suliyat bilan qarashlariga, kundalik mehnat faoliyatida mamalakat taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shiladigan savobli ishlarni qila olishlariga bog'lik. Jamiyatda pedagog (o'qituvchi, tarbiyachi) birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va ma'suliyatli vazifalarni bajaradi.

Maktabgacha pedagogika fani – bu kelajak, istiqbol uchun meros qilib qoldiriladigan boylikdir. Bu boylikning qadr-qimmati shu qadar buyukki, u odamni ma'naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to'ldiradi. Dunyoda biror kimsa yuqli, uning ustozи bo'lmasa. U xukumat rahbarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mexrini qozongan yozuvchimi yoki qo'li gul kosibmi, qo'yingki, barcha-barchaning o'z ustozи va hayot yo'lini charog'on etib turuvchi yulboshchisi bo'ladi.

Ustozning eng buyuk burchi – uning xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli, uquvli shogirdlar tayyorlashdir.

Tarbiyachi yosh avlodni halkimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va fahrli shu bilan birga ma'suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun halq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo'lishi kerak.

Respublikamiz rahbariyati pedagoglar faoliyatini yuqori baholamoqda. Ma'lumki O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti (1996-yil 9-yanvardagi) Farmoniga binoan «1 oktyabr Xalq ta'limi hodimlari – o'qituvchi murabbiylar kuni» deb e'lon qilindi. Bu voqeа davlatimizni o'qituvchilarни jamiyatda tutgan o'rni naqadar yuksakligidan dalolat beradi. Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda erishgan yutuqlari uchun, pedagog ishidagi ijodiy mehnatlari uchun, ilg'or tajribalarni umumlashtirishda erishgan yutuqlari uchun o'qituvchi, tarbiyachilar «Metodist o'qituvchi», «katta o'qituvchi», «Metodist - tarbiyachi», «Xalq maorifi a'lochisi» va shu kabi sharafli unvonlar bilan taqdirlanadilar. Xalk ta'limi xodimlari orasidan respublika buyicha deputatlar saylanishi ham ularga bo'lgan chuqur hurmat-ehtiromni bildiradi.

Jumhuriyatimizda pedagog xodimlarning oylik maoshlari yildan-yilga oshirilib, turmush sharoitlari yaxshilanib kelinmokda. Pedagog xodimlarni malakasini oshirish ilmiy-metodik markazlari kengaytirilmokda, ularning siyosiy tayyorgarligiga talab kuchaytirilmokda, har 4-5 yilda qayta tayyorlashdan o‘tishlari uchun shart-sharoit yaratilmokda.

Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo‘yilgan talablar. Uning shaxsini shakllantirish. Pedagog-tarbiyachining nutq madaniyati.

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo‘naltirish og‘ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzlucksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga shunday ta'rif beradi: “*Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo‘l, avvalo ta’lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan beba ho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo‘lgan yana bir buyuk zot – o‘qituvchi va murabbiylarning oljanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz... Muxtasar qilib aytganda, maktab degan ulug‘ dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta’sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o‘qituvchi va murabbiylar mehnatini hyech narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydi*”.

Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O‘zbekistonning istiqboli, ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachi-o‘qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta’lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shiovatiga bog‘liq.

Ma'lumki, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayon bevosita o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish va kasbga yo‘naltirish o‘qituvchilar zimmasiga yuklatilgan.

Tarbiya – o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo‘lib, tarbiyalanuvchini ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta’sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo‘naltirilgan qizg‘in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va histuyg‘ulari rivojlanadi, o‘zida ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topish uchun zarur bo‘lgan, kishilar bilan o‘zaro munosabatni to‘g‘ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo‘ladi Tarbiya xususida taniqli o‘zbek adibi Abdulla Avloniyning “*Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo*

*falokat, yo saodat – yo razolat masalasidur*⁵ – deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqatdir. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov o‘qituvchidagi tarbiyachilik qobiliyatining asosiy mohiyatini shunday ta’riflaydi: «*Tarbiyachi – ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘sirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o‘zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak*». Demak, o‘z faoliyatini endigina boshlayotgan o‘qituvchilar va doimiy izlanishda bo‘lgan tajribali o‘qituvchilar ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda o‘quvchining ichki va tashqi dunyosini to‘g‘ri tushunish malakasi;
- pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;
- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;
- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;
- xilma-xil pedagogik taktlardan o‘zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati;
- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to‘g‘ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta’sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati;
- fikr va mulohazalarini so‘z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o‘quvchi ongiga aniq yetkaza olish;
- dars va darsdan tashqari faoliyatda o‘quvchilar bilan kommunikativ aloqa o‘rnata olish qobiliyati;
- o‘quvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o‘z fikr mulohazalarini qo‘rmasdan bayon qilish ko‘nikmalarini tarbiyalash;
- qiyin holatlarda o‘quvchilarga yordam bera olish;
- tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishda o‘quvchilar jamoasi bilan doimo maslahatlashish;
- o‘tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar yuzasidan o‘quvchilarning fikrlarini o‘rganish;
- o‘z-o‘zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;
- har bir o‘quvchining yashirin ijobiy fazilatlarni ko‘ra olish va takomillashtirish;
- o‘quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo‘lish.

Tegishli ma'lumotli, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagoglik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega deyiladi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning 5-moddasida.

Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o‘yinlarda, mashg‘ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo‘ladigan muomalada ta’sir

⁵ Авлоний Абдулла. “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ”. – Тошкент, Ўқитувчи, 1992й.

ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilihi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqati o'qituvchi – tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Bu pedagog-tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan, talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni xurmat kilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi-pedagog bo'la oladi. Bolalarni sevish – pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarni chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog'likdir. Pedagogik qobiliyat - pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyat tarkibiga: pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi. Pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyatÝ jarayonida, shuningdek uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogik mahorat – bu yosh avlodga ta'lif-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san'atidir.

Pedagog – tarbiyachi shaxsini shakllantirish

Tarbiyachi mактабгача yoshidagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy ahlok, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli manosabatda bo'lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgýylik,adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o'simlik va hayvonlarga g'amxurlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalarni mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi ahloqiy sifatlarni tarbiyalaydi.

Xalq san'ati, musiqa, ashula, adabiyot, tasviriy san'atni bilish, san'atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar bilan olib boradigan ishida yordam beradi. Pedagog kerakli bilim, malaka va ko'nikmalarni ma'lum bir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lif berish ishida yaxshi natijalarga erishadi. Tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal kilishi kerak:

1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tadbiq eta oladigan bo'lishi;

2. Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ijobjiy ta’sir etuvchi vositalarni topa olishi;

3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo‘lishi lozim. Ta’lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko‘nikmalarni yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi;

4. Tarbiyachi o‘ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o‘sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg‘ota olish, ularning diqqatini jalb kilib, faolligini o‘sirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi;

5. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo‘yishi;

6. Kun tartibini to‘g‘ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a’zoni e’tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish;

7. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarida e’tiborga olishi;

8. Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o‘tkazib, axborot almashтирib turishi;

9. Pedagog bolalarga nisbatan hayrihoxlik munosabatda bo‘lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, hafa bo‘lsa ovuntara olishi;

10. Kun tartibida olib borgan ta’lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo‘llarini topa olishi kerak.

Eng muhimmi – tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to‘g‘ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar.

Pedagog – tarbiyachining nutq madaniyati

Nutq madaniyati – ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyatni madaniyatini aks ettiruvchi bir ko‘zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli – yozma va og‘zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e’tibor yolg‘iz o‘qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o‘zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallash har bir o‘qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog‘liq. O‘qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma’naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me'yordir. O‘qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o‘giti natijasida yillar davomida takomillashib, sayqallanib boraveradi. O‘qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivojlantirish faqat o‘qituvchining shijoatiga bog‘liq. Shu qobiliyat tufayli o‘qituvchining nutq madaniyati ham shakllanib boradi. Quyidagi o‘qituvchining nutq madaniyatiga xos bo‘lgan vositalarni pedagog-tarbiyachi unutmasligi kerak:

1. Nutq madaniyati o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy kamoloti tarkibiy qismidir. Zero nutq, millatimiz erishgan madaniyat darajasini ko‘rsatuvchi, o‘z ona tilimizga e’tiqodni namoyish etuvchi yorqin va ishonchli dalildir.

2. Nutq madaniyati o‘qituvchilarni ma’naviy va madaniy saviyasi bilan, hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ma’lum ma’noda ajratib turadi.

3. Nutq madaniyatining pirovard maqsadi erkin fikr egasi bo‘lgan barkamol avlodni qanday kasb egasi bo‘lib yetishishidan qat’iy nazar ma’naviy jihatdan tarbiyalash.

4. Nutq madaniyati — bu avvalo, o‘qituvchilarda nutqiy ko‘nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko‘nikma pedagogik faoliyatda takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi.

5. Nutq madaniyatiga o‘zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun o‘qituvchi adabiy til qonuniyatlarini bilishi, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o‘qib borishi, she’rlar yod olishi va uni ifodali o‘qiy olishi, radio va televidenie eshittirishlarini kuzatib borishi lozim.

6. Nutq madaniyatini egallashning yana bir ko‘rinishi nutqiy taqlid bo‘lib, yosh o‘qituvchilar o‘zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma’noli va ta’sirchan nutq so‘zlaydigan ustoz murabbiylarning nutqiy san’atiga havas bilan qarashi va taqlid qilishi asosida o‘rganishi mumkin.

O‘qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasini mukammal egallash muhim ahamiyatga ega. Zero, nutq vositasida o‘qituvchi bolaning his-tuyg‘ularini uyg‘otadi, o‘quvchilar bilan ongli muloqotni ta’minlaydi, ta’lim-tarbiyaga oid ma’lumotlarni tahliliy idrok etadi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchi avvalo nutq sirlarini, uning o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotda ta’sir kuchini puxta bilishi kerak.

9-Mavzu: Mashg‘ulot jarayonida pedagog tarbiyachining pedagogik mahorati

Reja:

1. Mashg‘ulot jarayonida pedagog tarbiyachining o‘rni
2. Mashg‘ulotlarni rejalahtirish metodlari
3. Mashg‘ulotlarning tuzilishi

Bolalarga ta’lim berish jarayonida tarbiyachi har xil metodlardan, usullardan foydalanishi zarur. Masalan:

Ko‘rgazmali	Og‘zaki	Amaliy	O‘yin metodlari
Kuzatish	Tushunish	Mashq	Didaktik o‘yinlar
Ko‘rsatish	Hikoya kilish	Mustakil ish	Harakatli uyinlar
TV dan foydalanish	So‘zlab berish	Oddiy tajriba	Mashqli uyinlar

	O‘qib berish		Insenirovkalar
	Suhbat		Kundalik axborot

Mashg‘ulot ta’lim muassasida bolalarga ta’lim berishning asosiy shaklidir. Mashg‘ulot – pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta’lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq-hisob harakatlari kabi turli tuman malaka va ko‘nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta’lim berishda bosh rolni mashg‘ulot egallaydi. Mashg‘ulotlar maktabgacha ta’lim muassasasida ta’limni tashkil etish shaklidir.

Ta’lim shakli deganda ta’lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o‘tkaziladi.

Ta’lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir xususiyatiga, o‘tkazish joyiga shuningdek kun tartibida egallagan o‘rniga qarab bir-biridan farq qiladi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida ta’limning frontal (umumi), jamoaviy va yakka tartibdagi shakllaridan foydalilaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta’lim berish ishlari ekskursiya, didaktik o‘yinlar orqali, kun davomida bolalarning mashg‘ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o‘yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriladi.

Mashg‘ulot maktabgacha ta’lim yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o‘rin va vaqt ajratilgan. Mashg‘ulot tarbiyachi rahbarligida o‘tkaziladi, tarbiyachi mashg‘ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etadi. O‘quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.


Mashg‘ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg‘ulot orqali bolalar o‘quv malakasini egallab oladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta’lim berish natijasida bilimga qiziqishlar rivojlnana boradi.

Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta’sir etishadi, o‘z tashabbusi, topog‘onligini namoyon qilish imkoniyati tug‘iladi. Bolalar oldiga umumiyo zo‘r berishning talab etuvchi vazifa qo‘ylganda birgalikda qayg‘urishadi, jamoatchilik xissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiyo raqs-o‘yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o‘qishda paydo bo‘lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do‘stona jamoasini yaratishga yordam beradi. Mashg‘ulotda ta’lim berish orqali bolalarda maktabdagi o‘qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik xissi, o‘zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to‘g‘ri sifatlar hosil qilinadi.

Bolalarni maktab ta'limga ruhiy jihatdan tayyorlashni ularning boshlang'ich sinflarda dastur materialni yaxshi o'zlashtirib olishlarini ta'minlovchi bilim va malakalar mashg'ulotlar jarayonida xosil qilinadi.

Mashg'ulotlarda bolalarda mustaqil fikr yuritish, malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga qulq solish, ularning fikriga ergashish, hikoya qilinayotgan hikoyalardan voqyeadagi asosiy g'oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Mashg'ulotda tarbiya vazifalari xal etiladi. Mashg'ulot bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma'lum izchillikda olib boriladi. Maktabgacha ta'limga muassasasi ta'limga-tarbiya dasturida har bir yosh guruhda hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni va vaqtি belgilab qo'yilgan.



Tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik xissi takomillashtirilib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xohishi tarbiyalanadi.

Bolalarni mustaqillikka o'rgatish ishi muntazam amalga oshirib boriladi.

MTTda kichkintoylarni tevarak-atrofdagi hayot, tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasavvurlarini o'stirish mashg'ulotlari, musiqa mashg'ulotlari, qurish-yasash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari olib boriladi.

Ilk yoshdagagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar katta yoshdagagi kishilarning har bir bola bilan rejali suratda muomalada bo'lishidan iborat bo'lib, bu mashg'ulotlarning maqsadi bolalarning nutqi va harakatini rivojlantirib borishdir; bu esa bolalarni mashg'ulotlarga tayyorlash bosqichidir; go'daqlar ixtiyoriy diqqat o'sib borgani sari, bunday mashg'ulotlar bir necha bola bilan, keyinchalik esa butun guruh bolalarni bilan bir yo'la olib boriladi.


Mashg‘ulotlarda ta’lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo‘r berishni talab etadi, ya’ni u bolani aktiv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg‘ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur: mashg‘ulotning vaqtini, kun tartibidagi o‘rnini dasturning har xil bo‘limlarini to‘g‘ri almashtirib turishni oldindan o‘ylab, aniq belgilab olish zarur.

Mashg‘ulotlarni kuning birinchi yarmida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir, chunki, birinchidan bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug‘lik bilan yaxshi ta’minlangan bo‘ladi.

Har bir yosh guruhida necha marta mashg‘ulot o‘tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg‘ulot yosh guruhlari buyicha necha daqqaq davom etishi MTT tarbiya dasturida ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan xolda belgilab berilgan.

Birinchi kichik guruhda mashg‘ulot bolalarni ikki guruhga bo‘lgan xolda o‘tiladi. Guruhlardagi bolalar soni har doim bir xil bo‘ladi. Mashg‘ulot jadvalini tuzganda haftada bolalarning ish qobiliyati yuqoriqoq bo‘ladigan kun tanlanadi. Ma'lumki xafthaning o‘rtalarida (seshanba, chorshanba, payshanba) bolalarning ish qobiliyati yuqori bo‘lar ekan, bu kunlarga bolalarning aktiv faoliyatini talab etuvuvchi murakkabroq mashg‘ulot tanlanadi (yelementar matematika, nutqning rivojlantirish, savodga o‘rgatish va h.k). Jadval tuzganda bu mashg‘ulotlarni birinchi qo‘yish kerak, bolalardan ko‘p harakat qilishni, xissiy zýriqishni talab etuvchi mashg‘ulotlar (musiqa, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat) ikkinchi qilib qo‘yildi.

Bolalar o‘zlashtirib oladigan bilimlar mazmuni tarbiyalovchi bo‘lishi kerak. Maktabgacha tarbiya muassasasi dasturi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tabiat haqidagi bilimlarning (bular tabiatga muhabbat uyg‘otadi, o‘simliklar va hayvonlarga g‘amxo‘rlik bilan qarash xissini tarbiyalaydi), tarkib toptirishni nazarda tutadi: bilimlarni o‘zlashtirib olish asosida bolalarda jonajon shahriga, o‘z vataniga, xalqiga muhabbat, ulug‘ kishilarga muhabbat va hurmat, o‘lkaning ijtimoiy hayotiga qiziqish paydo bo‘ladi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda ijtimoiy xodisalar, voqealar to‘g‘risida, umumlashgan tasavvurlar tarkib topadi. Masalan, qo‘shti o‘lkalardagi bolalarning hayoti, oddiy kishilarning mehnati, boshqa xalqlarning hayoti va do‘sligi haqidagi dastlabki tasavvurlar vujudga keladi. Tarbiyachi yangi mashg‘ulotlarning mazmunini belgililar ekan, ular u yoki bu mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan bilimlar bilan qanday bog‘lanishini o‘ylab ko‘radi. Masalan, oshpaz, kutubxonachi bilan o‘qituvchining mehnati haqidagi bilimlar xilma xil mehnat turlari haqidagi ma'lumotlar sistemasini bir qismidir. Pochtadagi turli xodimlar mehnati haqidagi bilimlar – ijtimoiy mexhnatning jamoa harakteri to‘g‘risidagi bilimlar sistemasining bir qismi. Mehnatning ijtimoiy harakteri, mohiyatini tushunish uchun bola shunga o‘xhash ko‘pdan ko‘p mehnat turlari bilan tanishishi lozim. Mashg‘ulot quyidagi turlarga bo‘linadi:



1. Bolalarga yangi bilim beruvchi mashg'ulotlarning o'tkazishdan maqsad – ularning yangi bilimlardan xabardor qilish, tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, voqyealar to'g'risidagi bilimlarini aniqlash va kengaytirishdir. Bunday mashg'ulotlarga yangi ob'ektni kuzatish, hikoya qilib so'zlab berish va boshqalar kiradi. Mazkur mashg'ulotlar hamma yosh guruuhlarida o'tkaziladi.

2. Bolalarning to'plagan bilim va tajribalarini mustahkamlovchi va sistemaga soluvchi mashg'ulotlar. Undan ko'zlangan asosiy maqsad idrok etilgan narsalarning anglab olish va dastlabki umumlashtirishga o'rgatishdir. Buning uchun tanish ob'ekt kuzatiladi, ikki narsa, solishtiriladi (xona o'simliklari, daraxtlar, hayvonlar), didaktik o'yinlar, suhbatlar o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotni o'tkazish orqali tarbiyachi bolalar nimani yaxshi o'zlashtirib olgan-u, nima yaxshi o'zlashtirilmaganini bilib oladi. Tarbiyachi mashg'ulot jarayonida bolalarning bilimini yangi narsalar – detallar bilan boyitib boradi.

3. Bolalarning bilimini sinovchi mashg'ulotlar. Bunday mashg'ulotlardan maqsad tarbiyachi bolalar dastur bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va malakalarni o'zlashtirib oladilarmi-yo'qmi, shuni bilib oladi va o'zini bo'lajak ish mazmuni, metodini belgilaydi. Mashg'ulotning tarbiyachi o'z xohishi bilan kvartal, yarim yil va yilning oxirida, shuningdek mudira va metodistning iltimosiga binoan o'tkazishi mumkin.

4. Kompleks mujassam mashg'ulotlar bolalar bog'chasi tajribasida keng tarqalgan bo'lib, bunday mashg'ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi, egallangan bilimlar mustahkamlanadi va takrorlanadi, sistemaga solinadi, olgan bilim va malakalarning amalda qo'llashga o'rgatiladi. MTTda tasviriy faoliyat, konstruksiyalash, tevarak-atrofdagi ijtimoiy hayot va tabiat bilan tanishtirish, nutqni o'stirish, savod o'rgatish, eng oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish, musiqa va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Mashg'ulotga to'g'ri tayyorgarlik ko'rib, uyushgan xolda o'tkazilganda bolalar oldiga ma'lum aqliy vazifa qo'yilgan taqdirda, ularning fikrlash faoliyati rivojlanadi. Aqliy

vazifalarning birligi va muayyan qiyinchilik bolalarni uyuştiradi va ularning diqqatini ma'lum tomonga yo'naltiradi. Eng avvalo bolaning aqliy vazifani xal etish yo'lidagi qiyinchilikni yengish imkoniyati tug'iladi, natijada bolada faoliyatga qiziqish uyg'onib, u malakani egallash uchun mustaqil intiladi, o'ylaydi va vazifani uddasidan chiqish uchun faxm farosatini ishga soladi.

Nusxa olish tarzidagi vazifani bajarish natijasida bola tarbiyachini ko'rsatmasi va namunasiga qarab malaka va ko'nikmalarni o'rganadi. Bu bolalarni amaliy va aqliy faoliyat usullarini egallab olishlari uchun zarurdir. Bolalar qalamni, mÿyqalamni, qaychini ushlashni, rasm chizish narsa yasash solishtirish umumlashtirish, abstraktiyalashni o'rganadilar. Tarbiyachi bir narsaning xadeb takrorlanaverishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Mashg'ulotning tuzilishi: Mashg'ulot quyidagi tuzilishga ega: bolalarni uyuştirish, asosiy qism, yakunlovchi qism.

Bolalar mashg'ulotga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchun uning mazmuni va metodikasi yaxshilab puxta o'ylanib olinishi kerak. Bolalar o'quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachining e'tibor bilan tinglab, o'yindan mashg'ulotga osonlik bilan o'tadilar.

Bolalarni uyuştirish. Tarbiyachi bolalarni yig'ib, ularning mashg'ulotga tayyorligini tekshiradi: tashqi ko'rinishi, joy-joyiga to'g'ri o'tirishganligi, diqqatini to'plaganini sinab ko'radi.

Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun bolalar oldida turgan faoliyatga qiziqish uyg'otishi, buning uchun bolalarning yoshi, qiziqishi, faoliyatiga mos har xil usullarni qo'llashi kerak.

Kichik guruh bolalarida mashg'ulotga qiziqish uyg'otish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi, kutilmagan, topishmoqli usullardan foydalanadi. «Kuloq solinglar-chi, kimdir eshik qoqyapti! Bu qo'g'irchoq biznikiga mehmonga kelibdi», - deb mashg'ulotni boshlash mumkin. Bolalarning narsalar va ularning nimaga ishlatilishi to'g'risidagi tasavvurini tartibga soluvchi mashg'ulot mana shunday boshlanadi.

Katta guruhlarda qanday mashg'ulot bo'lishini tarbiyachi bolalarga oldindan aytib qo'yadi. Bu bolalarning bo'lajak mashg'ulotga qiziqishini orttiradi. Masalan, mustaqillik maydoniga ekskursiyaga borishni bolalarga bir hafta oldin aytib o'tadi va ularga rasmlarni ko'rishni, ota-onasi bilan sayr qilganda nimalarni ko'rganini eslashni taqlif etadi. Bolalar bu kunni zo'r qiziqish bilan kutishadi.

Katta va tayyorlov guruhlaridagi bolalar mashg'ulotning zarurligi va majburiyligini tushunishlari, unga ongli ravishda tayyorlanishlari zarur.

Asosiy qism. Mashg'ulotda bolalarga yangi bilim beriladi, topshiriqni bajarish yuzasidan yo'l-yo'riq, ko'rsatiladi, qiyngalgan bolalarga yordam beriladi. Bolalar bilan bo'ladigan jamoachilik munosabatlarini alohida munosabat bilan qo'shib olib boriladi. Topshiriqni bajarishni hamma bolalar uddalay olishlari uchun tarbiyachi har xil metod va usullarni qo'llaydi.

Mashg'ulotning boshlanishidanoq bolalarning diqqatini tashkil eta bilish kerak. Bu bolalar oldiga qo'yilgan aqliy vazifaga bog'liq.

Bolalarga qanday ishlar olib borish zarurligi ko'rsatiladi va tushuntiriladi, ularni ayrim bolalarga alohida takrorlash shart emas, balki hamma bolalarni e'tibor bilan eshitib o'tirishga o'rgatish kerak, zarurat tug'ilsgina takrorlash mumkin.

Bog'chadagi bolalar o'qish, yozishni bilmaganlari uchun o'tilgan materialni qaytarib mustaxkamlay olmaydilar, shuning uchun bolalarga berilgan bilimni mustahkamlash uchun tarbiyachi takrorlash va mashq qildirish usullaridan foydalanadi. Mexanik qaytarish, yodlatishdan ochish kerak, chunki anglab olinmagan material tezda esdan chiqadi.

Qaytarish, mashq qildirishda tarbiyachi fikrlarni to'ldirib, tartibga solib boradi, bu bolalarda bilimga qiziqish uyg'otadi va shu narsa to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarini chuqurlashtiradi. Mashg'ulotni dastur maqsadi va bolalar yoshiga qarab mustahkamlashning har xil usullari qo'llaniladi.

Bolalar o'zlashtirib olishi va javob qilishi kerak bo'lgan material so'z orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun u yoki bu ishni bajarishda bolalardan uni qanday amalga oshirmoqchi ekanini so'z bilan tushuntirib berish talab etiladi (masalan, son-sanoqga o'rgatishda, qurish-yasashda, rasm chizganda qanday qilishi, qanday tartib bilan bajarishi, buning uchun qanday materialdan foydalanishni tushuntirib berishi talab etiladi).

Mustahkamlash jarayonida didaktik material bilan bajariladigan mashq aqliy vazifani o'z ichiga olsa, bolalarda mustaqillikni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Masalan, son-sanoq mashg'ulotida bolalar sanash material bilan o'zлари mashqlarni mustaqil bajarishadi: tarbiyachining topshirig'iga qarab narsalar sonini kamaytirishadi yoki ko'paytirishadi. Buning uchun o'yinchoqlardan ham foydalanish mumkin.

Mashg'ulot davomida pedagog hamma bolalar faol qatnashishini va ishni o'z vaqtida puxta amalga oshirishlarini nazorat qilib boradi. Agar mashg'ulot yakka tartibda olib boriladigan bo'lsa (rasm, loy va plastilindan narsalar yasash, qurish-yasash, konstruksiyalash), bolalar ishni har xil vaqtda bajarganliklari uchun tarbiyachi mashg'ulot tugashiga bir necha daqiqa qolganda mashg'ulotni tugatish kerakligi to'g'risida ularni ogohlantiradi.

Mashg'ulotni tugatayotib, tarbiyachi o'tkazilgan mashg'ulotga yakun yasaydi: bajarilgan ishni bolalar bilan birgalikda baholaydi, bolalarning mashg'ulotda qatnashganini gapiradi, ba'zan kelgusi mashg'ulotda nimalar o'tishlarini aytadi.

Bolalarning o'quv faoliyatini yaxshi egallab olishlari ular bilimini to'g'ri baholashga bog'liq.

Qo'yilgan vazifaning bajarilishiga qarab baho berilishi kerak. Bolaning ishini to'g'ri baholab, «to'g'ri» yoki «noto'g'ri» deyish bola uchun oddiy maqtovdan ancha qimmatlidir.

Ish kanchalik yaxshi tahlil qilinsa, u bolaning kelgusida ishini tuzatib olishiga yaxshiroq imkoniyat yaratadi.

Mashg‘ulotdan keyin tarbiyachi bolalarni o‘yinga taklif etadi, boshqa mashg‘ulot bo‘lmasa, sayrga tayyorlanishadi.

Mashg‘ulotda tarbiyachining bolalarga qo‘yadigan talabi ularning yoshi va imkoniyatlariga mos bo‘lishi kerak. Birinchi kichik guruh bolalarini ikkiga bo‘lib mashg‘ulot o‘tiladi. Tarbiyachi birinchi guruh bolalari bilan mashg‘ulot o‘tkazganda ikkinchi guruh bolalariga enaga qarab turadi. Tarbiyachi mashg‘ulot paytida hamma bolalarning faol qatnashishlariga harakat qiladi: savolga to‘g‘ri javob berishlarini, tayyorlanishi kerak bo‘lgan jihozlar, bolalar bilan olib boriladigan dastlabki ishlar (agar bunga zarurat bo‘lsa), mashg‘ulotning borishi va tarbiyachi foydalanadigan metodik usullar ko‘rsatiladi. Mashg‘ulot jarayonini bayon etib yozishda mashg‘ulotning boshi va oxirida (yakun chiqarish va keyingi faoliyat turiga o‘tishda) bolalarni uyushtirishni alohida ajratib ko‘rsatish kerak.

Mashg‘ulot muvaffaqiyatlari o‘tishi uchun jihozlarni o‘z vaqtida tayyorlash zarur. Ularni tanlash mashg‘ulotning mazmuniga va tarbiyachi belgilagan metodik usullarga bog‘liq.

Odatda metodika kabinetida «MTTda ta’lim-tarbiya dasturi»ning hamma bo‘limlari bo‘yicha metodik qo‘llanmalar bo‘ladi. yetishmaganini tarbiyachi o‘zi tayyorlaydi, ba’zan bu ishga katta va tayyorlov guruhlari bolalarini jalb etadi. Mashg‘ulot uchun kerakli materiallarni bir kun ilgari tayyorlaydi, uning buzuq emasligini, didaktik materiallar hamma bolalar uchun yetarli ekanligini tekshiradi.

Agar tarbiyachi ekskursiya o‘tkazadigan bo‘lsa, u oldindan ekskursiya o‘tkaziladigan joyga borib kelishi, kuzatish uchun ob'ekt tanlashi, bolalarni qanday joylashtirishni o‘ylab qo‘yishi, eng yaqin va xavfsiz marshrutni tanlashi kerak. Mayda sanoq materiali, rasm mashg‘uloti, applikatsiya, qurish-yasash uchun materiallar, she'r, ertak matnlari oldindan tayyorlab qo‘yiladi. Ba’zi mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ancha oldin boshlanadi. Masalan, kichik guruh bolalariga ekish yoki ko‘chat o‘tkazishga qiziqish uyg‘otish uchun ularga ko‘karib turgan o‘simlikni ko‘rsatish kerak. Buning uchun uni avval yetishtirish zarur.

Navbatchilar mashg‘ulotga kerakli jihozlarni tayyorlaydilar, stol, stillarni qulay qilib joylashtiradilar, qo‘llanma va, materiallarni qo‘yib chiqadilar. Jismoniy tarbiya va musiqa mashg‘ulotlaridan oldin bolalar poyafzalni almashtiradilar, sport formasini kiyadilar.

Mashg‘ulotlarda tarbiyachining yetakchilik roli va uni o‘tkazishga tayyorgarligi. Tarbiyachi MTTda asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g‘oyaviy-siyosiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo‘lgan ijodiy munosabatiga bog‘liq.

Bolaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati ko‘proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi.

➤ Tarbiyachining o‘ziga xos xususiyati – uning yuksak kasb mahoratidir. Eng muhimi – bolaning ruhiyatini, yosh va o‘ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini bilishdir.

➤ Bolalar bog‘chasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtida va qanday namoyon bo‘lishini oldindan ko‘ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi.

➤ Tarbiyachi o‘z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi. Tarbiyachi har bir boladagi o‘ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o‘ziga xos xususiyatlarni (zararli bo‘lsa) yo‘qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo‘yadi.

➤ Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo‘lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta’siri juda katta bo‘ladi. Chunki bu davrdagi har bir ta’surot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

Bolani tushuna bilish va uning ma’naviy dunyosiga kira olish tarbiyachidan zo‘r kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda bo‘lish – fikrlar manbai, pedagogik yangiliklar, quvonch va tashvishlardirki, busiz tarbiyachining ijodiy mehnatini tasavvur etib bo‘lmaydi.

Mashg‘ulotda tarbiyachi o‘z ovozidan qurol sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch ovoz bolaga yaxshiroq ta’sir etishini pedagog bilishi zarur. Bolaga qattiqroq va qat’iy tapirish mumkin, ammo bunda so‘z ohangi bolaga tinchlantiruvchi ta’sir etishi lozim.

Tarbiyachi asosan bolaning normal ruhiy taraqqiyoti asosi bo‘lgan jismoniy rivojlanishiga alohida e’tibor berishi lozim.

Bolaning ko‘p vaqt harakatsiz o‘tirishi uning sog‘lig‘i uchun juda zararli, u bolaning har tomonlama rivojlanishini sekinlashtiradi.

Bolaning ko‘p harakatlarni o‘tirib bajarishi ham gavda tuzilishining noto‘g‘pi o‘sishiga olib keladi. Shuning uchun faoliyat turlarini almashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Yana bolaning normal rivojlanishi uchun har doim tinch, quvnoq muhitni tashkil etish lozim. Bolani: «Tezroq yuvinginlar – nonushtaga kech qolyapmiz», «O‘yinchoqni tezroq yirishtiringlar, sayrga yoki mashg‘ulotga kech qolyapmiz» va hokazo deb shoshiltirish kerak emas.

Ta’lim berganda uni shunday tashkil etish kerakki, har bir bola faol ishlasin va har biri ijobiy natijaga erishsin.

Bolalarning mashg‘ulotda olgan bilim va malakalari boshqa faoliyat turlarida qo‘llanilishi mumkin. Bolalar olgan bilimlarini qo‘llay olishlari ularning yaxshi o‘zlashtirib olganligidan dalolat beradi, ya’ni ular hyech

qanday qiyinchiliksiz bu bilimlardan foydalanishlari mumkin. Ta'limning amaliy ahamiyati ham ana shundan iboratdir.

Agar bolalar yetarlicha bilim va malakalarga ega bo'lsa, ular bilan xilma-xil mashg'ulotlar o'tkazish mumkin, bu mashg'ulotlarda bolalar mavjud bilimlardan ijodiy foydanishlari: bemalol rasm chizishlari, biron narsani qurish yoki yasashlari, hikoya qilib berishlari mumkin. Bu mashg'ulotlar odatdagagi mashg'ulotlardan boshqacharoq qilib tashkil etiladi: bolalar ixtiyoriga har xil materiallar beriladi va ularga rasm mavzusini o'zi belgilash, qurilishni o'zi o'ylab topish, hikoya tuzish imkoniyati yaratiladi. Bunday mashg'ulotlar dasturning ayrim bo'limlari bo'yicha ta'limning yakunlovchi bosqichlarida o'tkaziladi.

Bolalar olgan bilimlaridan o'z o'yinlarida keng foydalanadilar: rasm chizish, qirqib olish, qurish-yasash sohasidagi malakalarni qo'llab zarur jihozlarni tayyorlaydilar, inshootlar barpo etadilar va hokazo. Olingan bilimlar turli xil o'yinlarning mazmunida aks ettiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

43. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
44. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-tonli Farmoni.
45. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-tonli Qarori.
46. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-tonli Qarori.
47. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 3-sod, 2017. 2-3 bet.
48. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

10-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim tarbiyasi

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi
2. Aqliy tarbiya va uning vazifalari
3. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lim berishning o'ziga xosligi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyin esa o'quv mehnat, samarali

faoliyatlar jarayonida (rasm chizish, loy) amalga oshirib boriladi. O'ozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o'zlashtirib olish, ularni jamg'arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo'lган bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari deb hisoblanadi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metod iva tashkil etilishiga qarab belgilanadi.

Pedagogika-psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali xal etish 1) bolaning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, 2) bola organizmining umumiy charchashiga savob bo'lishi mumkin bo'lган ortiqcha nagruzka bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonunlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shuQallanadi.

Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bularning hammasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarini yanada chuqarlashtirish, xajmini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta'lif yoshining oxiriga kelib bolalar tevarak atrof to'grisida kattagina xajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi voqyealardagi muhim va muhim bo'lмаган tomonlarini ajrata oladigan ba'zi bir sabab natijali bog'lanishlarni bilib oladigan bo'lib qoladilar. Ular o'quv faoliyatining dastlabki ko'rsatkichlari shakllandi. Shuning uchun bog'cha yoshidan boshlab rivojlanirib borish katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. O'ayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy hayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-xarakatli, ko'rgazmali obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlaniriladi. Tarbiyachi bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyati tarkib toptiriladi bu hodisalarni, voqyealarni, chuqur anglab olish, ularni muhim bo'lган va muhim bo'lмаган tomonlarini ajratishga o'rgatish lozim.

Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolani tevarak-atrofdagi voqeaxodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashga, hamma narsani ushlab his qilib, diqqat bilan tomosha qilishni kuzatishda namoyon bo'ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo'lган savollarga o'z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni fikrini mustaqil javob qidirishga yo'llab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo'l qo'ymaydi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlanirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Bolalar bog'chasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlanirish vazifasi turibdi. Qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida namoyn bo'ladi va rivojlanadi.

Insonning aqliy qobiliyati aqlining ziyraklik – fahm farosatlilik, tanqidiy ko‘z bilan qarash, sermulohazalik kabs sifatlari bilan ajralib turishi mumkin. Aqliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, ya’ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagи muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratib ko‘rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash va hokazolarni tarkib toptirish mакtabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko‘nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo‘lib, bolani bilimlarini muvaffaqiyatli egallab olishga yordam beradi. Masalan: o‘simliklar va hayvonlar bilan tanishtirish bo‘yicha sistemali mashg‘ulotlar olib borilgandan keyin bolalar ayrim konkret o‘simliklar yoki hayvonlar to‘g‘risida ma'lum bir tasavvurga ega bo‘ladilar.

So‘ngra bolalardagi aqliy-ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilanquyidagi mashg‘ulotlarni o‘tkazishni rejalashtirishi mumkin: “Paxta o‘simligini, momaqaymoq o‘simligi bilan solishtirish”, “Qafasdagi ikki xil qushni bir-biriga solishtirish” didaktik o‘yini va shunga o‘xhash tadbirlar o‘tkazish. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmasdan, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni xal etishda foydalanishga o‘rgatish zarur.

Ilk va bog‘cha yoshi davrida bolalarda tevarak-atrofga bo‘lgan qiziqish juda tez o‘sadi. Qiziqish bolaning aqliy rivojlanishi xarakatga keltiruvchi qudratl kuchdir. Kattalar bolaning qiziquvchanligini, bilishga bo‘lgan har qanday hoxishini sezishlari va rag‘batlantirib borishlari kerak. bo‘lib bolalardan aqliy zo‘r berishni talab etadigan mashg‘ulotlarni rejalashtir Ta‘lim – mакtabgacha yoshdagi bolaning bilish qobiliyatlarining muntazam – rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog‘chasi tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qurollantirish, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Mакtabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta‘lim yetakchi rol o‘ynaydi. Chunki u ta‘lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta‘lim – bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta‘lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning singchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta‘lim jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham zarurdir. Bog‘chada bolalarga madaniy – gigienik ko‘nikmalar, asosiy xarakatlar o‘rgatiladi, ular madaniy ahloqiy qoidalarini o‘zlashtirib oladilar.

Ta‘lim jarayonida bolalarda o‘quv faoliyatları asoslari hosil qilinadi, ularni maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi.

Ta‘limni ikki yo‘l bilan amalga oshirish muvofiqdir:

Birinchi yo‘l - bolalarni bilim, malaka, ko‘nikmalarni kattalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishi orqali egallab borishidir. Bu muomala mehnat faoliyati vash u kabilar bilan belgilanadi.

Ikkinci yo‘li – maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o‘quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan rejali ravishda xabardor bo‘lib borishidir. Bunday yo‘l bilan ta‘lim berishdan maqsad yosh

avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashtirish uchun zarur bo‘lgan Fan yantuqlari bilan tanishtirishdir.

Nazorat savollari.

1. “Yosh avlodni aqliy tarbiyalash mohiyatini ochib bering va uning hozirgi vazifalarni belgilang
2. Aqliy faoliyat ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish bilish jarayonlari va qobiliyatlarini rivojlanishini ifodalaydi.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashni asosiy vositalarni ta’riflang.
4. Bolalarga ta’lim berish jarayoniga tarbiyachi tomonidan qo‘llaniladigan metod va usullarni ifodalang.
5. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni ko‘rsating.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

49. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
50. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
51. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
52. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
53. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta’limga qamrab olish.// “Maktabgacha ta’lim” jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.
54. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

11-Mavzu: Maktabgacha ta’lim davrini yosh davrlarining o‘ziga xos xususiyatlari

Reja:

1. Bolalar ta’lim tarbiyasida turli yosh davrlarining ahamiyati
2. Bolaning muktabga tayyorgarligi

Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta’siri kuchli bo‘ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to‘g‘ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o‘sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo‘ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o‘tganlar.

Bolaning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin.

Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig‘inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta’siri bo‘lib, tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish metodikasini bilish muhim. Temperament – lotincha “temperamentum”, ya’ni “qismlarning bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatları ham mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo‘linadi:

- go‘daklik (1 yoshgacha);
- ilk yosh (1-2 yosh);
- ilk yosh guruhi (2-3 yosh);
- kichik yosh (3-4 yosh);
- o‘rta yosh (4-5 yosh);
- katta yosh (5-6 yosh);
- maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh)⁶.

Ilk yosh davri bolalarining rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar. Insonning rivojlanish davri ona qornidan boshlanadi. Bola ona qornida to‘qqiz oy mobaynida juda tez rivojlanish jarayonini va murakkab taraqqiyot davrini o‘taydi. Bu davrda ham bola ma’lum darajada tashqi muhit ta’sirida bo‘ladi. Shuning uchun ham bu ta’sirning ijobiy bo‘lishini ta’minlash lozim.

Go‘dakning vazni tug‘ilgan paytda 3,5 kg, bo‘yi 50 sm bo‘lgan bo‘lsa, uch oylik davrida uning vazni taxminan 5 kg, bo‘yi 60 sm, 6 oylik bo‘lganda esa taxminan 7 kg, bo‘yi 64 sm bo‘ladi.

Bir yoshgacha bo‘lgan davrda bolaning rivojlanishi asosan oila muhiti ta’sirida bo‘lib, u ona suti bilan oziqlanishi lozim. Bola bu davrda nutqqa ega bo‘lmasa ham nutqni tushunish, anglash, harakatlarni idrok etish, oila a’zolarini

⁶ Болажон таянч дастури. – Т., 2010. – Б.5.

tanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham go‘daklik davridan boshlab uch yoshgacha bo‘lgan davrda bolaning nutqi va tafakkuri jadal rivojlanadi. Bola bir yoshgacha bo‘lgan davrda dastlabki so‘zlarni aytta boshlaydi. Bu davrda kattalar, asosan, oila a’zolari go‘dakni to‘g‘ri parvarish qilishni yo‘lga qo‘yishlari lozim. “Bola tushunmas ekan” deb, unga befarq bo‘lmasliklari, atrof-muhitdagi buyumlarning nomini to‘g‘ri talaffuz qilib, ularning nutqini to‘g‘ri rivojlantirish uchun keng yo‘l ochishlari kerak.

Oilada bolani tarbiyalashda ota-onada bilan bola o‘rtasida qalban yaqinlikka erishish lozim. Ota-onalar hyech qachon tarbiyani o‘z holiga tashlab qo‘ymasligi, ya’ni bolaning ilk yoshligidan bu jarayonga kirishish talab etiladi. Chunki, bola oilada birinchi hayotiy tajribani o‘rganadi, kuzatadi va o‘zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o‘rganadi. Biz bolani nimaga o‘rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlashimiz zarur, ya’ni bola kattalar aytgan gaplariga amal qilishlari, shaxsan tarbiyaning samaradorligini ta’minlaydi.

Ilk yosh guruh (2-3 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bu davr o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan davr mobaynida bolaning nutqi va o‘zgalar tomonidan aytilgan so‘zlarni tushunish qobiliyatlari jadal rivojlangan bo‘lsa, 2-3 yoshga kelib, o‘zgalar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi, bola musiqa, badiiy so‘z ta’siriga tez beriladi.

Shuning uchun ham unga xuddi shu davrdan boshlab she’rlar aytish hamda raqsga tushishni o‘rgatish lozim. Ularda kattalarga jo‘r bo‘lib qo‘sish qayta aytish, musiqaga muvofiq harakat qilish, ohangni his etish ko‘nikmasi shakllanadi.

Bu yoshdagi bolalarni bir joyga jamlaganda ular orasida o‘zaro muloqotga kirishish ko‘nikmalari shakllana boshlaydi. Ta’lim- tarbiyaviy ishlar bolalarda shakllana boshlagan xuddi ana shu ko‘nikmalarni rivojlantirishga va ularni malakalarga aylantirishga yo‘naltirilmog‘i lozim.

Kichik guruh (3-4 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola 3 yoshga qadam qo‘yganda jismoniy o‘sishi bir qadar sekinlashadi. Bu davrda uning og‘irligi 14-15 kg., bo‘yi 90-95 smga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. 3 yoshli bolalar qisqa muddat davomida o‘z hatti-harakatlarini idora qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Ulardagi mustaqillik ortib boradi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo‘lib o‘ynash ko‘nikmalari shakllanadi. O‘yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda qurish-yasash faoliyatining dastlabki ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o‘yin faoliyati yetakchi rol o‘ynaydi. Mazkur dastur xuddi mana shu faoliyatni kengaytirishga va rivojlantirishga keng yo‘l ochadigan ta’limiy mashg‘ulotlar tizimini belgilab berishga yo‘naltirilgan.

O‘rta guruh (4-5 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola to‘rt yoshga yetgach, uning jismoniy o‘sishi bir muncha jadallahshadi, bu davr mobaynida bo‘yi 105-108 sm gacha o‘sadi, og‘irligi esa 18-19 kg bo‘ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po‘stlog‘ining faoliyati takomillashib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat

o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko‘nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo‘ladi. Barcha harakat va faoliyatlarni o‘zi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nihoyatda serharakat, o‘yinqaroq, o‘ta qiziquvchan bo‘ladi. U har qanday tadbirga bajonidil qatnashadi. Shuning uchun ham ularni to‘g‘ri ovqatlantirish, o‘z vaqtida uxlatish, salomatligini muhofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo‘lishini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Ular bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarning mazmunini xuddi mana shunga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Katta guruuh (5-6 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bu davrda bolaning bo‘yi bu davrda 7-8 sm ga o‘sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og‘irligi 20-22 kg ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to‘g‘ri o‘sishini ta‘minlashga alohida e’tibor berish kerak. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo‘ladi. Olti yoshga yetganda miya po‘stlog‘ining asab katakchalari rivojlanib, og‘irligi va tashqi ko‘rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo‘lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo‘lishini ta‘minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo‘lgan taqdirda uning oldini olish choralarini ko‘rish lozim. Bu yoshdagi bolalarning so‘z boyligining rivojlanishiga alohida e’tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so‘zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojlarini to‘la qondirishi kerak. Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko‘nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlanishiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola hayotining yetinchi yilda undagi harakatlar ko‘لامи kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o‘zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o‘zini idora qilish va o‘z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘la boshlaydi. Bu yoshdagi o‘g‘il bolalarda mustaqil faoliyat ko‘rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyоqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo‘yi 120 sm ga yetadi, og‘irligi 22-24 kg bo‘ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo‘ladi, o‘z salomatligini nazorat qila oladi. Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigienik malakalar shakllana boradi.

Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo‘lgan ta’lim olishga o‘qishga ishtiyоq uyg‘otish lozim. Bu o‘rinda bolalarni ruhan ta’lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o‘quv elementlarini o‘rgatish lozim.

Har qanday olti yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta’lim olishga tayyor bo‘lishi kerak. Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda tashxis markazlarining xulosalariga tayanish lozim. Shu bilan bir qatorda maktabning moddiy-texnik

bazasi olti yoshli bolalarga ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'lishi shart. Tarbiyachining pedagogik-psixologik bilim darajasi, axloq-odobi va shaxsiy sifatlari olti yoshli bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun loyiq bo'lganda, u olti yoshli bolalarni o'qitish huquqiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham 6-7 yoshli bolalar, ularni qabul qiladigan maktablar hamda bu bolalarni o'qitadigan o'qituvchilar pedagogik-psixologik nuqtai nazardan alohida-alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina ta'lim jarayoniga kiritilishi kerak.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. "Individ", "shaxs", "individuallik" tushunchalarini sharhlang.
2. Hech o'ylab ko'rganmisiz, nega qarg'a o'rtacha 200-300 yil yashaydi. Lekin uning bolaligi uzog'i bilan besh-olti oy davom etadi. Inson o'rtacha 60-70 yil umr ko'radi. Biroq u 20-25 yoshlarida mustaqil hayot boshlaydi. Mazkur holatni qanday izohlash mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

55. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947 sonli Farmoni.
56. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-tonli Farmoni.
57. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-tonli Qarori.
58. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-tonli Qarori.
59. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.
60. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

12-Mavzu: Shaxsni rivojlanishi haqida tushuncha Reja:

1. Bola shaxsini shakllantirishda ijtimoiy ta'lim tarbiyaning ahamiyati
2. Bola shaxsini rivojlanishda ta'sir etuvchi omillar
3. Bola shaxsini shakllantirishda muhitning ta'siri

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish bo'yicha o'sishi, vaznning kuchini ortishi, sezgi a'zolarini mukammallahuvi, xarakatlarni to'g'ri boshqara bilish bilan bog'liqdir.

Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlar va belgilarning shakllanishi, emotsional irodaviy, bilish jarayonida muhim o'zgarishlar ro'y beradi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning xulqida, tevarak- atrofga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarkibiy tajribani o'zlashtirish, ta'lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo'lgan mazmunni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattlar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonda amalga oshiriladi. Tarbiya va ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi.

Keyingi yosh guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi, moslashishi ancha oshib boradi. Shunga muvofiq tarzda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari o'zgaradi. Bolalarning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi.

Ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga hos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xir turlari shakllanadi. Ulardan asosiylari: munosabatda bo'lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo'ladigan faoliyat, o'yin, oddiy mehnat va o'quv faoliyatlaridir. Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydigan, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrofga ma'lum bir munosabatning shakllanida asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, kattalarning bolalar bilan bo'ladigan hissiy, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talabni vujudga keltiradi, dastlabki harakat va tasavvurlar, tasurotlar shakllana boshlaydi.

Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog'liq. Bola hayotining dastlabki yillarda kattalar bilan bo'ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan xarakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni asta-sekin buyumlar olamiga olib kiradilar.

Mana shu yo'l bilan bola buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatning o'ziga xos tomonlarini egallab boradi.

2,5 yoshdan keyin buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatda bolalar ancha yuqori ko'rsatkichlarga erishadilar va ularning o'yin hamda tasviriy faoliyatga o'tishlari uchu nasos yaratiladi. Kattalar tomonidan tashkil etilgan muomala munosabatlarida, faoliatlarda o'z-o'zini anglab olishning dastlabki shakllari shakllanadi.

Mashg‘ulotlardagi o‘quv faoliyati orqali bolalar tevarak atrofidagi tabiat to‘g‘risidagi, ijtimoiy hayot, kishilar to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlashtirib oladilar. Shuningdek ularning aqliy va amaliy bilimlari kengayib boradi.

Agar ta‘lim jarayonida 3-4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar to‘g‘risidagi konkret faktlarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta‘lim berishda asosiy e’tibor muhim bog‘liqliklar va munosabatlarga, ulardagи oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratiladi. Bular orqali bolalarda tushunarli tafakkur rivojlanтирilади.

Kichik mакtab yoshidagi bolalar uchun o‘qish asosiy faoliyat bo‘lib qoladi va bu faoliyatni bolalar ijtimoiy ahamiyatli faoliyat deb anglay boshlaydilar. Bola o‘zini mакtab o‘quvchisi deb tushuna boshlaydi.

Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat yetakchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun ta‘lim-tarbiya muassasalarida va oilada bolaning hayotini u turli-tuman faoliyatlar bilan shug‘ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga albatta, bolalar faoliyatining mazmunini boyitib borish, yangi bilim malakalarni singdirish mustaqilligini rivojlanтирish bilan erishiladi.

Odam shaxsini shakllantirish bu tevarak-atrofdagi dunyoga, tabiatga, mehnatga, boshqa odamlarga va o‘ziga munosabat sistemasini izchil o‘zgartirish va murakkablashtirishdir. Bu uning butun hayoti davomida ro‘y beradi. Bunda bolalik va o‘smirlilik yoshi ayniqsa muhimdir.

Odamning shaxs sifatida rivojlanishi uning jismoniy va ma’naviy kuchlari birligida har tomonlama va yaxlit amalga oshiriladi. Dunyoqarash, e’tiqod, ma’naviy sifatlar, his-tuyg‘ular (burch, vijdon, mas’uliyat, muhabbat) madaniyati aniq tarixiy ijtimoiy sharoitda yaratiladi va shaxsning shakllanishiga ta’sir etadi.

Psixologiya va pedagogika odam shaxsi faoliyati va muomalada shakllanadi hamda rivojlanadi, deb ta‘kidlaydi. Agar odam ijtimoiy faoliyatning turli xillarida: o‘quv, ishlab chiqarish faoliyati va hokazolarda ishtirok etsa, bu faoliyat shaxsni rivojlanтирadi, lekin faoliyat odamni u yoki bu ijtimoiy muno-sabatlardan chegaralab qo‘ysa, u yo shaxsning rivojlanishiga to‘sinqinlik qiladi, yoki uning rivojlanishini buzadi. Shaxsning yetakchi xususiyatlari shaxsga, uning ichki dunyosiga tashqi ta’sir natijasida rivojlanadi. Shaxsning ma’naviy mazmuni — bu shaxsning o‘z ichki ishining yakuni bo‘lib, bu jarayonda tashki ta’sirlar qayta ishlanadi va o‘zlashtiriladi.

Odamning rivojlanishi — bu miqdor va sifat o‘zgarishi, eskinining yo‘q bo‘lishi va yangining vujudga kelishi jarayoni bo‘lib, uning manbai va harakatlantiruvchi kuchlari shaxsning ham tabiiy, ham ijtimoiy tomonlarining ziddiyatli o‘zaro aloqasida yashiringandir.

Odamning tabiiy tomoni uning butun umri davomida rivoj-lanadi va o‘zgaradi. Bu rivojlanish va o‘zgarishlar yosh xususiyatiga ega bo‘ladi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanish manbai shaxs bilan jamiyatning ziddiyatli o‘zaro aloqasida yashiringandir.

Maktabgacha pedagogika fani bu ziddiyatli o‘zaro aloqani ochib tashlaydi va ulardan shaxsni shakllantirish uchun foydalanadi. Jumladan, bolaning odamlar hayotida ishtirok etish ehtiyoji bilan u intilishni amalga oshirish imkoniyatlari o‘rtasndagi ziddiyat faoliyat sifatida o‘yinning vujudga kelishi va rivojlanishiga

hamda bolalardagi o‘yin faoliyatida ijtimoiy xulq-atvor shakllari, ijtimoiy munosabatlar va hokazolarning shakllanishiga olib keladi.

Shaxsni shakllantirish tarbiya jarayonida ro‘y beradi, inson tarbiyasi «uning xalq baxt-saodati yo‘lidagi bunyodkorlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, sotsial-iqtisodiy va madaniy qurish vazifalarini hal etishda amaliy ishtirokidan ajralmasdir».

Shaxsni shakllantirishga uchta omil: tarbiya, ijtimoiy muhit va irsiyat nishonalari ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha pedagogika tarbiyani yetakchi omil deb qaraydi, chunki bu to‘plangan ijtimoiy tajribani yetkazish uchun yosh avlodga ta’sir ko‘rsatishning maxsus uyushtirilgan sistemasidir. U oilada, bolalar bog‘chasida, maktabda, mehnat jamoalarida amalga oshirilib, turmushni, faoliyatni, muomalani tashkil etishga karatilgandir.

Shaxsni shakllantirishga muhit — ijtimoiy va tabiiy muhit katta ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy muhit shaxsni rivojlantirishda ustun ahamiyatga ega: ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy munosabatlar xususiyati kishilar faoliyati va dunyoqarashi xususiyatini belgilab beradi. Bizning jamiyatimizda sotsialistik turmush tarzi tarkib topgan, U shaxsni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tabiiy muhit (iqlim sharoitlari, o‘simgiliklar, hayvonot dunyosining ahvoli) ham shaxsning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Sotsialistik jamiyat tabiiy boyliklarni muhofaza qilib va ko‘paytirib, kishilarini hayvonlarni, o‘simgiliklarni, suv havzalarini va hokazolarni muxofaza etishga jalb qiladi, tabiat bilan faol muloqatda bo‘lish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, bu esa o‘z navbatida odamga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi.

Irsiyat nishonalari shaxsni shakllantirishning ob’ektiv omillariga kiradi. Odamlar organizmdagi anatomik tuzilishni, fiziologik harakatni, modda almashinushi tipini, asab sistemasi tipi va qayishqoqligini (bular uning atrof-muhit ta’siriga beriluvchan qilib qo‘yadi), asab reaksiyalari jo‘shqinligi va tezligini meros qilib oladilar. Asosiy shartsiz reflekslar ham, xilma-xil faoliyat turlariga kobiliyatning alohida anatomik-fiziologik asoslari — qobiliyat nishonalari han meros bo‘ladi. Irsiyat yununlari to‘g‘risidagi fan — genetika odamlarda yuzlab turli qobiliyat nishonalari — mutlaq eshitish, favqulodda ko‘rish xotirasi, g‘oyat tez ta’sirlanishdan tortib nodir matematik va badiiy iste’dodgacha mavjud bo‘lishini nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

61. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlар strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
62. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
63. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.

64. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
65. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 3сон, 2017. 2-3 bet.
66. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

13-Mavzu: Shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillar.

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagি bola shaxsining rivojlanishi.
2. Maktabgacha yoshdagи bola shaxsi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari.

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskinining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtida inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak,

uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatları ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholalar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar bирgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rın egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish hamda hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Maktabgacha yoshdagি bola shaxsi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.

Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda: insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi, yoki tabiiy omillar yetakchi o'rın tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda *biologik yo'naliш* deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rindan birini egallab, uning vakillari Arastu, Aflatunlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadilar. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergen, degan g'oyani ilgari suradilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixevierizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyondalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir. Progrmatizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazardan asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. **Muhit** deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit

(bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqyelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy hayot mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bunday tarbiya doimiy va uzlucksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rt yondashuv qaror topgan:

1. Biologik yondashuv – inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinct va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. Ijtimoiy yondashuv – inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida ijtimoiylashadi.

3. Psixologik yondashuv – insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilalar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi – qiziqishlari, qobiliyatları ijtimoiy hodisa sanaladi.

4. Yaxlit yondashuv – shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari – motiv, maqsad, qiziqish kabilalar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni

hisobga olgan holda ta'lif va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiya ga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim. Temperament – lotincha “temperamentum”, ya'ni “qismlarning bir-biriga munosabati” ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniylari ham mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'linadi:

- go'daklik (1 yoshgacha);
- ilk yosh (1-2 yosh);
- ilk yosh guruhi (2-3 yosh);
- kichik yosh (3-4 yosh);
- o'rta yosh (4-5 yosh);
- katta yosh (5-6 yosh);
- maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh)⁷.

Ilk yosh davri bolalarining rivojlanishidagi o'ziga xosliklar. Insonning rivojlanish davri ona qornidan boshlanadi. Bola ona qornida to'qqiz oy mobaynida juda tez rivojlanish jarayonini va murakkab taraqqiyot davrini o'taydi. Bu davrda ham bola ma'lum darajada tashqi muhit ta'sirida bo'ladi. Shuning uchun ham bu ta'sirning ijobiy bo'lishini ta'minlash lozim.

Go'dakning vazni tug'ilgan paytda 3,5 kg, bo'yi 50 sm bo'lgan bo'lsa, uch oylik davrida uning vazni taxminan 5 kg, bo'yi 60 sm, 6 oylik bo'lganda esa taxminan 7 kg, bo'yi 64 sm bo'ladi.

Bir yoshgacha bo'lgan davrda bolaning rivojlanishi asosan oila muhiti ta'sirida bo'lib, u ona suti bilan oziqlanishi lozim. Bola bu davrda nutqqa ega bo'lmasa ham nutqni tushunish, anglash, harakatlarni idrok etish, oila a'zolarini tanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham go'daklik davridan boshlab uch yoshgacha bo'lgan davrda bolaning nutqi va tafakkuri jadal rivojlanadi. Bola

⁷ Болажон таянч дастури. – Т., 2010. – Б.5.

bir yoshgacha bo‘lgan davrda dastlabki so‘zlarni aytal boshlaydi. Bu davrda kattalar, asosan, oila a’zolari go‘dakni to‘g‘ri parvarish qilishni yo‘lga qo‘yishlari lozim. “Bola tushunmas ekan” deb, unga befarq bo‘lmasliklari, atrof-muhitdagi buyumlarning nomini to‘g‘ri talaffuz qilib, ularning nutqini to‘g‘ri rivojlantirish uchun keng yo‘l ochishlari kerak.

Oilada bolani tarbiyalashda ota-onal bilan bola o‘rtasida qalban yaqinlikka erishish lozim. Ota-onalar hyech qachon tarbiyani o‘z holiga tashlab qo‘ymasligi, ya’ni bolaning ilk yoshligidan bu jarayonga kirishish talab etiladi. Chunki, bola oilada birinchi hayotiy tajribani o‘rganadi, kuzatadi va o‘zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o‘rganadi. Biz bolani nimaga o‘rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlashimiz zarur, ya’ni bola kattalar aytgan gaplariga amal qilishlari, shaxsan tarbiyaning samaradorligini ta’minlaydi.

Ilk yosh guruh (2-3 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bu davr o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan davr mobaynida bolaning nutqi va o‘zgalar tomonidan aytilgan so‘zlarni tushunish qobiliyatları jadal rivojlangan bo‘lsa, 2-3 yoshga kelib, o‘zgalar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi, bola musiqa, badiiy so‘z ta’siriga tez beriladi.

Shuning uchun ham unga xuddi shu davrdan boshlab she’rlar aytish hamda raqsga tushishni o‘rgatish lozim. Ularda kattalarga jo‘r bo‘lib qo‘sish aytish, musiqaga muvofiq harakat qilish, ohangni his etish ko‘nikmasi shakllanadi.

Bu yoshdagi bolalarni bir joyga jamlaganda ular orasida o‘zaro muloqotga kirishish ko‘nikmalari shakllana boshlaydi. Ta’lim- tarbiyaviy ishlar bolalarda shakllana boshlagan xuddi ana shu ko‘nikmalarni rivojlantirishga va ularni malakalarga aylantirishga yo‘naltirilmog‘i lozim.

Kichik guruh (3-4 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola 3 yoshga qadam qo‘yganda jismoniy o‘sishi bir qadar sekinlashadi. Bu davrda uning og‘irligi 14-15 kg., bo‘yi 90-95 smga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. 3 yoshli bolalar qisqa muddat davomida o‘z hatti-harakatlarini idora qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Ulardagi mustaqillik ortib boradi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo‘lib o‘ynash ko‘nikmalari shakllanadi. O‘yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda qurish-yasash faoliyatining dastlabki ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o‘yin faoliyati yetakchi rol o‘ynaydi. Mazkur dastur xuddi mana shu faoliyatni kengaytirishga va rivojlantirishga keng yo‘l ochadigan ta’limiy mashg‘ulotlar tizimini belgilab berishga yo‘naltirilgan.

O‘rta guruh (4-5 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola to‘rt yoshga yetgach, uning jismoniy o‘sishi bir muncha jadallahadi, bu davr mobaynida bo‘yi 105-108 sm gacha o‘sadi, og‘irligi esa 18-19 kg bo‘ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po‘stlog‘ining faoliyati takomillashib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko‘nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi

ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo‘ladi. Barcha harakat va faoliyatlarni o‘zi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nihoyatda serharakat, o‘yinqaroq, o‘ta qiziquvchan bo‘ladi. U har qanday tadbirga bajonidil qatnashadi. Shuning uchun ham ularni to‘g‘ri ovqatlantirish, o‘z vaqtida uxlatish, salomatligini muhofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo‘lishini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Ular bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarning mazmunini xuddi mana shunga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Katta guruh (5-6 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bu davrda bolaning bo‘yi bu davrda 7-8 sm ga o‘sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og‘irligi 20-22 kg ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to‘g‘ri o‘sishini ta‘minlashga alohida e’tibor berish kerak. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo‘ladi. Olti yoshga yetganda miya po‘stlog‘ining asab katakchalari rivojlanib, og‘irligi va tashqi ko‘rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo‘lishini ta‘minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo‘lgan taqdirda uning oldini olish choralarini ko‘rish lozim. Bu yoshdagi bolalarning so‘z boyligining rivojlanishiga alohida e’tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so‘zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojlarini to‘la qondirishi kerak. Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko‘nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlanishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola hayotining yetinchi yilda undagi harakatlar ko‘لامи kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o‘zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o‘zini idora qilish va o‘z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘la boshlaydi. Bu yoshdagi o‘g‘il bolalarda mustaqil faoliyat ko‘rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo‘yi 120 sm ga yetadi, og‘irligi 22-24 kg bo‘ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo‘ladi, o‘z salomatligini nazorat qila oladi. Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigienik malakalar shakllana boradi.

Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo‘lgan ta’lim olishga o‘qishga ishtiyooq uyg‘otish lozim. Bu o‘rinda bolalarni ruhan ta’lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o‘quv elementlarini o‘rgatish lozim.

Har qanday olti yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta’lim olishga tayyor bo‘lishi kerak. Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda tashxis markazlarining xulosalariga tayanish lozim. Shu bilan bir qatorda maktabning moddiy-texnik bazasi olti yoshli bolalarga ta’lim berish imkoniyatiga ega bo‘lishi shart. Tarbiyachining pedagogik-psixologik bilim darjasи, axloq-odobi va shaxsiy

sifatlari olti yoshli bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun loyiq bo'lganda, u olti yoshli bolalarni o'qitish huquqiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham 6-7 yoshli bolalar, ularni qabul qiladigan maktablar hamda bu bolalarni o'qitadigan o'qituvchilar pedagogik-psixologik nuqtai nazardan alohida-alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina ta'lim jarayoniga kiritilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

67. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947 sonli Farmoni.
68. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
69. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
70. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
71. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.
72. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

14-Mavzu: Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning o'rni

Reja:

1. Bolani shaxs sifatida shakllantirishda oilaning ta'siri
2. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning roli

Tarbiya – inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiya – aniq maqsadlarga ko'zlab sistemali ravishda, insonda ijobjiy fazilatlarni tarkib toptirishi yo'lida tarbiyachi rahbarligida amalga oshirib boriladi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uni natijasi irlsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi.

1. Tarbiya ta'sirida muhit ta'siri bera olmagan fazilatlar o'zlashtiriladi, ya'ni bilim, ma'lumot egallanadi.

2. Tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunqlar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

3. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini bartaraf etish mumkin.

4. Tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Bola shaxsining shakllanish jarayoni tarbiya va ta'lif sharoitida insoniyatning ijtimoiy-tarixii tajribasini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xilma-xil faoliyat turlarida ro'y beradi. Natijada bola o'zi yashayotgan jamiyat ijtimoiy munosabatlari sistemasiga kiradi.

Bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish tajribasi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Qiyinchilik shundan iboratki, bola, bir tomongan, mazmun, hajm va umumlashtirish darajasi jihatidan murakkab bo'lgan insoniy tajribani o'zlashtirishi kerak, ikkinchi tomongan, u mazkur tajribani o'zlashtirish usullarini hali egallamagan bo'ladi.

Tarbiya va ta'lif jarayonida katta yoshli odam bolaga tushunarli bo'lgan mazmunni tanlaydi, uning o'zlashtirishiga rahbarlik qiladi. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli shu bilan belgilanadi. Bunda bolaning ruhiy-fiziologik imkoniyatlari, ularning jo'shqinligi hisobga olinadi. Shu munosabat bilan tarbiya jarayonining o'zi doimiy bo'lib qolmaydi. U o'zgarib boradi: uning mazmuni boyiydi va murakkablashadi, shakllari o'zgaradi, o'sayotgan odam shaxsiga ta'sir ko'rsatish usullari tobora xilma-xil bo'lib boradi.

Tarbiyaning o'zgarishi bolaning «eng yaqin rivojlanish zonalari» (L. S. Vigotskiy) bilan bog'lik bo'lib, ular ancha murakkab mazmundagi bilimlar, ko'nikmalar, faoliyat turlari va hokazolarni o'zlashtirishga ruhiy-fiziologik imkoniyatlari paydo bo'lishi bilan ajralib turadi (masalan, emaklashdan keyin yurish; bijir-bijirdan keyin faol nutqni o'zlashtirish; ancha miqdordagi tasavvurlarga ega bo'lgandan keyin tushunchalar darajasidagi bilimlarni o'zlashtirish; buyum asosidagi o'yin, mehnat faoliyatining vujudga kelishi va hokazo). Tarbiya va ta'lif «eng yaqin rivojlanish zonasasi»ga asoslanib, bugungi rivojlanish darajasidan oldinda boradi va bolaning rivojlanishini olg'a harakatlantiradi.

Odam shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichdan o'tadi. Har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bog'liq bo'ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriyoq, bosqichning tuzilishiga uzviy tarzda qo'shiladi. Ilk yosh bosqichida shakllanadigan rivojlanish odam uchun vaqtincha emas, doimiy ahamiyatga ega bo'ladi. Mazmun, metodlar, tashkil etish shakllari aloqadorligi bиринчи bosqichdan oxirigacha tarbiyaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning hal qiluvchi roli ko'zi ojiz va kar bolalar uchun mo'ljallangan jamoat muassasalarida ayniqsa aniq namoyon buladi. Bunday bolalar uchun ishlab chiqilgan tarbiya sistemasi ularni turmushga va mehnat faoliyatiga tayyorlashni ta'minlaydi.

Biroq tarbiya bola rivojlanishini jadallashtirmasligi uning biror tomonining ruhiy rivojlanishini sun'iy ravishda tezlashtirmasligi kerak. Shuning uchun maktabgacha tarbiya pedagogikasida bola shaxsini har tomonlama va uyg'un rivojlantirish, uning rivojlanishini boyitish maqsadi o'rtaga qo'yiladi. (A.V. Zaporojes).

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli pedagogning ham yetakchilik rolini, uning har bir bola shaxsini shakllantirish uchun mas'uliyatini

qaror toptiradi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko pedagogning roli va mas'uliyatini ta'kidlab shunday yozgan edi:

«Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli ta'sir ko'rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa, buning uchun u tarbiyadan, o'z bolaligidan karzdordir»⁸.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

73. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947 sonli Farmoni.
74. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
75. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
76. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
77. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta’limga qamrab olish.// “Maktabgacha ta’lim” jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.
78. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

15-Mavzu: Bola shaxsini rivojlanishida faoliyatlarning o‘rni. MTTni yosh guruhalidagi faoliyatlar tahlili

Reja:

1. Bolaning rivojlanish jarayonida faoliyatning oddiy turlari
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyatining mazmuni
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari ba’ularni tarbiyalash

Bolaning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o‘zlashtirishga yordam beradi, buning asosida roli uning bilish, ko‘rgazmali, o‘yin, eng oddiy mehnat va o‘quv kabi xilma-xil faoliyat turlari, shuningdek, muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o‘zlashtirib, faollik ko‘rsatadi, ayni paytda shu faoliyat bilan bog‘liq bilimlar, malaka, ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi, Shu asosda unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllanadi.

Faoliyat – kishining moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish borasidagi hamda shaxsiy va ijtimoiy sohadagi ma’lum bir maqsad sari qiladigan xatti-harakatlar majmuasidir.

⁸ А.С.Макаренко «Художественная литература о воспитании детей» // Пед. соч. М., 1986 Т. 7,30 бет

Faoliyat – insonni belgilangan (rejalashtirilgan) maqsadga erishishdir. Faoliyat – bir narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi (jarayoni)⁹.

Bolaning faoliyatdagi faol mavqeい uni faqat tarbiya ob'ektiga emas, shu bilan birga tarbiya sub'ektiga ham aylantirdi. Bu bolani tarbiyalash va rivojlanirishda faoliyatning yetakchilik rolini belgilaydi. Bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog'liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonmaydon bo'ladi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo'lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutular namoyon buladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzui, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi. Ilmiy ma'lumotlarning dalolat berishicha, bola ularni darhol emas, balki asta-sekin va katta yoshdagi odamning rahbarligida egallaydi. Bola faoliyatining xilma-xilligi va boyligi, uni egallahdagи muvaffaqiyat oiladagi, bolalar bog'chasidagi tarbiya va ta'lim sharoitlariga bog'lik, bo'ladi.

Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Ilk yoshdagi bolaning kattalar bilan muomalasining (hissiy va hissiy-predmetli muomalasining) eng oddiy turlari unda ta'surotlarga bo'lgan ehtiyojini rivojlaniradi, tasavvurlarini shakllantiradi. Yangi harakat usullarini egallab borgan sayin bolalarning faolligi oshib boradi. Biroq faollik darajasi, uning rivojlanishi irsiy jihatdan shart qilib qo'yilgan zaminga, taqlid qilishga ham bog'liq bo'ladi. Hayotning dastlabki yillarida kattalar bilan muomala qilishni va buyumlar bilan ish olib borishni o'z ichiga oladigan yo'l-yo'riq tadqiqot faoliyati bolalar faoliyatining asosiy turlari bo'ladi. Tarbiyachilar bolalar bilan muomalada bo'lar ekanlar, ularni buyumlar dunyosiga olib kiradilar. Shunday yul bilan bolalar o'ziga xos buyumlar bilan bog'liq faoliyatni egallaydilar. Bunda muomalaning o'zi bola uchun zarur ehtiyojga aylanadi.

Buyumlar bilan bog'lik faoliyatni tashkil etish oilada ham, mактабгача talim muassasasida ham bir va ikki yoshli bolalarni tarbiyalash vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki bu faoliyatda barcha bilish jarayonlari, maqsadlari va xulq-atvor sabablari rivojlanadi. Bu faoliyatda bolalar tarbiyachilar rahbarligida buyumlarning xususiyatlari, ular bilan qilinadigan harakatlar to'g'risida dastlabki bilimlarni o'zlashtiradilar.

Bola ikki yarim yoshga to'lganda buyumlar bilan bog'lik faoliyat va muomala ancha yuqori rivojlanish darajasiga erishadi, o'yin va tasviriy faoliyatga o'tish uchun asos yaratiladi. Kattalar uyushtiradigan muloqot va faoliyatda bolalarda o'zini-o'zi anglashning dastlabki shakllari shakllanadi. Bola o'zini atrofdagi odamlardan ajratadigan, o'z imkoniyatlarini anglab yetadigan bo'la boshlaydi. Mustaqillik rivojlanishining ana shu bosqichida bolalar kattalarning vasiyligini qisman cheklashga intiladilar. O'zini-o'zi anglashning dastlabki shakllari xulq-atvor sabablarini shakllantirishning boshlanishi bo'ladi.

⁹ «Педагогика» фанидан изоҳли луғат. –Т., 2010. 534-535 бетлар.

Ilk yoshdagi bolalarning faolligi va mustaqilligi bevosita katta odamning ishtiroki va ta'siri ostida ro'y bersa, 4-6 yoshli bolalar xilma-xil faoliyatga tobora mustaqil, o'z xoxishlariga ko'ra qo'shiladilar, bunda ongning roli oshadi va ba'zan ijodiy xususiyatga ega bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha tarbiya yoshida yetakchi bo'ladigan o'yin faolyatida maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy, bilish faolligi rivojlanadi. Tarbiyachilar rahbarligidagi o'yinlar chog'ida bolalar turli harakat usullarini, buyumlar, ularning xususiyatlari va belgilari to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtiradilar. Bolalar makon, vaqt munosabatlarini, o'xshashlikka va bir xillikka oid aloqalarni anglab yetadilar, tushunchalarni egallaydilar. Harakatli o'yinlar harakatlarning rivojlanishiga, makonda yo'l-yo'riq topishga yordam beradi. Birgalikdagi o'yinlarda bolalar odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, harakatlarni muvofiqlashtirishning ahamiyatini anglab yetadilar va o'zlashtiradilar, atrofdagi narsalar to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatining mazmuni xilma-xil bo'ladi va har tomonlama rivojlanish imkoniyatlari kengayadi. O'yin hayolni rivojlantirishga, atrofdagi voqyelik, odamlar mehnati to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, shaxsning jamoatchilik xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi.

Muntazam mehnat topshiriqlari o'z faoliyatini jamoat manfaatlariga bo'ysundirish, ijtimoiy foyda kelishiga amal qilish, mehnatning umumiyligi natijalaridan quvonish ko'nikmalarini tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Mashg'ulotlardagi eng oddiy o'quv faoliyati atrofdagi tabiat, ijtimoiy turmush, odamlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirishga, shuningdek aqliy va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Agar 3-4 yoshda ta'lim paytida bolalarning e'tibori tabiat, odamlar xayotidagi aniq faktlar va hodisalarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta'lim berish muhim aloqalar va munosabatlarni o'zlashtirishga va aloqalarni umumlashtirishga hamda eng oddiy tushunchalarni shakllantirishga karatilgan bo'ladi, bu esa bolalarda tushunish tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. O'zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o'yinlarda va mehnatda qo'llaydilar. Bularning hammasi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi.

Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his-tuyg'ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish shu darajaga yetadiki, u bolaga maktabdagi muntazam o'qishga o'tish imkonini beradi.

Kichik maktab yoshida asosiy narsa o'qish bo'lib qoladi va uni bolalar ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat sifatida tushunadilar. Bolaning jamiyatdagi yangi mavqyei o'z xatti-harakatini va tengdoshlarining xatti-harakatini o'zgacha nuqtai nazardan maktab o'quvchisi nuqtai nazaridan baholashni shart qilib qo'yadi. Bola faollik, ijodkorlik ko'rsatib, kattalarning uning xulk-atvoriga va faoliyatiga qo'yayotgan tobora murakkablashib borayotgan talablarini bajarishga intiladi.

Har bir faoliyat turining mazmuni va tuzilishining ijtimoiy-tarixiy tabiatini har bir yosh avlodga ob'ektiv ravishda berilgan bo'ladi. Odamlarning ishlab chiqarish

qurollarida, bilimlarda, san'atda, axloqda va hokazolarda jamlangan sermahsul faoliyati natijalari birgalikdagi faoliyatda va muloqotda bo'lgan paytda tarbiya va ta'lif vositasida katta avloddan kichiklarga beriladi. Odam shaxsining ijtimoiy tabiatini ana shunday shakllanadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchida kuchli faoliyat ehtiyojini uyg'otib, yangi hulk-atvor sifatlarini shakllantirishga yordam bergandagina kutilgan natijalarga erishadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari va ularni tarbiyalash. Bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning yetakchilik roli to'g'risidagi qoidadan kelib chiqib, uning o'quv-tarbiya muassasalaridagi va oiladagi hayotini u faoliyatning xar-xil turlariga boy bo'ladigan qilib uyushtirish zarur. Bunda ularga mazmunni boyitishga, yangi ko'nikmalarini o'zlashtirishga, mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan rahbarlik ta'minlanishi kerak.

Tarbiya va ta'lifning mazmuni, vositalari, metodlari bolalarning rivojlanish jarayoni, ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi.

Keyingi yosh guruqlarida maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi va moslashishi ancha oshib boradi, shunga muvofiq tarzda ta'lif-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari va metodlari o'zgaradi. Bolaning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan tarbiya-ta'lif ishini murakkablashtirish imkonini beradi.

Tarbiya vazifalari mazmuni, metodlarini yoshga qarab tabaqlashtirish hozirgi fanda qabul qilingan odam hayotini davrlarga bo'lishga tayanadi. Bir tomonidan, vaqtini orqaga qaytarib bo'lmashligi, odam umrining qancha davom etishi va ikkinchi tomonidan, tarbiya va ta'lif sistemasi bilan izohlanadigan ruhiy rivojlanishning olg'a harakat qilishi yoshga qarab tabaqlashtirishning asosi hisoblanadi. Yosh davrlari – odam rivojlanishining majburiy bosqichlaridir.

Har bir yosh davri yashalgan yosh, organizm biologik sistemalarining yetilish darajasi, ularning vazifalari, shu bilan birga odamning hayotiy tajribasi, bilimlarining hajmi, faoliyat turlari va mazmuni bilan belgilanadi.

Yosh kattalashgan sari ruhiy faoliyat boyib boraveradi, shu bilan birga teskari jarayon ham ro'y beradi, shu sababli har bir yosh uchun shaxsning sensor, akliy, hissiy, irodaviy tomonlari kabi xususiyatlar xosdir; ular orasidagi o'zaro aloqa o'zgaradi, bu esa rivojlanishning umumiy darajasiga, xulq-atvorni tartibga solishga ta'sir ko'rsatadi. Yosh bilan birga faoliyatning yetakchi turi ham o'zgaradi. Biroq shaxsning ruhiy rivojlanish darajasi faqat yashagan yillar natijasi emas har qanday yoshda, ayniqsa bolalikda tarbiya va ta'lif sistemasi, shaxsning faoliyati va faolligi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Yosh bilan bog'liq rivojlanish muddatlarida o'ziga xos siljishlar ham bo'lishi mumkin.

Ilk yoshdagi bolalar yordamga muhtoj, ko'ngli nozik bo'ladi. Shu bilan birga bu o'sish va rivojlanish sur'atlari juda yuqori bo'lgan yoshdir. Shu sababli to'laqonli rivojlanishni ta'minlash uchun bolalarning sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlash, ularning hayotini to'g'ri tashkil etish uchun har bir bolaning hissiy

ijobiy holatiga ko‘maklashuvchi shart-sharoitlarini yaratish to‘g‘risida g‘amxurlik qilish zarur.

Ilk yoshda bolalar emaklash, tirmashish, biror narsaga osilib o‘zini kutarish, yurish kabi xilma-xil harakatlarni egallaydilar. Harakat ayrim turlarining o‘z vaqtida paydo bo‘lishi va ketma-ketligi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlariga va tarbiya sistemasiga bog‘liq bo‘ladi. ZOTAN, bolalarni yaxshi ovqatlantirish, parvarish qilish, ular bilan tez-tez muloqotda bo‘lib turish tufayli ular bu sharoitlar yo‘q bo‘lgan paytdagidan ancha erta mustaqil yura boshlaydilar. Ilk yoshda sensor rivojlanish, aqliy rivojlanish asoslari, his-tuyg‘ularni, idrok etishni, tasavvurlarni takomillashtirish katta ahamiyatga ega.

Nutqning shakllanishi 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarning muhim yosh xususiyati hisoblanadi, 3 yoshga borganda bolalar ona tilining deyarli barcha jihatlarini egallagan bo‘ladilar va kattalar hamda tengdoshlari bilan nutqdan muomala vositasi sifatida foydalanadilar.

Ilk yoshdagagi bolalar bilan ish yuritishning asosiy yunalishlari, o‘yin faoliyati, tasviriy, konstruktorlik faoliyatining eng oddiy shakllari tarkib topadi. Bolalar o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatishning eng sodda ko‘nikmalarini egallaydilar, bu bolaning o‘ziga xos mustaqilligini belgilab beradi. Kichkintoylarda dastlabki uch yoshda tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlar rivojlanadi: ular birgalikdagi o‘yinlarda bir-birlari bilan muomalada bo‘lishni va o‘zlarini o‘yin qoidalariga muvofiq tutishni o‘rganadilar.

Yosh xususiyatlari faqat aqliy sohagagina emas, shu bilan birga hissiy, irodaviy, sabab sohalariga ham taallukli bo‘ladi: hayotning dastlabki yillarida bolalarning xulq-atvori asosan bevosita his-tuyg‘ular bilan tartibga solinadi, lekin shu yoshdayoq irodani tarbiyalashni boshlash, ularga umumiyligini qabul qilingan normalar va qoidalarni tushunishni o‘rgatib borish kerak.

Bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash uchun ularning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini bilish kerak, bu ishni ilk yoshdan boshlab amalga oshirish zarur.

Ilk yoshdagagi bolalarni tarbiyalash sistemasi yosh avlod umumiyligini ta’lim-tarbiya tayyorgarligining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Maktabgacha yoshda bola organizmining takomillashishi davom etadi: 3 yoshdan 5 yoshgacha bolaning o‘sish sur’ati avvalgi yosh davriga nisbatan birmuncha susayadi, lekin 5 yoshdan 8 yoshgacha yana kuchayadi. Umumiyligini o‘sish va tana og‘irligining oshishi bilan bir vaqtda bolaning barcha asosiy to‘qimalari va organlari anatomik o‘zgarishlari va funksional rivojlanishi ro‘y beradi. Asta-sekin skelet qotib boradi, muskullar hajmi oshadi, bola organizmining ishlash qobiliyati kuchayadi. Shu bilan birga asab hujayralari tez charchaydi va madori quriydi. 6-7 yoshga kelib bola yurish, yugurish, sakrash, arkonga osilib chiqish, uloqtirish va hatto chang‘ida yurish, konkida uchishdek murakkab harakat turlarini muvaffaqiyatli egallaydi.

Jismoniy tarbiya maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan ish olib borishda markaziy o‘rinni tutadi. Bolaning imkoniyatlariga muvofiq oilada va bolalar bog‘chasida ta’sir ko‘rsatishning aniq vositalari va metodlarni qo‘llash sistemasi: hayot, ovqatlanish tartibi, gimnastika mashqlari va harakatli o‘yinlar, chiniqish

usullari belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bolada miya qobig‘ining funksional faolligi takomillashib boradi. Asab sistemasining yuksak darajada ta'sirchanligi idrok etishning yorkinligi, o‘tkirligini, bolalar ta'sirlanuvchanligini shart qilib qo‘yadi, shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash va unga ta‘lim berishda ta'surotlar va bilimlarni (bu asosan atrofdagi xayot haqidagi eng oddiy bilimlar bo‘ladi) tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha o‘rta yoshda tarbiya maqsadga muvofiq tarzda olib borilganda ko‘rish, eshitish, hid bilish kabi idrok etish usullari, ko‘rgazmali-ta'sirchan va obrazli fikrlash, irodaviy, hissiy va sabab jarayonlari rivojlanadi. Bolalar bilish jarayonini egallab borar ekanlar, eng oddiy tahlil etish va umumlashtirish, tasniflashga qodir bo‘lib boradilar, o‘zlarini o‘rab turgan buyumlar va xodisalar to‘g‘risida mulohaza bildira boshlaydilar. Umuman maktabgacha yosh sinchkovlik, qiziquvchanlik bilan ajralib turadi.

Biroq bolaning tabiiy qiziquvchanligi qondirilmasa u passiv bo‘lib qoladi. Masalan, o‘rta yoshdagi bolalar faoliyatning xilma-xil turlarida namoyon bo‘ladilar, tasurot yangiligi va o‘tkirligi xosdir. Kattalar ta'sirida maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyati ixtiyoriy ravishda bajariladigan bo‘lib qoladi, bu esa ta‘lim beradigan mashg‘ulotlar paytida e’tiborlilikni tarbiyalash uchun g‘oyat muhim.

Tayanch tushunchalar:

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta‘lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

Ob'ekt – tadqiq e'tilishi lozim bo‘lgan narsa va hodisalardan iborat bo‘lib, ular o‘ziga o‘xhash narsa va hodisalardan alohidaligi bilan farq qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Rivojlanishning asosiy mazmuni nima?
2. Shaxsning rivojlanishi uchun zarur omillar qaysilar?
3. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning mohiyati nimada?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni yosh hususiyatlarini izohlang.
5. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishini asoslab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

79. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
80. “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.

81. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
82. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
83. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta’limga qamrab olish.// “Maktabgacha ta’lim” jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.
84. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

16-Mavzu: Tarbiya turlari va uning shaxs kamolotiga ta’siri

Reja:

1. Tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati
2. Tarbiya qonuniyatlari.
3. Tarbiya tamoyillari.
4. Tarbiya jarayonini tashkil etish-ga doir zamonaviy yondashuvlar va ularning o‘ziga xosliklari.

Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyanı tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, keng va tor ma’nodagi tarbiya farqlanadi. Keng ma’noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta’sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg‘unlashadi. Tor ma’nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta’lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.

Tarbiya mazmuni deganda, qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan bog‘liqlikda tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, e’tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tarbiyalanuvchilarning maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi “inson kapitali”ni tayyorlash;
- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlash;
- ma’lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a’zolarining harakatini tartibga solish.

Tarbiya jarayoni – tarbiyaviy ishlar, tadbirlarning doimiy harakatdagi zanjiridan iborat. Tarbiyaviy tadbirlar – turli xil moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarnipg yagona majmuasiga bo‘ysundirilgan, bir-biri bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi, o‘zida bir butun ta’limni ko‘zda tutgan tarbiyaviy ta’sir majmuidir. Ta’lim jarayoni alohida mashg‘ulotlardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi. Tadbirlar, tarbiyaviy ishlar – tarbiya jarayonining bir bo‘lagidir.

Tarbiyaviy ish – bu tarbiyaning tizimliligi, to‘laligi, uzviyligi va uzluksizligidir. Tarbiyaviy ish tarbiyalanuvchilarning muaiyan faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shakldir. Tarbiyaviy ishning asosiy xususiyati – zaruriylik, foydalilik va tatbiq etish imkoniyatidan iborat.

Tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda yorqin namoyon bo‘ladi:

- maqsadga yo‘naltirilganlik. Tarbiya jarayoni – bu natijasi jamiyat uchun foydali shaxsni shakllantirish qaratilgan maxsus tashkil etiluvchi, boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati. Boshqacha aytganda, mazkur jarayon qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan tarbiyachi va tarbilanuvchilarning o‘zaro hamkorligidir;
- ko‘p qirrali jarayon. Tarbiya jarayoni ko‘plab ob’ektiv va sub’ektiv omillarga bog‘liq. Sub’ektiv omillar bolaning ichki ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ob’ektiv omillar tarbiyaviy vazifalarni muvafaqqiyatli hal etishga yordam beradigan bola yashaydigan muhit sharoitlari bilan tavsiflanadi;
- uzoq muddat davom etishi. Pedagogikada tarkib topgan qonuniyatga ko‘ra tarbiya jarayoni inson tug‘ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadi;
- uzluksizligi. Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning izchil, tizimli o‘zaro harakati jarayoni. Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun tarbiyaviy ishlar tizimli yo‘lga qo‘yilishi lozim;
- yaxlitligi. Ya‘ni tarbiya jarayoni maqsad, vazifa, mazmuni, shakl, metod va vositalarining birligi. Bolani tarbiyalash jarayoni yaxlit tavsifga ega bo‘lganligi bois tarbiyaviy ta’sirning ham to‘laqonli bo‘lishiga erishish lozim;
- variativligi. Tarbiya jarayoni xilma-xil ko‘rinishda amalga oshirilib, mazkur holatda tarbiyalanuvchilarning individual rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar, tarbiyaviy jarayonga munosabati, ijtimoiy tajribalari alohida ahamiyat kasb etadi;
- natijalarning oldindan aniqlanmasligi. Tarbiya jarayoning murakkabligi shundaki, mazkur jarayon o‘z mahsulini yillar davomida ko‘rsatadi. Kutilgan natijaga erishish ham tarbiyachining kasbiy mahoratiga, ham tarbiyalanuvchining shaxsiy faolligiga bevosita bog‘liqdir;
- ikki tomonlamalilik. Tarbiya jarayonining borishi ikki yo‘nalishda amalga oshadi: tarbiyachi – tarbiyalanuvchi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa) va tarbiyalanuvchi – tarbiyachi (qayta aloqa).

Tarbiya qonuniyatları – bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalar.

Tarbiya jarayonining quyidagi umumiy qonuniyatları mavjud:

- ijtimoiy muhitning ob'ektiv va sub'ektiv omillariga bog'liqligi. Ob'ektiv omillar tarbiyanı tashkil etish shart-sharoitlari (moddiy-texnik, ijtimoiy, madaniy, sanitar-gigienik) orqali yuzaga chiqsa, sub'ektiv omillarga tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar, ularning o'zaro birgalikdagi harakati, murakkab aloqalar, psixologik muhit va boshqalarni kiritish mumkin;
- tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi. Tarbiya jarayoni bolalarning yosh davri rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi; qo'yilgan maqsad vazifalar bolalarning yosh xususiyatlariga to'liq mos kelishi lozim;
- faoliyat va munosabatni e'tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai. Tarbiyalanuvchilarining faoliyatga jalb etish orqali ularda mavjud jarayonga nisbatan munosabatni aniq baholay olish mumkin. O'z navbatida munosabat bildira olish tarbiyalanuvchining faoliyatga tayyorligini ko'rsatadi;
- tarbiyalanuvchilarining o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanish. Tarbiyalanuvchilar bir-birlariga o'zaro ta'sir etishlari va mazkur imkoniyatdan oqilona foydalana olish tarbiya jarayonining ta'sirini kuchaytiradi. Ularning o'zaro munosabatlarining barqarorligi, shuningdek, birgalikdagi faoliyati ularda jamoaviylik, o'zaro ishonch, mehribonlik, bir-birlari uchun qayg'ura olish, hamdardlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarning qaror topishiga ko'maklashadi;
- tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalashning intensivligi. O'z-o'zini tarbiyalash – bu shaxsning o'zini, shaxsiy sifatlarini takomillashtirishidir, zamon talabiga javob beradigan darajada ongli intilishidir. O'z-o'zini tarbiyalash yaxshi tarbiya natijasida yuzaga kelib, shaxsning o'z-o'zini kamolga yetkazishiga olib keladi. O'z-o'zini tarbiyalash bevosita tarbiyalanuvchilar hayot mazmuni, ularning qiziqishlari, u yoki bu yosh davridagi xarakterga bog'liqdir. O'z-o'zini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarbiyalanuvchiga o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish, o'zidagi ijobiy va salbiy jihatlarni aniqlay olish imkonini beradi;
- tarbiyalanuvchining "ichki olami"ga ta'sir etishning intensivligi(G.I. Щукина). "Tarbiyalanuvchining ichki olami" deganda motiv, ehtiyoj, emotsiya, intellekt kabilarning birligi tushuniladi. Tajriba, bolaning ehtiyojlari orqali sinaladigan tashqi muhit ta'siri uning yutug'i sifatida yuzaga keladi. Aynan tarbiyaviy jarayonda tashqi ta'sir bolaning ichki muvafaqqiyatini kuchaytiradi;
- tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darjasasi va pedagogik ta'sirni hisobga olish (G.I.Shukina). Amaliyot ko'rsatadiki, hamma vaqt ham bolaning aqliy rivojlanishi uning verbal nutqi va harakatga doir sensomotor ko'rsatkichlariga mos kelavermaydi. Nazariy bilimlarga oson va erkin tayanuvchi bolalar uchun ba'zan elementar amaliy harakatlar, sohada mehnat faoliyatiga doir operatsiyalarni, jismoniy mashqlarni bajarish qiyin va murakkablik qiladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarda verbal va senmotor jarayonlarning rivojlanish dinamikasi bilan pedagogik ta'sirning uyg'unligiga erishish lozim.

Tarbiya tamoyillari – bu tarbiyaviy ishning yo'naliishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:

Maqsadga qaratilganligi va g‘oyaviy yo‘nalganligi. Tarbiya jarayonida maqsadning aniq belgilanishi kutiladigan natijaga erishishni kafolatlaydi. Shuningdek, tarbiya jarayoni jamiyatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, milliy g‘oya va mafkura asosiga qurilishi lozim. Respublikamizda tarbiya jarayonining asosiy maqsadi sifatida yuksak ma‘naviyatli shaxsni shakllantirish belgilab olingan. Yuksak ma‘naviyatli inson bilimli, ma‘lum kasb-hunar sohibi, o‘z Vatanining sodiq fuqarosidir. O‘z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g‘ururlana oladigan inson. O‘z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go‘zalliklaridan bahramand bo‘ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Tarbiyaning insonparvarlashuvi. “Insonparvarlik” tushunchasi mohiyatini, uning turlari va ilmiy pedagogika bilan munosabatlarini qanday talqin qilish kerak? “Falsaфа qomusiy lug‘at”da insonparvarlik “Odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma‘naviy failatlarni rivojlantirishga g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalari bilan sug‘orilgan dunyoqarash”¹⁰ sifatida qaraladi. “Pedagogik ensiklopedik lug‘at”da esa, insonparvarlik shaxs sifatida inson, uning erkin rivojlanishi va o‘z qobiliyatlarini namoyon eta olishini qadriyat sifatida qabul qilish ekanligi uqtiriladi¹¹.

Keng ma‘noda insonparvarlik – insonni shaxs sifatida qadriyat deb belgilaydigan, uning erkinlik, baxtga bo‘lgan huquqi, o‘zining qobiliyatlarini namoyon etishi va rivojlantirishi, ijtimoiy institutlarning baholash mezonlarida inson ravnaqini hisobga oladigan qarashlarning tarixiy o‘zgaruvchan tizimi, insoniylik – odamlar orasida kutiladigan me'yoriy munosabat. Insonparvarlik yana asosida insonning cheksiz imkoniyatlari va uning komillikk doir intilishlari, o‘z qibiliyatlar, qarashlarini erkin namoyon etishga doir shaxs huquqini e’tirof etish turadigan, inson ravnaqini ijtimoiy munosabatlar darajasini baholash mezoni sifatida tasdiqlaydigan dunyoqarash tamoyili tarzida ham qaraladi. Hozirgi vaktda mazkur tamoyil pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida shakllantirildi.

Tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish eng umumiyl ma‘noda, tarbiya jarayoni ishtirokchilarining munosabatlarini avtoritar pedagogik muloqot uslubidan demokratik muloqot uslubiga almashtirish asosiga tashkil etilishi bilan tavsiflanadi. Bunda asosiysi – tarbiyalanuvchi shaxsiga hurmat va ta‘lim mazmunida ijtimoiy tajriba tarzida olingan insoniyat madaniyati bilan tanishtirish yo‘lida uning ma‘naviy imkoniyatini hisobga olish. Tarbiya jarayonining mohiyati ijtimoiy tajribani maqsadga yo‘naltirilgan tarzda shaxsiy tajribaga almashtirish yoki shaxsiy va ijtimoiy tajribani qo‘shilishida namoyon bo‘ladi. Tarbiyani insonparvarlashtirish uning yetakchi tendensiyasi sifatida tarbiyani insonga qaratish, uning individualligini namoyon bo‘lishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratishni ifodalaydi. U insonni yuqori ehtiyojlari: o‘z-o‘zini namoyon etish, o‘z-

¹⁰ Фалсафа: қомусий лугат (Тузувчи ва масъул мухаррир Қ.Назаров). – Т.: Шарқ, 2004. – Б.166.

¹¹ Педагогика. Большая современная энциклопедия. – Минск: Современное слово, 2005. – С.58.

o‘zini realizatsiyalash, ma’naviy, ijtimoiy va kasbiy shakllanishida maksimal darajada qoniqishga yo‘naltirilgan o‘z noyobligini yo‘qotish, hayot, tabiat dunyosi va madaniyatdan begonalashib ketish xavfidan himoyalanishga chaqiradi.

Tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog‘liqligi. Maktabgacha ta’lim muassasasi bola uchun boshlang‘ich va asosiy tarbiya maskani hisoblanib, aynan tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog‘liqligi tarbiya tizimida katta o‘rin tutadi. U tarbiyachidan ikkita asosiy yo‘nalishda faoliyatni amalga oshirishni talab etadi: 1) tarbiyalanuvchilarni kishilarning mehnat faoliyati bilan keng tanishtirish; 2) tarbiyalanuvchilarni real hayotiy munosabatlarga, ijtimoiy foydali faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish.

Tarbiyaning mehnat bilan bog‘liqligini oqilona amalga oshirish tarbiyachidan tarbiyalanuvchilarning quyidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlariga erishishni talab etadi:

- 1) tarbiyalanuvchilarning mehnatning jamiyat va uning har bir a’zosi uchun ahamiyatini tushunib yetishlari;
- 2) moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchilar mehnatini hurmat qilish;
- 3) tarbiyalanuvchilarni o‘z ustida ishlashlari, muntazam ravishda mehnat qilishga odatlanish;
- 4) tarbiyalanuvchilarni kasb-hunarga oid tushunchalarni o‘zlashtirib borishlari va ular haqida ma'lumotga ega bo‘lishlari;
- 5) moddiy va ma’naviy boyliklarga mas’uliyatli munosabatda bo‘lish.

Tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog‘liqligi tamoyili mazkur tamoyilning alohida tomonlarini olib beruvchi quyidagi qoidalar asosida amalga oshirishni talab etadi:

1. Tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy va mehnat tarbiyasida mavhumlik va yuzaklikdan voz kechib, ularning aniq va mahsuldar faoliyatga jalb etish. Mashg‘ulotlar jarayonida izchillik va ketma-ketlikka rioxasi zarur.
2. Tarbiyachi oila bilan o‘z faoliyatini muvofiqlashtirgan holda, har bir tarbiyalanuvchiga ularning jamiyatga qo‘sadigan munosib hissasi uyda va maktabgacha ta’lim muassasasida kattalarga yordam berish ekanligini tushuntirish.
3. Bolalar odatda doimiy ravishda faoliyatning biror turi bilan shug‘ullanishga intiladi, ularning tabiat uchun sustlik, bekor o‘tirish kabilalar xos emas. Agar tarbiyachi mazkur jihatni hisobga olmasa, bolalarning ijtimoiylashuviga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.
4. Mazkur tamoyilni amalga oshirish tarbiyaviy ishlar jarayonida o‘lkashunoslik materiallaridan keng foydalanishni talab etadi.
5. Tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda hayotiy masalalarni muhokama qilish, ularni o‘z xulosalarini aytishga o‘rgatish ularda insonparvarlik va fuqarolik hissini uyg‘otishga xizmat qiladi.
6. Tarbiyaning hayot bilan bog‘liqligi tamoyilini muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlari bilan bog‘liqlikda tarbiya mazmuni va metodikasini qayta ko‘rib chiqish va yangilab borish lozim.

7. Tarbiyaviy jarayon shunday tashkil etilishi lozimki, tarbiyalanuvchilar to‘la qoniqish hosil qilishlari uchun ularning mehnati kishilar va jamiyatga zarur ekanligini his eta olishlari zarur.

Bugungi kunda tarbiya jarayoniga xilma-xil yondashuvar mavjud bo‘lib, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda mazkur yondashuvlarni hisobga olish juda muhimdir.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. Mazkur yondashuvning mohiyati – bixevoiristik yo‘nalganlik, tarbiyani shaxsning xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy pedagogik ta’sir sifatida qarash; har bir pedagogik ta’sir tarbiyalanuvchida uning so‘zлari, xatti-harakati yo amallarida namoyon bo‘ladigan ma'lum javobni yuzaga keltiradi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi. Maxsus tashkil qilingan pedagogik jarayon sifatida tarbiyadan voz kechish. Madaniyatni, dunyo manzarasini egallah jarayonida atrofdagilarning xatti-harakatlari va xulqiga tabiiy tarzda moslashish.

Aksiologik yondashuv. Mohiyati – insonning jamiyatdagi hayotining o‘zini qadriyat sifatida qaraydigan asosiy falsafiy qadriyatlar nazariyasi; tarbiya hayotga taryorlashga, shaxsiy qadriyatli yo‘nalganlik va shaxsning munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Tarbiya qadriyatlarni o‘zlashtirish va interiorizatsiyalash jarayoni sifatida tashkil etiladi.

Ijtimoiylashtirishga doir yondashuv: tarbiyaga “hayot maktabi” sifatida qarash; ijtimoiy ahamiyatli sifatlarni shakllantirish; hayotiy tajribani sotsiumda egallah; sotsiumda ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash.

Germenevtik yondashuv: insonparvarlikka doir hodisalarini tushunish va talqin qilishning G-nazariyasi; sub’ektning psixologik tajribasiga, kechinmaga murojaat; o‘qituvchi va bola dialogi sifatida tashkil qilinadigan pedagogik o‘zaro hamkorlik vaziyatida kechinmalarni yuzaga keltirish; tarbiyalanuvchi hayot mazmuni va uning hayot qadriyatlari munosabatini tushunish.

Sinergetik yondashuv: shaxsni o‘zgartirish yo‘llarining variativligi; bifurkatsiya (tanlov) nuqtasidan foydalanish; shaxsning ichki imkoniyatlari.

Antropologik yondashuv: insonparvarlik pedagogikasi, refleksiv pedagogika; individual qobiliyatlarni rivojlantirish; o‘z-o‘ziga tarbiya ehtiyojini rivojlantirish; insonparvar maqsadlarni axloqiy fazilatlar sifatida (insoniylik, ishonch, minnatdorlik, chidamlilik) qo‘yish; tashhislash; shaxsning o‘z-o‘zini belgilashini ta‘minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

85. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
86. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.

87. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
88. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
89. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta’limga qamrab olish.// “Maktabgacha ta’lim” jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.
90. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

17-Mavzu: Maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi.

Reja:

1. Jismoniy tarbiya nazariyasi.
2. Maktabgacha yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.
3. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari.

Tayanch tushunchalar:

Iste'dod – har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyat.

Komil inson – inson aqliy takomillashuvi bosqichlaridan biri.

Jismoniy madaniyat – bu insonning barcha tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini ro‘yogda chiqaruvchi uni tobora insoniyashtirib, ham jismoniy ham ma’naviy chiniqtirib boruvchi jarayondir.

1. Jismoniy tarbiya nazariyasi.

Mashhur Yunon donishmandi Aflatun baxt haqida zikr etib: «Inson uchun birinchi baxt uning sog‘lig‘i, ikkinchisi - go‘zallikdir» degan ekan. Darhaqiqat, salomatlik barcha boyliklar manbaidir. Nasl-nasabi sog‘lom va ma’naviyati yuksak xalqning avlodlari ham sog‘lom, baqquvvat, iymon-e’tiqodli va sadoqatli bo‘ladiki, bu baxt ona-Vatanning shuhrati va qudratining zo‘r omiliga aylanadi. Xalqning ana shunday baxt saodati uchun sog‘lom avlod kerak.

Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino «Badan tarbiya – sog‘likni saqlashda ulug‘vor usuldir» deydiki, bu fikr «Kimki qilsa harakat – sog‘lig‘ida barakat» degan naqlni eslatadi.

Qadimda xalqimiz badan tarbiyani riyozat deb atashgan. Ibn Sino «Tibbiy doston» asarida riyozat – badan tarbiyasi haqida to‘xtalib, uning bir necha xillari bo‘lishi, bu jismoniy mashqlar bilan o‘rtacha shug‘ullanish sog‘liqqa foydali ekanligini, jismoniy mashqsiz yurish badanda yomon xulqlarning yig‘ilishiga sabab bo‘lishini alohida uqtirib o‘tadi.

Jismoniy mashqlarning sihat-salomatlikka foydasi cheksizligini D. Adisson shunday ta’riflaydi: «Mutolaa aql uchun qancha zarur bo‘lsa, jismoniy mashqlar

ham shuncha zarur». Suqrot hakim esa bunday deydi: «Gimnastika yordami ila men badaniming muvozanatini to‘g‘rilab olaman».

Sog‘lom avlodni tarbiyalashga yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan hayotiy o‘ringa ega bo‘lgan ma’naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida 2000 yilni «Sog‘lom avlod yili» deb e’lon qilindi.

Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – barchamizning tayanchimiz va suyanchig‘imiz bo‘lgan farzandlarimizni har jihatdan sog‘lom va barkamol insonlar qilib tarbiyalashdan iborat edi.

Ana shu ezgu maqsadlarga erishish, bu sohadagi ishlarni qat‘iy reja asosida amalga oshirish uchun maxsus Davlat dasturi qabul qilingan edi. Sog‘lom avlodni voyaga yetkazishda jismoniy tarbiya va sprotning nechog‘li ahamiyatga ega ekanligi hammamizga ayon. Yurtimizda 2000-yildan boshlab o‘tkazilayotgan «Alpomish o‘yinlari», «Umid nihollari», «Universiada», «Sog‘lomjon, polvonjon», «Barkamol avlod» musobaqalari fikrimiz dalilidir. Yurtboshimiz tomonidan xukumatga qarashli bo‘limgan «Sog‘lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg‘armasining tashkil qilinishi o‘sib kelayotgan avlod salomatligini saqlash va mustahkamlash ishlariga jahon jamoatchiligi e’tiborini jalb qildi.

Jismoniy tarbiya to‘g‘risidagi ta’limot pedagogikaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagogika fanining mazkur sohasiga qarashli turli hodisalarga ta’rif berilganda, «Badantarbiya», «jismoniy madaniyat», «jismoniy kamolot», «jismoniy rivojlanish» degan asosiy tushunchalardan foydalaniladi.

«Jismoniy madaniyat» tushunchasi quyidagilardan iborat: 1) mehnat va turmushdagi ko‘nikmalarni (tartiblilik, kiyimlarning ozodaligi, xonalarning tozaligi) va gigienik rejimga doir odatlarni (faoliyat va dam olishning oqilona tartibi, uyqu, ovkatlanish gigienasi va hokazolar)ni; 2) tabiatning tabiiy sharoitlarida organizmni chiniqtirish (havo, kuyosh va suv)ni; 3) jismoniy mashqlarni o‘z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish – odam organizmining tarkib topishi, uning shakllari va vazifalarining o‘zgarishini ifodalaydigan biologik jarayondir. Tor ma’noda bu antropometrik va biometrik ko‘rsatkichlar: bo‘yi, tana og‘irligi, ko‘krak qafasi aylanasi, o‘pka sig‘imi, qaddi - qomat va boshqalardir. Jismoniy rivojlanish biologik hayot konunlari- muhit va organizmning birligi, miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga mutnazam ravishda o‘tishga muvofiq tarzda amalga oshadi. Zotan, turmush sharoitini, jumladan jismoniy tarbiya metodlarini o‘zgartirib, organizmning funksional imkoniyatlari darajasini ancha oshirish, jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sog‘lig‘ini mustah kamlash, harakat malakalarini shakllantirish va to‘la ma’nodagi jismoniy tarbiya berish, madaniy – gigienik malakalarni shakllantirish, batartib hayot kechirish odatini singdirishga qaratilgan.

Bolaga ta’lim – tarbiya berishda amalga oshiriladigan har qanday ishning muvaffaqiyatli bajarilishi bolaning sog‘lig‘iga bog‘liq. Shuning uchun ko‘pchilik

pedagogik ishlar bolaning jismoniy imkoniyati va sog‘lig‘ini e’tiborga olgan holda amalga oshiriladi.


Bolaning jismoniy rivojlanishi uning har tomonlama uyg‘un rivojlangan inson bo‘lib o‘sishida muhim ahamiyatga ega.

Sog‘lom, jismonan baquvvat bolaning ish qobiliyati ham yuqori bo‘ladi, sharoitga oson moslashadi, har xil topshiriqlarni osonlik bilan tez bajaradi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.

Bolaning biologik rivojlanishi jarayonini tabiiy fanlar majmui o‘rganadi, ularning asosini I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, va ular izdoshlarining organizm va muhit birligi, organizmning yaxlitligi va uning hayotiy faoliyatida markaziy asab sistemasining tartibga soluvchilik roli haqidagi ta’limoti tashkil etadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar organizmining o‘ziga xos tomoni shundaki, u juda tez o‘sadi va rivojlanadi. Shu bilan birga organizm funksiyalari va sistemalarining shakllanishi hali tugallanmagan bo‘ladi, shunga ko‘ra u tez jarohatlanadi. Shuning uchun bolalarga jismoniy tarbiya berishda quyidagilar birinchi darajali vazifalar hisoblanadi:



Sog‘lomlashtiruvchi vazifalar. Bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlash, organizmning shakl va funksiyalarini uyg‘un rivojlantirish, ish qobiliyatini oshirish, har xil tashqi ta’sirlarga chidamliligini kuchaytirish, uzoq umr ko‘rishini ta’minlash.

Ta’limiy vazifalar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga xos bo‘lgan o‘ta qabul qiluvchanlikni, sharoitning o‘zgarishiga yengil moslashish qobiliyati bir qator ta’limiy vazifalarni amamalga oshirish imkoniyatini yaratadi, chunonchi: kerakli ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, ko‘z bilan chamalash)ni o‘stirish, to‘g‘ri qaddi – qomat, gigiena ko‘nikmalarini tarbiyalash, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish.

Boladagi harakat ko‘nikmalari (yemaklash, yurish, yugurish, velosipedda uchish va h.k) nisbatan yengil shakllanadi va ular bolaning muhit bilan aloqasini osonlashtiradi. Bola chanada uchayotib qor, shamolning, suvda suzayotib suvning xossalari bilan tanishadi. Jismoniy mashqlar, gigiena malakalarini egallash bilan bog‘liq bo‘lgan dastlabki bilimlar shakllantiriladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga mashg‘ulotlarning foydasi, jismoniy mashqlarning ahamiyati va texnikasi, ularni o‘tkazish metodikasi haqidagi, harakatli o‘yinlar va hokazolar haqidagi tushuncha va bilimlarni berish muhimdir.

Bolalar gavda qismlarining nomini, harakat yo‘nalishi (yuqoriga, pastga, oldinga, orqaga, o‘ngga, chapga), to‘la aylanish, fizkultura asboblarining nomi va qay maqsadda ishlatalishi, ularni asrash va tutish, kiyim – kechak va poyafzalga qarash qoidasini bilishlari kerak.

Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish jarayonida bolada tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot, hayvonlar, qushlar, hasharotlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash zarur.

Tarbiyaviy vazifalar. Bolalarda sport mashg‘ulotlariga muhabbatni, sportchilarning yutuqlariga qiziqishni tarbiyalash lozim.

Jismoniy mashqlarni bajarishda xarakterning ijobiy xususiyatlari (uyushqoqlik, intizomlilik, kamtarlik, ko‘ngilchanlik va hokazo) va axloqiy fazilatlar (halollik, haqqoniylilik, o‘rtoqlik hissi, o‘zaro yordam), jamoada shug‘ullanish malakasi, fizkultura asboblarini ehtiyyot qilish, topshiriqni mas’uliyat bilan bajarishlarini tarbiyalash, shuningdek, irodaviy fazilatlar (botirlilik, qat’iyilik, o‘z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni yengishda sabotlilik, chidamlilik va boshqalar)ni namoyish qilish uchun juda qulay sharoit yaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda ularning yosh hususiyatlari hisobga olinadi. Jadal o‘sish va rivojlanish maktabgacha yoshdagi bola organizmining o‘ziga hos xususiyatidir.

Lekin sistemalar va ular vazifalarining shakllanishi xali tugallanmagan bo‘ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bola juda nozik bo‘ladi. Shu munosabat bilan quyidagi sog‘lomlashtirish vazifalari birinchi o‘ringa qo‘yiladi:

- 1) hayotni muhofaza qilish, kasallikka qarshi kurash olib borish, organizmning tashqi muhit ta’siriga qarshiligini oshirish;
- 2) organizmning barcha sistemalarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida rivojlantirish, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘ri qaddi - qomatni uyg‘un jismoniy rivojlantirish.

Bolalar organizmining nomukammalligi, nozikligi bilan birga unga kudratli rivojlanishni ta’minlovchi hususiyatlar ham hosdir. Bu barcha to‘qimalarning juda egiluvchanligi, tezkorligi, moda almashinushi jarayonlarining jadalligidir. Uning juda katta moslashish imkoniyatlari shuning natijasidir. Bola sharoitlarning o‘zgarishiga, jismoniy zo‘riqishga kattalarga nisbatan ancha tezroq va yaxshiroq moslashadi. U o‘ziga tushunarli bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga idroki baland bo‘ladi, bu esa bir qancha ta’limiy vazifalarni hal etish imkonini beradi:

1) jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish va madaniy-gigienik ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan bog'lik dastlabki bilimlarni shakllantirish;

2) kelgusida sport bilan shug'ullanish uchun asos bo'lib hizmat kiladigan hayotiy zarur harakatlar malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

3) shaxsiy va ijtimoiy gigiena ko'nikmalarini singdirish;

Jismoniy mashqlar bolalarning to'laqonli aqliy, ahloqiy, estetik va mehnat tarbiyasiga yordam berib, ularning ma'naviy-irodaviy sifatlarini (jasurlik, halollik, qat'iyat va boshqalarni) rivojlantiradi.

3. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari.

Rejim (kun tartibi). Bolalar hayotining rejimi (tartibi) – bu bedor yurish, uqlash, ovqatlanish, faoliyat xilma-xil turlarining har kuni muayyan izchillikda takrorlanib, oqilona almashinib turishidir. Tartib rivojlanish uchun qulay sharoit ta'minlashi kerak, shuning uchun u bolaning yoshi, uning salomatligi, kattalar mehnatining xususiyatlari, bola tarbiyalanayotgan oila turmushi va muassasaga bog'liq tarzda o'zgaradi.

Muayyan vaqt ichida tartibning asosiy tarkibiy qismlari bir maromda va doimiy bo'lishi uning ajralmas xususiyatlaridir.

Tartibning bir maromdaligi tabiat hodisalarining maromi, organizm faoliyatining maromiga asoslanadi. Bu bedor yurish va uqlashning, tana haroratining o'zgarishi, nafas olish, yurak urishining qisqarish maromida, ovqat xazm qilish traktining ish maromida namoyon bo'ladi va hokazo.

Oqilona tartib: 1) bedor yurish va uqlashning eng maqbul nisbati asosida quriladi, bu vaqtda boshmiya qobig'i uchastkalari o'rtasidagi vazifalar qayta taqsimlanadi, olingan axborot qayta ishlanadi; 2) aqliy va jismoniy ishlarning nisbati, ovqat hazm qilish maromini hisobga olish asosida quriladi.

Tartibdan chetga chiqish darhol bolaning kayfiyatida, shu bilan birga uning xulq-atvorida namoyon bo'ladi.

Tartibni tuzishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

1. Oliy asab faoliyatining yosh xususiyatlarini.
2. Ovqat xazm qilish sistemasi ishidagi yosh xususiyatlarini.
3. Alovida xususiyatlar: asabiy bolalar va asab tizimi zaif bo'lgan bolalar ko'proq uqlashlari kerak.

4. Harakatga bo‘lgan yosh ehtiyojlari: bir kecha kunduzdagи harakat miqdori 3 yoshli bolalarda 10-19 ming qadamni, 7 yoshli bolalarda 14-25 ming qadamni tashkil qiladi.

5. Yil fasli, iqlim sharoitlarini bolalarni uyqusini tashkil etishni hisobga olish lozim.

Gigienik sharoitlar. Bizning jamiyatda jismoniy tarbiya davlatning ona va bola to‘g‘risidagi g‘amxo‘rligiga, mehnatkashlar yashash sharoitlarining doimo yaxshilanib borishi, moddiy farovonliginingo‘sishiga asoslanadi.

Bolalarning jismoniy to‘g‘ri rivojlanishi uchun gigienik sharoit (bino, maydoncha, jihozlar, kiyim – bosh, poyafzal) yaratish, bolalar hayotining ilmiy asoslangan rejimini (bular oqilona ovqatlanish, harakatlarni rivojlantirish va organizmni chiniqtirish tadbirlarini o‘z ichiga oladi) albatta bajarish zarur. Shu bilan birga, tibbiyot xodimlarining doimiy nazorati, zaruriy profilaktik va davolash ishlarini olib borishi talab etiladi.

Bog‘chada har bir guruh uchun xonalar ajratiladi. Guruh xonalari bolalarning erkin harakat qila olishi va sof havo bilan nafas olish imkonini beradigan darajada katta, yorug‘, quruq va issiq, derazalari janubi – sharqqa qaragan bo‘lishi kerak.

Guruh xonasining balandligi 3 – 3,5 m bo‘lib, har bir bolaga bino sathidan 2,5 kv. m joy, taxminan 8 kub m havo to‘g‘ri kelishi; xona bezagi gigienaga xos, tez toza bo‘ladigan, yoqimli, yumshoq rangda bo‘lishi kerak. Guruhda tartib bo‘lishiga rioya qilish zarur. Xonada yorug‘likni to‘sadigan og‘ir va qalin pardalar, gilamlar, yumshoq mebellar, umuman ortiqcha narsalar bo‘lmasligi kerak. Hamma jihozlar ta‘lim – tarbiya talabiga, bolalarning bo‘yi va gavda tuzilishiga mos bo‘lishi va xalq ta‘limi vazirligi tomonidan qo‘yilgan maxsus normaga javob berishi lozim.

Bolalarning stol stillari ancha mustahkam va yengil tuzilishi sodda hamda oson yuviladigan bo‘lishi kerak. Stollar yorug‘lik chap tomondan tushadigan qilib joylashtirilishi lozim. Uyinchok va ko‘rgazmali qurollar ham gigienik talablarga javob beradigan, pishiq, zararsiz rangda, tashqi ko‘rinishi silliq bo‘lishi kerak.

Tarbiyachi o‘z guruhining gigienik sharoiti uchun javobgardir. Xonani bolalar sayrga, musiqa mashg‘ulotiga chiqib ketgandan keyin shamollatish, deraza fortochkalari esa yil fasllaridan qat‘i nazar doimo ochiq bo‘lishi kerak.

Bog‘cha maydonchasi. Har bir yosh guruhi uchun butalar bilan ajratilgan alohida maydoncha bo‘lishi kerak. Maydonchada bolalarning harakatlarini rivojlantirish uchun joy (tekis maydoncha), qum, suv, qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinlar uchun joy, ijodiy o‘yinlar va turli o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar uchun joy ajratiladi. Maydonchada harakatlarni rivojlantiruvchi jihozlar: tirmashib chiqish uchun devorchalar (uch, to‘rt va olti burchakli), muvozanat saqlash mashqlari uchun xoda, tepalik, sakrash, uloqtirish mashqlari uchun kerakli jihozlar bo‘lishi kerak. Bularning hammasi bolalarning yoshi va kuchiga mos, pishiq, mustahkam, chiroyli bo‘lishi zarur.

Bog'cha maydonchasida bolalarning velosipedda yurishlari uchun yo'laklar bo'lishi kerak.

Yomg'ir va quyoshdan saqlanish uchun yopiq ayvonlar bo'ladi. Maydoncha har doim ozoda, tartibli bo'lishi zarur. Bog'cha maydonchasi skameykalar, o'ynash uchun zarur bo'lgan o'yinchoqlar, qum yashiklari, har xil kema, samolyot maketlari, narvonchalar bilan jihozlangan bo'ladi.

Qishki vaqtarda qor tepalikcha, yaxlatilgan yo'lchalar, qor inshootlari, qurish lozim.

Bolalarning ovqatlanishi (nonushta, tushki ovqat, kech tushki ovaqat va kechki ovqat) osoyishta vaziyatda o'tishi kerak. Bola stol atrofiga yaxshi ishtaha bilan o'tirsa, uning organizmida ovqatning yaxshi hazm bo'lishiga yordam beruvchi shart-sharoit hosil bo'ladi. Yaxshi ishtaha bolalarda mustaqillikni, madaniy-gigieik malakalarni, stol atrofida o'zini to'g'ri tutib o'tirish malakalarinn tarbiyalashga yordam beradi. Eng muhim — bolalarning yoshligidan boshlab ularda yaxshi ishtaha bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir. Ba'zi bolalar keragidan ortiq, ba'zilari keragidan kam ovqat yeyishlari mumkin. Shuning uchun bolaga ovqat normasnni ularning yoshiga qarab berish kerak. Ammo bolani taomni oxirigacha yeyishga majbur etish kerak emas, majbur etish har doim ovqatdan oladigan lazzatlaiishni kamaytiradi, uni hazm qilishni kiyinlashtiradi, ba'zan bola ovqatdan butunlay voz kechishi mumkin. Bolaning to'g'ri ovqatlanayotganning asosiy mezoni uning jismoniy jihatdai uyg'un rivojlanganligidir.

Bolalarni ilk yoshligidan boshlab ovqatni mustaqil yeyishga o'rgatish ularda ozqatni ishtaha bilan yeyishga, ovqatga ijobiy munosabatni uyg'otishga yordam beradi. Ikkinci yoshning boshidan qoshikdan foydalanishga o'rgatish, to'rtinchchi yoshdan sanchqidan, beshinchchi yoshda — pichoqdan foydalaiish malakalarini tarbiyalab borish zarur. Bundan tashqari, bolalarda ovqat yeyishdan oldin qo'lini yuvish, tartibli yeb-ichish, chapillatma, tovushsiz chaynash va ichish, salfetkadan foydalanish, to'g'ri o'tirish, ovqat uchun tashakkur bildirish, ovqatdan keyin og'izin chayqash kabi madaniy-gigienik malakalarni ham tarbiyalab boriladi.

Ovqatlanish vaqtida bolalarga tanbeh berish, ularni kojish yaramaydi. Bu bolalarning asabini buzadi, ishtahasini bo'g'adi. Bir bolaga berilgan tanbez boshqa bolalarning diqqatini tortmasligi lozim. Ovqatni yaxshi yeya olmaydigan bolalarga tarbiyachi yoki enaga yordam bsradi.

Bolalarda ovqatlanish bilan bog'liq bo'lgan madaniy-gigienik malakalarni tarbiyalash kattalardan ijobiy namuna ko'rsatishni talab etadi. Madaniy-gigienik malakalarni qanday bajarayottanliklarini tarbiyachi nazorat qilib borishi, katta va tayyorlov yoshidagi bolalarda esa uning ahamiyatnni, bajarish usulinn ongli egallab olishlariga erishishi lozim.

Uyqu. Bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda uyqu muhim vazifadir. Uyqu miya katta yarimsharlarining normal ishlashi uchun zarur bo'lgan kuch-quvvatni tiklaydi.

Chuqr va yaxshi, uzoq davom etadigan uyqu nerv sistemasining, organizm charchashining oldini oluvchi asosiy vositadir. Agar bola yomon uxlasa, uyquga to'ymasa nerv sistemasi faoliyatining buzilganidan dalolat beradi. Nerv sistemasi tez qo'zg'aluvchi bolalar aksariyat yomon uxlashadi. Bunday bolalarning

uyqu tormozlanishi chuqur normal uyquni ta'minlay olmaydi. Shunda buiday bolalar kichkinagina, arzimagan sharpadan ham uyg'onib ketaveradi. Bola qanchalik yomon uxlasa, uning axloq normasi, o'zaro munosabati, muomalasi shuncha yomonlashadi, bunday holni biz injiqlik deb tushunamiz. Yaxshi uyqu bolaning sog'lomligidan darak beradi.

Bola yaxshi uxlashining asosiy sharti uning yoshiga mos bo'lgan sutkalik rejimni hayotining birinchi kunidan boshlab to'g'ri tashkil etishidir. Bola tez va yaxshi uxlashi uchun qyerakli shart-sharoit yaratish, uyg'oqlik vaqtida faollashtiruvchi har xil harakatlarni tashkil etish kerak.

Bola yaxshi uxlashining asosiy shartlaridan biri hayotining birinchi oyidan boshlab uni toza havoda uxlatishdir. Kislorodga to'yan qon butun organizmdagi nerv hujayralarining tiklanishiga yordam beradi. Toza havo bolaning nafas olishini yaxshilaydi, shamollahdan saqlaydi. Jismonan nimjon va 1,5 yoshgacha bo'lgan bolalarni toza havoda uxlatish, sayr qildirish nihoyatda zarurdir.

Agar bola yaxshi uxlasa, tetik, quvnoq bo'lib uyg'onadi va hafsala bilan kiyina boshlaydi.

Bolalarning kiyimi. Yozgi kiyim rangi ochiq, asosan oq gazlamadan, qishki kiyim — to'q rangli materialdan tikilishi lozim. Bolalarning kiyimni ularning yoshiga yarasha, yengil, qulay, kismaydigan, estetik didiga javob beradigan paxta matosidan tikilishi kerak.

Bolalarning oyoq kiyimi ham qulay, poshnasi 1,— 1,5 sm bo'lishi kerak. Vaqt-vaqt bilan bolalarga qishda binoning ichida, yozda maydonchada yalang oyok, yurishga ruxsat berish kerak. Notejis joyda yalango yoq yurish tovon yassilagini yo'qotadi, bola- organizmini chiniqtiradi.

Sayr. Bolalarning uzoq vaqt ochiq havoda bo'lishlari ularning sog'ligiga va jismoniy taraqqiyotiga har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning ochiq havoda bo'lishi natijasida qon kislorodga to'yadi, temperaturaning o'zgarib turishi, havoning namligi, shamol ta'siri termoregulyatsion apparatni mashq qildiradi, organizmni chiniqtiradi. Bolaning faolligi oshadi, harakatlari, jismoniy sifatlari takomillashadi.

O'tkaziladigan sayrning tashkiliy jihatlari, mazmuni va metodikasini tarbiyachilar puxta o'ylashlari lozim. Sayrga yig'ilish ko'p vaqtini olmasligi, buning uchun bolalarni bir tartibda kiyinish va yechinishga o'rgatish kerak. Sayr rejasiga atrof hayotni kuzatish, sport mashg'ulotlari, mehnat faoliyati, o'yinlar kiradi. Bolalarning turli faoliyatlarini tashkil etish uchun bolalar maydonchasi pedagogik talabga javob beradigan qilib jihozlangan bo'lishi kerak. Har bir guruh maydonchasida turli o'yinlar o'tkazish uchun qurilish materiallari, qum, suv, turli o'yinchoqlar, sirpanish uchun tepaliklar, muz maydonchasi, tirmashib chiqish, muvozanat saqlash, sakrash uchun moslamalar o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Velosiped uchish uchun yo'l bo'lishi kerak. Bolalar 3—4 soat ochiq havoda vaqt o'tkazishlari lozim. Faqat qattik yomg'irda, kuchli shamolda, sovuq — 25° dan oshganda sayrga chiqish kerak emas.

Harakatli o'yinlarni o'tkazish muddati mashg'ulotning mazmuniga bog'liq. Hatto 15—20 daqiqalik sayrlar ham yaxshi hissiy, jismoniy madad beradi. Tarbiyachi bolalarning bir vaziyatda turib qolmasliklariga e'tibor berib turishi

lozim. Harakatli o‘yinlarni tinchrok o‘yinlar bilan almashtirib turish kerak. Kichik guruh bolalari bilan haftasiga bir marta, katta guruh bolalari bilan haftasiga 2 marta ekskursiya uyuştiriladi. Bunda bolalar kattalarning mehnatini, kishilarning hayotini kuzatadilar.

Chiniqtirish. Chiniqtirish deganda organizmning atrof-muhitdagi turli tabiiy ta’sirlar (harorat, namlik, quyosh nuri darajasining o‘zgarishi)ga eng ko‘p chidamliligi, moslashishini tarbiyalash tushuniladi.

Bolada faqat harorat, iqlim o‘zgarishlariga tez ta’sir bildirishgina tarkib topmasdan shu bilan birga gemoglabin miqdori oshadi, ularning immun tizimi yaxshilanadi. Bolalar turli kasalliklarga kamroq chalinadilar va ularni organizmlari kasalliklarni tezda yengadi.



Kundalik hayotda chiniqtirish tadbirlarini jismoniy mashqlar, bolaning xilma-xil faoliyati bilan bog‘liq holda olib borish chiniqtirish uchun ham organizmni mustahkamlash uchun ham yaxshi natija beradi.

Madaniy-gigienik ko‘nikmalar va odatlarni tarbiyalash. Madaniy-gigienik ko‘nikmalarga badanni ozoda tutishga, to‘g‘ri ovqatlanishga, atrof-muhitda tartib saqlashga rioya qilish va bolalarning bir-birlari bilan, kattalar bilan, o‘zaro madaniy munosabatlariga doir ko‘nikmalar kiradi.

Madaniy-gigienik ko‘nikmalarini shakllantirishda quyidagi shartlarga e’tibor qaratish zarur:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada harakatlar va topshiriqlarni bajarish uchun qulay vaziyatni (qulay mebel, jihozlar) yaratish.

2. O'zlashtirilayotgan madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni qat'iy belgilangan tartibda bir vaqtida bajarishga o'rgatish.

3. Har bir bola bilan yakka tartibda ish olib borish.

4. Bolalarni madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini nazorat qilib borish.

5. Bolalarni kattalarning barcha gigiyenik va madaniy talablarini so'zsiz bajarishga o'rgatish.

Jismoniy mashqlar va massajdan foydalanish. Jismoniy mashqlar – jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga qaratilgan maxsus harakatlar, shuningdek harakat faoliyatining murakkab turlaridir. Jismoniy mashqlar organizmga ko'p qirrali fiziologik ta'sir ko'rsatadi. U modda almashinuvini, qon aylanish jarayonlarini faollashtiradi, suyaklarning o'sishiga yordam beradi.

Massaj. Kichik bolalarni tarbiyalashda passiv gimnastika turlaridan biri – massaj (uqalash) qo'llaniladi. Uqalash ta'sirida qon tarkibi, asab tizimi vazifalari, shuningdek teri va muskullarning oziqlanishi yaxshilanadi, issiqlik chiqishi ko'payadi, muskullarning charchashi yo'qoladi.

MTMlarning katta va tayyorlov guruuhlarida, mashg'ulotlar ýrtasida olib boriladigan jismoniy mashqlardan namunalar.

1-mashq.

-O'rindan turib, qo'lllar chap yelkada bolta ushlagandek holatda turiladi, she'r:

Biz o'rmonga boramiz,

Qo'limizda boltamiz.

Daraxtlarni kesamiz

1-2-3-4, 1-2-3-4.

-She'rni aytib, sanoqqa kelganda bolta chopgandek harakat qilinadi.

-1 – pastga, 2 – o'ng yelkada, 3 – pastga, 4 – chap yelkada. Sanojni 2-3 marta qaytarilgandan keyin «Uf, charchadik» so'zi aytilganda qo'llar pastga tushirib silkitiladi.

2-mashq.

Stoldan chetga chiqib qo'llar yuqoriga ko'tariladi. Bajarilishi:

-«Bahor valsi» musiqasi sadosi yordamida qo'llar gavda bilan birga o'ng va chap tomonlarga chayqaladi. Shu chayqalishda oldinga va orqaga egilinadi.

Bu kabi mashqlarni ko'plab keltirish mumkin. Lekin jismoniy mashqlar uzoq davom etmasligi kerak. Jismoniy mashqlar o'tilayotgan mashg'ulot mazmuniga mos bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda bolalarning yoshi ham hisobga olinadi.

Bolalar bog'chasi kun tartibida xilma-xil o'yinlarga alohida o'rin beriladi. Vaqtidan to'laqonli foydalanish uchun tarbiyachi o'yinchoqlar va qo'llanmalarni oldindan tanlab qo'yishi, bolalarni bajarish ko'nikmalarini tarbiyalashi zarur.

Sayr qilish har tomonlama tarbiyaviy ishlar uchun keng imkoniyatlar beradi. Sayr chog'ida, tabiat va ijtimoiy hodisalar kuzatiladi, bolalarning mehnat va o'yin faoliyati, sport mashqlari uyushtiriladi.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning ovqatlanishi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida butun ovqatlanishi tashkil etish bolalarda taomni yeishiga

ijobiy munosabatni yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Muayyan vaqtida, 3,5-4 soat oralig‘ida bolalarga mazali tayyorlangan, chiroli tashqi ko‘rinishga ega bo‘lgan taomlar beriladi. Ovqatlanish uchun zarur bo‘lgan hamma narsa oldindan tayyorlab qo‘yiladi, chunki kutish ishtahani pasaytiradi, asab tizimini qo‘zg‘atadi. Stolni enaganning o‘zi bezaydi, o‘rtal guruhdan boshlab esa bu ishda navbatchi bolalar faol ishtirok etadilar. Navbatchilikning tartibi va harakatlarning xususiyatlari tarbiyachi tomonidan puxta o‘ylanadi va bolalar aniq ketma-ketlikda tushuntiriladi. Normal ovqatlanish jarayoni uchun osoyishta vaziyat katta ahamiyatga ega.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarda madaniy-gigienik ko‘nikmalarini tarbiyalash. Butun maktabgacha yosh davomida madaniy-gigienik ko‘nikmalarini shakllantirish yuzasidan katta ishlar olib boriladi. Harakatlar muvofiqligini rivojlantirishdagi, fikrlashdagi ro‘y bergen katta siljishlar bolalarning o‘ziga-o‘zi xizmat qilishi, navbatchilik, jamoadagi muloqot davrida zarur bo‘lgan xilma-xil harakatlarni uddalashi uchun imkon beradi.

4 yoshga qadam qo‘ygan bolalar qo‘llarini to‘g‘ri yuvishni (qo‘llarni bir-biriga ishqab Sovun surish, Sovunni yuvib tashlash va har bir barmoqni artish) ni, tish yuvishni (dastlab oddiy xo‘l cho‘tka bilan, 4 yoshdan boshlab poroshok bilan), ovqatdan keyin og‘izni chayqashni, dastro‘molchadan foydalanishni, stol atrofida o‘zini madaniy tutish qoidalariga rioya etishni (qoshiqdan, sanchqidan foydalanishni, ovqatni to‘kmaslikni) bilishi kerak. Bolalar o‘yinchoqlarga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo‘lishni, ozodalik va tartib saqlashni o‘rganadilar.

5 yoshga qadam qo‘ygan bolalar ancha mustaqil bo‘lib qoladilar, ular endi Sovun bilan yuzlarini, bo‘yinlarini, quloqlarini yuva oladilar, ancha puxtalik bilan kiyina oladilar, har bir harakatni bajarish tartibini biladilar, bir-birlarining tashqi ko‘rinishlaridagi yoki atrofdagi nuqsonlarni sezalaydilar.

6-7 yoshli bolalar o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatishga doir barcha harakatlarni ancha tezroq va aniqroq bajara oladilar. Ular tez, toza, kiyimlarini, polni ho‘l qilmasdan yuvina olishlari, puxta va tez kiyina olishlari, o‘z tashqi ko‘rinishlarini kuzatib borishlari kerak. Ovqatlanish ko‘nikmalariga katta talablar qo‘yiladi: bolalar sanchqi, pichoqdan to‘g‘ri foydalanadilar, tartibli ovqat yeydilar. O‘yin burchaklarini yig‘ishtirish, navbatchilik turlari majburiyatlari va ko‘nikmalari doirasi kengayadi, navbatchilarning vazifalari murakkablashadi.

Madaniy gigienik ko‘nikmalarini muttazam mustahkamlab borish kerak. Tarbiyaviy ishlar tizimining o‘zgarishi, malakalarni shakllantirish va ulardan foydalanishga e’tiborning yo‘qligi ularning tezda yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun jismoniy mashqlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ish olib borishda jismoniy mashqlar katta o‘rin tutadi. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrda bolalar tarbiyachi rahbarligida va mustaqil ravishda asosiy harakatlarni, sport mashqlarni egallagan, xilma-xil harakatli o‘yinlarni o‘ynashni o‘rgangan bo‘lishlari kerak. Bu keng dastur ishning xilma-xil vositalari va shakllaridan foydalangandagina bajarilishi mumkin.

Har kuni bolalar bir necha bor jismoniy mashqlarni bajaradilar: ertalab gigienik gimnastika shaklida; haftasiga ikki marta jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari

tarzida bajaradilar, ularga turli xildagi saf tortishlar, umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, asosiy harakatlar, harakatli o‘yinlar kiradi. O‘rta va katta yoshdagi bolalar bilan o‘tirib bajariladigan mashqlardan jismoniy tarbiya daqiqalari, mashg‘ulotlar orasida jismoniy tarbiya tanaffuslari o‘tkaziladi. Sayr chog‘ida sport mashqlari, harakatli o‘yinlar uyushtiriladi, bolalarning kichik guruhlari bilan ish olib boriladi. Kunduzgi uyqudan keyin saf tortishlar, qayta saf tortishlar, raqs harakatlari, maroqli mashqlar bajarilib, ular chiniqtirish tadbirlari bilan qo‘sib o‘tkaziladi. Sayr chog‘ida va xonada bolalarning turli qo‘llanmalar va motorli o‘inchoqlar bilan mustaqil o‘yinlari uyushtiriladi.

Maktabgacha ta’lim bolalar muassasalarida jismoniy tarbiyaning quyidagi o‘ziga xos vositalardan foydalaniladi: 1) harakatli o‘yinlar o‘tkazilib, ularga eng ko‘p o‘rin beriladi; 2) asosiy gimnastika (asosiy harakatlar, umum rivojlantiruvchi va saf tortish mashqlari); 3) sport mashqlari (konkida uchish, chang‘ida yurish, suzish, velosipeda uchish); 4) bolalar turizmi.

Ko‘rsatilgan vositalardan uyg‘un birlikda foydalanish har tomonlama jismoniy rivojlanishni ta’minlaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Jismoniy tarbiyaning mazmuni.
2. Jismoniy tarbiyadagi asosiy tushunchalarning «jismoniy tarbiya», «jismoniy barkamollik», «badantarbiya», «jismoniy rivojlanish» mazmunini ochib bering.
3. Ilk yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining vazifalari.
4. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning jismoniy tarbiyalashning mazmunini ochib bering.
5. Rejim (kun tartibini) tashkil etish.
6. Turli yosh guruhlarida bolalarning ovqatlanishini tashkil etish.
7. Ilk yoshdagi bolalarda madaniy-gigienik ko‘nikmalarni tarbiyalash.
8. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarda madaniy-gigienik ko‘nikmalarni tarbiyalash.
9. Jismoniy tarbiya vositalari.
10. Chiniqtirishning mohiyati va uni o‘tkazish metodikasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

91. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
92. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
93. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
94. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.

95. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// “Maktabgacha ta'lim” jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.
96. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

18-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyasining asoosiy vazifalari, vositalari.

Reja:

1. Maktabgacha tarbiya pedagogikasida bola egallashi lozim bo‘lgan madaniy-gigeyenik ko‘nikmalar
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiyaning vazifalari
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiyaning vositalari

Jismoniy tarbiya mazmuni ijtimoiy – tarixiy tajribaning shunday qismiki, u odam salomatligini saqlashni va mustahkamlashni, shuningdek, xarakat madaniyatini ta'minlovchi bilimlar, malakalar, ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

Mazmun – sanitariya – gigiyena madaniyati va normalari va qoidalarini (tana, ovqat yeyish, turar joy va h.q) bilishni va ularni bajara olishni o‘z ichiga oladi.

Harakat madaniyati turli harakatlarni ishlab chiqilgan normativlarini egallashni va shu asosda muvofiqlik, chaqqonlik, tezlik, chidamlilik kabi sifatlarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasida bola egallashi lozim bo‘lgan madaniy - gigienik ko‘nikmalarni quyidagi guruhlari ajratiladi:

- a) ovkat yeyish ko‘nikmalari (ovqatni tartib bilan olish, yaxshilab chaynash, qoshikdan, sanchikdan, salfetkadan foydalanish va h.k);
- b) o‘z tanasini parvarish kilish ko‘nikmalari (yuvinish, soch tarash va h.k);
- v) xonada tartibga rioya etish, kiymlardan foydalanish va unga qarash ko‘nikmalari (tez kiyinish va yechinish, kiyimlarni tartibli, ozoda saqlash va h.k).

Bolalar harakat ko‘nikmalari va malakalarini egallaydigan jismoniy mashqlar ham belgilangan:

- a) asosiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, uloqtirish, muvozanatni saqlash mashqlari); umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, safga turish va qayta safga turish;
- b) sport mashqlari (suzish, changida yurish, konkey uchish va h.k).

Harakatli o‘yinlar (mazmunli, mazmunsiz sport tarkibiy qismlari bo‘lgan o‘yinlar va boshqalar) ham ko‘rsatilgan, yozgi va qishki davrda uchastkadan tashqariga qilinadigan uzoq sayrlar ko‘zda tutilgan.

Jismoniy tarbiya ishining mazmunini belgilab beruvchi asosiy hujjat «Uchinchi ming yillikning bolasi» tayanch dasturidir. U bolalarni izchil harakat malakalari va ko‘nikmalariga o‘rgatish imkonini beradi, harakatlarning muvofiqligini rivojlantiradi, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, tezlik, chidamlilik)ni tarbiyalaydi.

Jismoniy tarbiya tizimidagi ishlar xilma-xil vositalar yordamida amalga oshiriladi: gigiyenik omillar (to‘g‘ri rejim, maqsadga muvofiqovqatlanish, gigiyenik vaziyat, madaniy-gigienik ko‘nikmalarni shakllantirish, mustahkamlash uchun), jismoniy mashqlar.

Rejim (tartib). Bolalar hayotining rejimi (tartibi) – bu bedor yurish, uplash, ovqatlanish, faoliyat xilma-xil turlarining har kuni muayyan izchillikda takrorlanib, oqilona almashinib turishidir. Tartib rivojlanish uchun qulay sharoit ta‘minlashi kerak, shuning uchun u bolaning yoshi, uning salomatligi, kattalar mehnatining xususiyatlari, bola tarbiyalanayotgan oila turmushi va muassasaga bog‘liq tarzda o‘zgaradi.

Muayyan vaqt ichida tartibning asosiy tarkibiy qismlari bir maromda va doimiy bo‘lishi uning ajralmas xususiyatlaridir.

Tartibning bir maromdaligi tabiat hodisalarining maromi, organizm faoliyatining maromiga asoslanadi. Bu bedor yurish va uplashning, tana haroratining o‘zgarishi, nafas olish, yurak urishining qisqarish maromida, ovqat xazm qilish traktining ish maromida namoyon bo‘ladi va hokazo.

Oqilona tartib: 1) bedor yurish va uplashning eng maqbul nisbati asosida quriladi, bu vaqtda boshmiya qobig‘i uchastkalari o‘rtasidagi vazifalar qayta taqsimlanadi, olingan axborot qayta ishlanadi; 2) aqliy va jismoniy ishlarning nisbati, ovqat hazm qilish maromini hisobga olish asosida quriladi.

Tartibdan chetga chiqish darhol bolaning kayfiyatida, shu bilan birga uning xulq-atvorida namoyon bo‘ladi.

Tartibni tuzishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

1. Oliy asab faoliyatining yosh xususiyatlarini.
2. Ovqat xazm qilish sistemasi ishidagi yosh xususiyatlarini.
3. Alovida xususiyatlar: asabiy bolalar va asab tizimi zaif bo‘lgan bolalar ko‘proq uplashlari kerak.
4. Harakatga bo‘lgan yosh ehtiyojlari: bir kecha kunduzdag‘i harakat miqdori 3 yoshli bolalarda 10-19 ming qadamni, 7 yoshli bolalarda 14-25 ming qadamni tashkil qiladi.
5. Yil fasli, iqlim sharoitlarini bolalarni uyqusini tashkil etishda hisobga olish lozim.

Ovqatlanish. To‘g‘ri tashkil etilgan ovqatlani bolalarni to‘laqonli jismoniy tarbiyalashning muhim jihatni hisoblanadi. Ovqatlanish o‘sib borayotgan organizm uchun g‘oyat muhimdir, chunki u barcha to‘qimalarning normal o‘sishi va rivojlanishini ta‘minlaydi.

Chiniqtirish. Chiniqtirish deganda organizmning atrof-muhitdagi turli tabiiy ta’sirlar (harorat, namlik, quyosh nuri darajasining o‘zgarishi)ga eng ko‘p chidamliligi, moslashishini tarbiyalash tushuniladi.

Bolada faqat harorat, iqlim o‘zgarishlariga tez ta’sir bildirishgina tarkib topmasdan shu bilan birga gemoglobin miqdori oshadi, ularning immun tizimi yaxshilanadi. Bolalar turli kasalliklarga kamroq chalinadilar va ularni organizmlari kasalliklarni tezda yengadi.

Chiniqtirishni tashkil etishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim.

1. Chiniqtirishni butun yil davomida mavsumiy holatlarni hisobga olib, muntazam o'tkazish kerak.
2. Ta'sir etuvchi vositalarning kuchini asta-sekin kuchaytirish zarur.
3. Bolaning salomatligini, yosh xususiyatini, hissiy holatini, uy va maktabgacha ta'lif muassasasini sharoitini hisobga olish zarur.

Kundalik hayotda chiniqtirish tadbirlarini jismoniy mashqlar, bolaning xilma-xil faoliyati bilan bog'liq holda olib borish chiniqtirish uchun ham organizmni mustahkamlash uchun ham yaxshi natija beradi.

Madaniy-gigiyenik ko'nikmalar va odatlarni tarbiyalash. Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarga badanni ozoda tutishga, to'g'ri ovqatlanishga, atrof-muhitda tartib saqlashga rioya qilish va bolalarning bir-birlari bilan, kattalar bilan, o'zaro madaniy munosabatlariga doir ko'nikmalar kiradi.

Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish zarur:

1. Maktabgacha ta'lif muassasasi va oilada harakatlar va topshiriqlarni bajarish uchun qulay vaziyatni (qulay mebel, jihozlar) yaratish.
2. O'zlashtirilayotgan madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni qat'iy belgilangan tartibda bir vaqtida bajarishga o'rgatish.
3. Har bir bola bilan yakka tartibda ish olib borish.
4. Bolalarni madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini nazorat qilib borish.
5. Bolalarni kattalarning barcha gigiyenik va madaniy talablarini so'zsiz bajarishga o'rgatish.

Jismoniy mashqlar va massajdan foydalanish. Jismoniy mashqlar – jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga qaratilgan maxsus harakatlar, shuning harakat faoliyatining murakkab turlaridir. Jismoniy mashqlar organizmga ko'p qirrali fiziologik ta'sir ko'rsatadi. U moda almashinuvini, qon aylanish jarayonlarini faollashtiradi, suyaklarning o'sishiga yordam beradi.

Massaj. Kichik bolalarni tarbiyalashda passiv gimnastika turlaridan biri – massaj (uqalash) qo'llaniladi. Uqalash ta'sirida qon tarkibi, asab tizimi vazifalari, shuningdek ter iva muskullarning oziqlanishi yaxshilanadi, issiqlik chiqishi ko'payadi, muskullarning charchashi yo'qoladi.

2 § Ilk yoshdagagi bolalarni jismoniy tarbiyalash

Uch yoshgacha bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiyalashning yosh tavsifi va vazifalari. Ilk yoshdan bola organizmida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Skiletning tog'ay to'qimasida suyak to'qimasi paydo bo'la boshlaydi muskul va paylar zaif bo'ladi, lekin ularning qisqarish xususiyatlari yaxshilanadi. Bolaning vazni ortib boradi, uning asab tizimi rivojlanadi, miyaning tez o'sishi va analizatorlarning rivojlanishi kuzatiladi.

Ilk yoshdagagi bolalarning kun tartibi. Ilk yoshdagagi tartib bolaning to'g'ri rivojlanishi va tarbiyalanishining asosidir. Ilk yoshdagagi bolalar uchun uplash va

bedor yurish qonuniyatlariga bog‘liq ravishda tabaqlashtirilgan yosh rejimlari ishlab chiqilgan. Ilk yoshdagi bolalarning birinchi guruvida uchta kichik yosh guruhi uchun tabaqlashtirilgan tartib tashkil etiladi:

1. 2,5-3 oydan 5-6 oygacha; 5-6 oydan 9-10 oygacha; 9-10 oydan 1 yoshgacha.
2. 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar guruvida 2 ta rejim mavjud. 1,5 yoshgacha bo‘lgan bolalar 2 marta uxlaydilar 1,5 yoshdan keyin esa bolalar bir marta uplashga o‘tkaziladi.
3. 3 yoshga qadam qo‘ygan bolalar 1 ta rejimga o‘tadilar.

Ilk yoshdagi bolalarni ovqatlantirish. Ilk yoshdagi bolalar har 3-3,5 soatda gigienik sharoitda, belgilangan vaqtida ovqatlantiriladi. 2 yoshga qadam qo‘ygan bolalarni ovqatlantirishda ular kichik guruhlarga bo‘linadi. 3 yoshli bolalar esa ovqatlarni mustaqil va tartibli yeyishga o‘rgatib boriladi.

Ilk yoshdagi bolalarda madaniy-gigienik ko‘nikmalarni tarbiyalash. Ilk yoshdagi bolalarda kiyinishga, yuvinishga, ovqatlanishga ijobiy munosabatlarni yaratish, o‘ziga-o‘zi xizmat qilish ko‘nikmalarini mustaqil harakatlarni shakllantirishga tayyorgarlik bo‘lib xizmat qiladi.

1,5-2 yoshli bola deyarli hamma kiyimlarini o‘zi yecha oladi, taxlab qo‘yadi va kiyimlarini ayrimlarini kiya oladi. Bu yoshdagi bolalar o‘zları yuvinadilar va artinadilar.

2-3 yoshli bolalar mustaqil ovqat yeyishga kiyimlarini kiyib yechishga o‘rganadilar.

Ilk yoshda jismoniy mashqlar va uqalash. Bola hayotining dastlabki yilida uqalash va gimnastika har kuni yakka tartibda o‘tkaziladi.

2 yoshga qadam qo‘ygan bolalar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazayotganda yurishni, arqonga chiqishni, sakrashni, buyumni uloqtirishni, muvozanatni rivojlanirishga alohida e’tibor beriladi.

4 § 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni jismoniy tarbiyalash metodikasi

3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni jismoniy tarbiyalashning yosh tavsifi va vazifalari. Bu yosh davrida bola organizmida kata o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. 7 yoshga borganda bolaning bo‘yi o‘rtacha 120 sm gacha o‘sadi. Organ va tizimlarda morfologik va funksional o‘zgarishlar bo‘ladi. Umurtqanining egiluvchanligi ortadi, muskullarning kuch darajasi kuchayadi, o‘pkaning xajmi o‘sadi. Nafas olish chuqurroq va uzoqroq bo‘ladi. Ovqat xazm qilish apparati barqaror ishlaydi.

Bolalarning shu davrdagi jismoni va ruhiy rivojlanishi xususiyatlari munosabati bilan quyidagi o‘ziga xos vazifalar o‘rtaga qo‘yiladi:

- 1) to‘laqonli uyg‘un jismoniy rivojlanishi yurak tomir va nafas olish tizimini mashq qildirish qaddi qomat va oyoqni shakllantirish;
- 2) organizimni chiniqtirish;

- 3) barcha asosiy harakatlarni, sport mashqlarini bajarish ko'nikmalarini tarbiyalash;
- 4) jismoniy qobiliyatlar, sifatlarni rivojlantirish;
- 5) ozodalik, tartiblilik odatlarini tarbiyalash.

Turli vositalardan kompleks foydalanganda bu vazifalarning barchasi muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning rejimi. (Kun tartibi) 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning uyqusi 12-13 soat (shundan 1,5-2 soati kunduzgi), 5 shidan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda 11-12 soat davom etadi.

O'yinlar uchun salkam 4 soat, harakat faoliyati uchun (turli shakllarda) qariyb 5 soat, kunduzgi uyquga 1 soatu 5 minutgacha ajratish zarur.

Bolalarning aktiv faoliyati – o'yin, o'quv, mehnat va turmush faoliyati kun mobaynida bir necha bor o'zgaradi.

Kichik mакtabgacha yoshdagi bolalar 8 minutga yaqin aqli faoliyat bilan faol shug'ullanishlari mumkin, katta mакtabgacha yoshdagi bolalar esa Anna shunday faoliyat bilan 12-14 minut shug'ullana oladilar. Shundan keyin ularning diqqati susayadi. Agar mashg'ulotlar orasida va mashg'ulotning o'zida harakatlari mashqlar (jismoniy tarbiya daqiqalari, jismoniy tarbiya tanaffuslaridan) foydalanilsa, bolalarning imkoniyatlari birmuncha ko'payadi.

Bolalar bog'chasi kun tartibida xilma-xil o'yinlarga alohida o'rin beriladi. Vaqtdan to'laqonli foydalanish uchun tarbiyachi o'yinchoqlar va qo'llanmalarni oldindan tanlab qo'yishi, bolalarni bajarish ko'nikmalarini tarbiyalashi zarur.

Sayr qilish har tomonlama tarbiyaviy ishlar uchun keng imkoniyatlari beradi. Sayr chog'ida, tabiat va ijtimoiy hodisalar kuzatiladi, bolalarning mehnat va o'yin faoliyati, sport mashqlari uyuştiriladi.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning ovqatlanishi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida butun ovqatlanishni tashkil etish bolalarda taomni yeyishga ijobiy munosabatni yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. Muayyan vaqtida, 3,5-4 soat oralig'ida bolalarga mazali tayyorlangan, chiroqli tashqi ko'rinishga ega bo'lgan taomlar beriladi. Ovqatlanish uchun zarur bo'lgan hamma narsa oldindan tayyorlab qo'yiladi, chunki kutish ishtahani pasaytiradi, asab tizimini qo'zg'atadi. Stolni enaganning o'zi bezaydi, o'rta guruhdan boshlab esa bu ishda navbatchi bolalar faol ishtirop etadilar. Navbatchilikning tartibi va harakatlarning xususiyatlari tarbiyachi tomonidan puxta o'ylanadi va bolalar aniq ketma-ketlikda tushuntiriladi. Normal ovqatlanish jarayoni uchun osoyishta vaziyat kata ahamiyatga ega.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash. Butun maktabgacha yosh davomida madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish yuzasidan kata ishlar olib boriladi. Harakatlar muvofiqligini rivojlantirishdagi, fikrlashdagi ro'y bergan kata siljishlar bolalarning o'ziga-o'zi xizmat qilishi, navbatchilik, jamoadagi muloqot davrida zarur bo'lgan xilma-xil harakatlarni uddalashi uchun imkon beradi.

4 yoshga qadam qo'ygan bolalar qo'llarini to'g'ri yuvishni (qo'llarni bir-biriga ishqab sovun surish, sovunni yuvib tashlash va har bir barmoqni artish) ni, tish yuvishni (dastlab oddiy xo'l cho'tka bilan, 4 yoshdan boshlab poroshok bilan), ovqatdan keyin og'izni chayqashni, dastro'molchadan foydalanishni, stol atrofida

o‘zini madaniy tutish qoidalariga rioya etishni (qoshiqdan, sanchqidan foydalanishni, ovqatni to‘kmaslikni) bilishi kerak. Bolalar o‘yinchoqlarga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni, ozodalik va tartib saqlashni o‘rganadilar.

5 yoshga qadam qo‘ygan bolalar ancha mustaqil bo‘lib qoladilar, ular endi sovun bilan yuzlarini, bo‘yinlarini, quloqlarini yuva oladilar, ancha puxtalik bilan kiyina oladilar, har bir harakatni bajarish tartibini biladilar, bir-birlarining tashqi ko‘rinishlaridagi yoki atrofdagi nuqsonlarni sezalaydilar.

6-7 yoshli bolalar o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatishga doir barcha harakatlarni ancha tezroq va aniqroq bajara oladilar. Ular tez, toza, kiyimlarini, polni ho‘l qilmasdan yuvina olishlari, puxta va tez kiyina olishlari, o‘z tashqi ko‘rinishlarini kuzatib borishlari kerak. Ovqatlanish ko‘nikmalariga katta talablar qo‘yiladi: bolalar sanchqi, pichoqdan to‘g‘ri foydalanadilar, tartibli ovqat yeydilar. O‘yin burchaklarini yig‘ishtirish, navbatchilik turlari majburiyatları va ko‘nikmalari doirasi kengayadi, navbatchilarning vazifalari murakkablashadi.

Madaniy gigiyenik ko‘nikmalarni muntazam mustahkamlab borish kerak. Tarbiyaviy ishlar tizimining o‘zgarishi, malakalarni shakllantirish va ulardan foydalanishga e’tiborning yo‘qligi ularning tezda yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun jismoniy mashqlar. Maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan ish olib borishda jismoniy mashqlar katta o‘rin tutadi. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrda bolalar tarbiyachi rahbarligida va mustaqil ravishda asosiy harakatlarni, sport mashqlarni egallagan, xilma-xil harakatli o‘yinlarni o‘ynashni o‘rgangan bo‘lishlari kerak. Bu keng dastur ishning xilma-xil vositalari va shakllaridan foydalangandagina bajarilishi mumkin.

Har kuni bolalar bir necha bor jismoniy mashqlarni bajaradilar: ertalab gigienik gimnastika shaklida; haftasiga ikki marta jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari tarzida bajaradilar, ularga turli xildagi saf tortishlar, umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, asosiy harakatlar, harakatli o‘yinlar kiradi. O‘rta va katta yoshdagagi bolalar bilan o‘tirib bajariladigan mashqlardan jismoniy tarbiya daqiqalari, mashg‘ulotlar orasida jismoniy tarbiya tanaffuslari o‘tkaziladi. Sayr chog‘ida sport mashqlari, harakatli o‘yinlar uyuştiriladi, bolalarning kichik guruhlari bilan ish olib boriladi. Kunduzgi uyqudan keyin saf tortishlar, qayta saf tortishlar, raqs harakatlari, maroqli mashqlar bajarilib, ular chiniqtirish tadbirlari bilan qo‘sib o‘tkaziladi. Sayr chog‘ida va xonada bolalarning turli qo‘llanmalar va motorli o‘inchoqlar bilan mustaqil o‘yinlari uyuştiriladi.

Maktabgacha ta‘lim bolalar muassasalarida jismoniy tarbiyaning quyidagi o‘ziga xos vositalaridan foydalilanadi: 1) harakatli o‘yinlar o‘tkazilib, ularga eng ko‘p o‘rin beriladi; 2) asosiy gimnastika (asosiy harakatlar, umum rivojlantiruvchi va saf tortish mashqlari); 3) sport mashqlari (konkida uchish, chang‘ida yurish, suzish, velosipeda uchish); 4) bolalar turizmi.

Ko‘rsatilgan vositalardan uyg‘un birlikda foydalanish har tomonlama jismoniy rivojlanishni ta’minlaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Jismoniy tarbiyaning mazmuni.
2. Jismoniy tarbiyadagi asosiy tushunchalarning «jismoniy tarbiya», «jismoniy barkamollik», «badantarbiya», «jismoniy rivojlanish» mazmunini ochib bering.
3. Ilk yoshdagи bolalar jismoniy tarbiyasining vazifalari.
4. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning jismoniy tarbiyalashning mazmunini ochib bering.
5. Rejim (kun tartibini) tashkil etish.
6. Turli yosh guruhlarida bolalarning ovqatlanishini tashkil etish.
7. Ilk yoshdagи bolalarda madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarni tarbiyalash.
8. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarda madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarni tarbiyalash.
9. Jismoniy tarbiya vositalari.
10. Chiniqtirishning mohiyati va uni o‘tkazish metodikasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

97. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagи PF-4947 sonli Farmoni.
98. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
99. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
100. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
101. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta’limga qamrab olish.// “Maktabgacha ta’lim” jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.
102. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz....: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

19-mavzu: Aqliy tarbiya

Reja:

1. Aqliy tarbiya haqida tushuncha.
2. Maktabgacha yoshdagи bolalarni aqliy rivojlanishi
3. Aqliy tarbiya vazifalari.
4. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta’lim berishning o‘ziga hosligi.
5. Mashg‘ulot - maktabgacha yoshdagи bolalarga ta’lim berishning asosiy shakli

Tayanch tushunchalar:

Sezish – atrofdagi narsa hodisalarining sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgi xususiyatlarining miyamizga ta'sir etishi.

Perseptiv qobiliyat – bolalarning ruhiy holatini his qilish, tushuna olish orqali yuzaga chiqariluvchi qobiliyat.

1. Aqliy tarbiya haqida tushuncha

Aql – keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlanib tafakkur va hayotni ÿz ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir.

Aqliy tarbiya – bu aqlni rivojlantirish maqsadida yoshlarga muntazam va maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatish. U yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, malaka va ko'nikmalarda, qoidalarda o'z ifodasini topgan ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashning rejali jarayoni sifatida ro'y beradi.

Bu ta'sir kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlar, sharoitlar yaratishni o'z ichiga oladi.

Odamning aqli, uning aqliy rivojlanishi, bilimlar hajmi, xususiyati va mazmunida namoyon bo'ladi. Ular aqliy faoliyatning jo'shqinligida, mustaqil ijodiy bilishga intilishda o'z ifodasini topadi.

Aqliy faoliyat diqqatning har doir ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi.

Aqliy tarbiyasi yetuk, o'tkir zehnli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik – bu donolik. Donolik insonning eng buyuk va olijanob fazilatidir. Donolik shunday bir noyob ne'matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalq donoligida «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo'lmas», - deyiladi.

Insoniyat paydo bo'lgandan beri odamlar orasida yetishib chiqqan barcha olimu fozillar, shoиру-yozuvchilarining barchasi mukammal ilm egallash orqali o'z davrining e'tiborli kishilari darajasiga ko'tarilganlar.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Ali Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar, g'arb olimlaridan Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, J.J.Russo va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar.

Tarixan ta'lim-tarbiya maxsus inson faoliyati sifatida shakllanib borish barobarida, ta'lim-tarbiya yakunida tarbiyalanuvchining sifatlari, yani ta'limiy maqsadlar ham aniqlanib bordi.

Xitoyning Samarqanddagi elchisi Vey Szining hisobotlarida: «Samarqand ahолиси мohir savdogarlardir. O'g'il bola besh yoshga to'lar ekan, unga savod o'rgata boshlaydilar», - deb qayd qilingan.

Zardushtlik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda «Tarbiya hayotning eng muhim tirdagi, tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u

avvalo yaxshi o'qishni keyin esa yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin» deyilgan.

Farobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida inson takomilida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usul va uslublari haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Aql ma'nolari to'g'risida», «Ilmlarning kelib chiqishi» kabi maorifiy asarlarida olimning ijtimoiy tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Farobiy ta'limning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni yetishtirishdan iborat deb biladi.

Beruniyning bilimlarni egallash yo'llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchilarga bilim berishda ularni zeriktirmaslik; uzviylik, izchillik, yangi mavzularni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish va hokazolarga e'tibor berish kerakligini uqtiradi. Olim bilim oluvchilarga qalbni yomon o'zi sezishi mumkin bo'lмаган holatlardan, behuda raqobatdan, shonshuhratdan saqlanish zarurligini aytdi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu irlsiyat, muhit, tarbiyadir.

Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilim egallashga da'vat etadi. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, ular yetuk bo'lмаган kishilar deydi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarur deb biladi. U ta'limda quyidagi talablarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi: bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilmaslik, ta'limda yengildan og'iriga borish orqali bilim berish, olib boriladigan mashqlar bolaning yoshiga mos bo'lishi, o'qitishda jamoa bo'lib o'qitishga e'tibor berish, ta'lim berishda bolani qiziqishini va qobiliyatini hisobga olish, o'qitishni jismoniy mashqlar bilan birga olib borish.

Abu Ali Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan.

Mushoxada bilan idrok etishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarini tushuntirishdir. Ikkinci bosqich. Ikki xil fikrni idrok etish. Uchinchi bosqich. O'zlashtirilgan bilim, fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda u haqiqiy aql deyiladi.

Olim aqlni 3 bosqichga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin xali harflarni ham, yozishni ham bilmaydigan bolalarni nazarda tutgan.

Ikkinci bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolalarning aqli tasavvur kilinadi.

Uchinchi bosqichda inson aql shakllarini va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo'ladi.

Ibn Sino aql deganda insoning tug'ma iste'dodini, bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi.

Aqlni ikki xil kategoriyalarga bo'ladi.

1. Nazariy aql – borliqdagi umumiy narsalarni idrok etishdir.
2. Amaliy aql – buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rindigan qobiliyatlardan.

O'z davrining yirik ma'rifatchilaridan hisoblangan Abdulla Avloniy ham yoshlarni ilmli bo'lishga chakiradi. U aql va ilmni ulug'laydi hamda «Aql

insonning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir» deb yozadi.

Muallif o‘z fikrini aniqrok va ravshanroq anglashi uchun shunday deb aytadi. «Hayvonlar o‘zlariga bo‘laklar tarafidan qiladurg‘on zulm va jabrlarni shox, tish, tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson aql idroki soyasida o‘ziga keladurg‘on zarar va zulmlardan saqlanur. yer yuzidagi hayvonlarni asir kilib, bo‘ynidan bog‘lab iplari uchini qo‘llariga bergan insonlarning aqlidir».

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ta’lim berish g‘oyasi birinchi bo‘lib chet el pedagogikasida chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tomonidan yaratilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish mumkinligini ko‘rsatib berdi. Shu davrda bolani yoshini e’tiborga olgan holda kishi o‘rganishi lozim bulgan hamma narsaga o‘rganish lozim deydi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ya’ni biz ta’lim-tarbiya beradigan bolalarga har tomonlama bilim, ko‘nikma va malakalarni singdirishimiz mumkin. U 19 bo‘limdan iborat maktabgacha ta’lim dasturini tuzdi. Ya.A.Komenskiy «Onalar maktabi» kitobida kichik bolalarni ta’lim-tarbiyasiga, o‘qish metodikasiga katta e’tibor bergen.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolani faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta’sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg‘otishni, aqliy malaka ko‘nikmalarini tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Bolalarni 6-7 yoshdan boshlab mакtabda o‘qishga o‘tishi munosabati bilan ularni, mакtab ta’limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanish yetarli darajada bo‘lishini ta’minkash tarbiyachilarning javobgarligini yanada oshiradi.

Aqliy kamolot – bu yoshning o‘sib tajribaning boyib borishi munosabati bilan tarbiyaviy ishlar ta’sirida bolaning aqliy faoliyatida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlarining majmuasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim tez sur’atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi. Xullas, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta’minkash ularni kelajakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Bola ijtimoiy muhit ta’sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Atrofdagi kishilar bilan muomala kilish jarayonida u tilni va u bilan tarkib topgan tushunchalar sistemasini o‘zlashtiradi. Natijada maktabgacha ta’lim yoshdagi bola tilini shunchalik egallab oladiki, unda muomala vositasi sifatida erkin foydalanadigan bo‘lib qoladi.

Aqliy rivojlanish fikrning tengligida vokealarni har xil bog‘lanishlarida, munosabatlarda ko‘ra bilish, umumiylashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishi

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo‘lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyin esa o‘quv mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida (rasm chizish, loy) amalga oshirib boriladi. Hozirgi zamон pedagogika fani bilimlar sistemasini uzlashtirib olish, ularni jamg‘arish,

ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil kilish uchun zarur bo‘lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish avliy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari deb hisoblanadi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi.

Pedagogika-psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali xal etishda birinchidan bolaning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish, ikkinchidan bola organizmining umumiy charchashiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan ortiqcha zo‘riqish bo‘lmasligi yo‘llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonunlari va imkoniyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bularning hammasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko‘nikmalarini yanada chuqurlashtirish, xajmini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta‘lim yoshining oxiriga kelib bolalar tevarak atrof to‘g‘risida kattagina xajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo‘lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi voqyealardagi muhim va muhim bo‘lmagan tomonlarini ajrata oladigan ba’zi bir sabab natijali bog‘lanishlarni bilib oladigan bo‘lib qoladilar. Ular o‘quv faoliyatining dastlabki ko‘rsatkichlari shakllandı. Shuning uchun bog‘cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta‘limi bo‘ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy hayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so‘z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyati tarkib toptiriladi bu hodisalarini, vokealarni, chuqur anglab olish, ularni muhim bo‘lgan va muhim bo‘lmagan tomonlarini ajratishga o‘rgatish lozim.

Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolani tevarak-atrofdagi voqyeaxodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashga, hamma narsani ushlab his kilib, diqqat bilan tomosha qilishni kuzatishda namoyon bo‘ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni fikrini mustaqil javob qidirishga yo‘llab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yul qo‘ymaydi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Bolalar bog‘chasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirsh vazifasi turibdi. Qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi va rivojlanadi. Insonning aqliy qobiliyati aqlining ziyraklik – fahm farosatlilik, tanqidiy ko‘z bilan qarash, sermulohazalik kabi sifatlari bilan ajralib turishi mumkin. Aqliy ko‘nikma

va malakalarni rivojlantirish, ya'ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagи muhim va muhim bo'lмаган belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqposlash va hokazolarni tarkib toptirish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolani bilimlarini muvaffaqiyatli egallab olishga yordam beradi. Masalan: o'simliklar va hayvonlar bilan tanishtirish bo'yicha sistemali mashg'ulotlar olib borilgandan keyin bolalar ayrim konkret o'simliklar yoki hayvonlar to'g'risida ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladilar.

So'ngra bolalardagi aqliy-ko'nikma va malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan quyidagi mashg'ulotlarni o'tkazishni rejalashtirishi mumkin: «Paxta o'simligini, momaqaymoq o'simligi bilan solishtirish», «Qafasdagi ikki xil qushni bir-biriga solishtirish» didaktik o'yini va shunga o'xhash tadbirlar o'tkazish. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmasdan, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni xal etishda foydalanishga o'rgatish zarur.

Ilk va bog'cha yoshi davrida bolalarda tevarak-atrofga bo'lgan qiziqish juda tez o'sadi. Qiziqish bolaning aqliy rivojlanishini harakatga keltiruvchi qudratl kuchdir. Kattalar bolaning qiziquvchanligini, bilishga bo'lgan har qanday hoxishini sezishlari va rag'batlantirib borishlari kerak.

3. Aqliy tarbiya vazifalari

Bolani maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning ahamiyati kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko'nikmalarini egallab olishlari ularni mакtabda muvofaqiyatli o'kishlari uchun bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo'lib xizmat qiladi.

Odamning aqliy faoliyati – bu umumiylar maxsus aqliy harakatlar xilma-xil sistemalarining katta miqdoridir. Ko'pgina vazifalarni hal etishda qo'llaniladigan keng ko'lamdagi aqliy harakatlarni shakllantirish ayniqsa muhimdir. Bunday harakatlarga tahlil, qiyoslash, umumlashtirish kiradi.

Ham umumiylar maxsus aqliy harakatlarni egallah aqliy faollik va mustaqillikning rivojlanishini ta'minlaydi. Aqliy faoliyatning moslashuvchanligi va jo'shqinligini, hodisalarni xilma-xil aloqalar va munosabatlarda ko'ra bilishni shakllantirishga yordam beradi. «Aqliy mehnat madaniyati» tushunchasiga aqliy faoliyatning umumiylar tartibliligi, rejaliligi, vazifani qabul qilish va o'rtaga qo'yish, uni hal etish usullarini tanlash, ishlab chiqilgan harakat rejasini izchil amalga oshirish natijalarini baholash mahorati kiradi.

Aqliy mehnat madaniyati aqliy faoliyatning maxsus malakalari va ko'nikmalarini, kitob bilan ishslash ko'nikmalarini egallah darajasi, ilmiy bilish usullari va metodlarini, turli yordamchi vositalardan foydalanish bilan ham bog'liqidir. Aqliy tarbiya vazifalaridan har biri maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashni tashkil etishda hisobga olish lozim bo'lgan bir qancha vazifalarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

Мактабгача ёшдаги болаларни ақлий тарбиялашнинг асосий вазифалари

Болаларда табиат ва жамият түғрисидаги билимлар системасини илмий дунёқарашини шакллантириш. Бола теварак атрофидаги нарсалар уларнинг вазифаси баъзи сифатлари баъзи ҳоссалари ҳақида қайси материалдан тайёрланганлиги түғрисида аниқ тассаввурга эга бўлиши керак. У табиат ҳодисалари уларнинг ўзаро боғлиқлиги ва қонуниятларини билиб олади. Жонсиз табиат ўсимликлар ҳайвонларни кузатиш жараёнида болаларда борлиқ түғрисидаги тасаввурлар шаклланиб боради.

Ақлий малака ва кўнималарни ривожлантириш. Ақлий кўникма ва малакаларни ривожлантириш, яъни энг оддий фаолият усуллари, предметларни текширишни улардаги мұхим ва мұхим бўлмаган белгиларни ажратиб кўрсатиш, бошқа предметлар билан таққослаш мактабгача тарбия ёшидаги болаларга ақлий тарбия бериш вазифаларидан биридир. Бу кўникма-малакалар билиш фаолиятининг таркиби қисмлари бўлиб, боланинг билимларини чукур әгаллаб олишга ёрдам беради.

Билишга доир рухий жараёнларни ривожлантириш: сезги, идрок хотира, хаёл тафаккур нутқ. Билишга доир рухий жараёнларни ривожлантириш ақлий тарбиянинг мұхим вазифасидир.

Билишга қизиқиш ва ақлий қобиляйтларни ақлий меҳнат маданиятини ривожлантириш. Ақлий тарбиянинг вазифаси болалар қизиқув-чанлигини улар ақлининг синчков-лигини ривожлантириш ва шулар асосида билишга қизиқиш ҳосил қилишдан иборат. Болалар боғчаси олдида болаларнинг ақлий қоби-лиятларини ривожлантириш вазифаси турибди.

Boladagi qiziquvchanlik va aqliy faollikning qay darajada rivojlanganligini bolaning aqliy ko'rsatkichining yuqoriligidagi ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

103. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
104. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
105. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
106. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
107. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 3-sod, 2017. 2-3 bet.
108. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

20-Mavzu: Maktabgacha yoshdagagi bolalarga ta'lim berishning o'ziga hosligi

Reja:

1. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lim berishning o'ziga hosligi
2. Mashg'ulot - maktabgacha yoshdagagi bolalarga ta'lim berishning asosiy shakli

Ta'lim – maktabgacha yoshdagagi bolaning bilish qobiliyatlarining muntazam – rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog'chasi tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshdagagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki u ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim – bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning singchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham zarurdir. Bog'chada bolalarga madaniy – gigienik ko'nikmalar, asosiy xarakatlar o'rgatiladi, ular madaniy ahloqiy qoidalarini o'zlashtirib oladilar.

Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyatları asoslari hosil qilinadi, ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi.

Ta'limni ikki yo'l bilan amalgalash oshirish muvofiqdir:

Birinchi yo'l - bolalarni bilim, malaka, ko'nikmalarni kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi orqali egallab borishidir. Bu muomala mehnat faoliyati vash u kabilar bilan belgilanadi.

Ikkinci yo'li – maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan rejali ravishda xabardor bo'lib borishidir. Bunday yo'l bilan ta'lim berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashtirish uchun zarur bo'lgan Fan yantuqlari bilan tanishtirishdir.

Ta'lim – maktabgacha yoshdag'i bolaning bilish kobiliyatlarining muntazam – rejali ravishda rivojlantirib borish, MTMning talim- tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshdag'i bolalarga akliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki u ta'lim jarayonida akliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim – bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning singchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalgalash oshirish uchun ham zarurdir. MTMda bolalarga madaniy – gigienik ko'nikmalar, asosiy harakatlar o'rgatiladi, ular madaniy ahloqiy qoidalarini o'zlashtirish o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyatları asoslari hosil qilinadi, ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Ta'limni ikki yul bilan amalgalash oshirish maqsadga muvofiqdir:

Kuzatish metodi. Bolalarni tevarak atrof bilan tanishtirish imkonini beradi. Bunda bolalar ko'rish, eshitish, sezish idroklari orqali bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa asosan yangi bilim berishda qo'llaniladi.

Kuzatish – bolalarning narsa, voqyealarning ma'lum maqsadi bilan rejali idrok etishidir. Kuzatish metodi ma'lum ob'ektlarni kuzatishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Namoyish etish metodi. Bu metod tarbiyachi bolalarga narsani o'zini yoki tasvirini ko'rsatadi. Bu bevosita ko'rib bo'lmaydigan narsalar (boshqa tabiy zonadagi hayvonlar, o'simliklar, kishilar hayoti bilan) qo'llaniladi.

Hikoya qilib berish - materialni aniq, obrazli, ta'sirchan bayon qilish. O'rta guruhdan boshlab badiiy asarlarni ifodali o'qib berish.

Suhbat metodi. 3-4 yoshli bolalar bilan o'tkazilmaydi. 4-5 yoshli bolalar bilan ham qisqa suhbat o'tkaziladi. 6 yoshdani boshlab suhbat mustaqil mashg'ulot sifatida o'tkaziladi.

Bolalarga ta'lif berish jarayonida tarbiyachi har xil metodlardan, usullardan foydalanish:

Ko'rgazmali	Og'zaki	Amaliy	O'yin metodlari
Kuzatish	Tushunish	Mashq	Didaktik o'yinlar
Ko'rsatish	Hikoya qilish	Mustaqil ish	Harakatli o'yinlar
TV dan foydalanish	So'zlab berish	Oddiy tajriba	Mashqli o'yinlar
	O'qib berish		Insenirovkalar
	Suhbat		Kundalik axborot

Mashg'ulot ta'lif muassasida bolalarga ta'lif berishning asosiy shaklidir. Mashg'ulot – pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lif berishni kun davomida amalgaloshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq-hisob harakatlari kabi turli tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lif berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar maktabgacha ta'lif muassasasida ta'lifni tashkil etish shaklidir.

Ta'lif shakli deganda ta'lif beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyat tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtida o'tkaziladi.

Ta'lif shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyatiga, o'tkazish joyiga shuningdek kun tartibida egallagan o'rniqa qarab bir-biridan farq qiladi.

Maktabgacha ta'lif muassasasida ta'lifning frontal (umumi), jamoaviy va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta'lif berish ishlari ekskursiya, didaktik o'yinlar orqali, kun davomida bolalarning mashg'ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o'yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalgaloshirilib boriladi.

Mashg'ulot maktabgacha ta'lif yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'rinni va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta'lif berish natijasida bilimga qiziqishlar rivojlnana boradi.

Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topog'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar oldiga umumiyo zo'r berishning talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi, jamoatchilik

xissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-o'yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lган birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do'stona jamoasini yaratishga yordam beradi. Mashg'ulotda ta'lim berish orqali bolalarda maktabdagi o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik xissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to'g'ri sifatlar hosil qilinadi.

Bolalarni maktab ta'limiga ruhiy jihatdan tayyorlashni ularning boshlang'ich sinflarda dastur materialni yaxshi o'zlashtirib olishlarini ta'minlovchi bilim va malakalar mashg'ulotlar jarayonida xosil qilinadi.

Mashg'ulotlarda bolalarda mustaqil fikr yuritish, malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, ularning fikriga ergashish, hikoya qilinayotgan hikoyalardan voqeadagi asosiy g'oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Mashg'ulotda tarbiya vazifalari hal etiladi. Mashg'ulot bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma'lum izchillikda olib boriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruhda hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni va vaqtি belgilab qo'yilgan.

Tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik xissi takomillashtirilib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xohishi tarbiyalanadi.

Bolalarni mustaqillikka o'rgatish ishi munta zam amalgal oshirib boriladi.

MTTda kichkintoylarni tevarak-atrofdagi hayot, tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasavvurlarini o'stirish mashg'ulotlari, musiqa mashg'ulotlari, qurish-yasash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari olib boriladi.

Ilk yoshdagи bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar katta yoshdagи kishilarning har bir bola bilan rejali suratda muomalada bo'lishidan iborat bo'lib, bu mashg'ulotlarning maqsadi bolalarning nutqi va harakatini rivojlantirib borishdir; bu esa bolalarni mashg'ulotlarga tayyorlash bosqichidir; go'daqlar ixtiyoriy diqqat o'sib borgani sari, bunday mashg'ulotlar bir necha bola bilan, keyinchalik esa butun guruh bolalarni bilan bir yo'la olib boriladi.

Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'nii u bolani aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur: mashg'ulotning vaqtini, kun tartibidagi o'rnini dasturning har xil bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur.

Mashg'ulotlarni kuning birinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiqdir, chunki, birinchidan bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug'lik bilan yaxshi ta'minlangan bo'ladi.

Har bir yosh guruhida necha marta mashg'ulot o'tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg'ulot yosh guruhlari buyicha necha daqqa davom etishi MTT

tarbiya dasturida ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan xolda belgilab berilgan.

Birinchi kichik guruhda mashg'ulot bolalarni ikki guruhga bo'lgan xolda o'tiladi. Guruhlardagi bolalar soni har doim bir xil bo'ladi. Mashg'ulot jadvalini tuzganda haftada bolalarning ish qobiliyati yuqoriqoq bo'ladigan kun tanlanadi. Ma'lumki xafthaning o'rtalarida (seshanba, chorshanba, payshanba) bolalarning ish qobiliyati yuqori bo'lar ekan, bu kunlarga bolalarning aktiv faoliyatini talab etuvuvchi murakkabroq mashg'ulot tanlanadi (yelementar matematika, nutqning rivojlantirish, savodga o'rgatish va h.k). Jadval tuzganda bu mashg'ulotlarni birinchi qo'yish kerak, bolalardan ko'p harakat qilishni, hissiy zo'riqishni talab etuvchi mashg'ulotlar (musiqa, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat) ikkinchi qilib qo'yildi.

Bolalar o'zlashtirib oladigan bilimlar mazmuni tarbiyalovchi bo'lishi kerak. Maktabgacha tarbiya muassasasi dasturi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tabiat haqidagi bilimlarning (bular tabiatga muhabbat uyg'otadi, o'simliklar va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash xissini tarbiyalaydi), tarkib toptirishni nazarda tutadi: bilimlarni o'zlashtirib olish asosida bolalarda jonajon shahriga, o'z vataniga, xalqiga muhabbat, ulug' kishilarga muhabbat va hurmat, o'ikaning ijtimoiy hayotiga qiziqish paydo bo'ladi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda ijtimoiy xodisalar, voqealar to'g'risida, umumlashgan tasavvurlar tarkib topadi. Masalan, qo'shni o'lkalardagi bolalarning hayoti, oddiy kishilarning mehnati, boshqa xalqlarning hayoti va do'stligi haqidagi dastlabki tasavvurlar vujudga keladi. Tarbiyachi yangi mashg'ulotlarning mazmunini belgilar ekan, ular u yoki bu mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilimlar bilan qanday bog'lanishini o'ylab ko'radi. Masalan, oshpaz, kutubxonachi bilan o'qituvchining mehnati haqidagi bilimlar xilma xil mehnat turlari haqidagi ma'lumotlar sistemasini bir qismidir. Pochtadagi turli xodimlar mehnati haqidagi bilimlar – ijtimoiy mexhnatning jamoa harakteri to'g'risidagi bilimlar sistemasining bir qismi. Mehnatning ijtimoiy harakteri, mohiyatini tushunish uchun bola shunga o'xhash ko'pdan ko'p mehnat turlari bilan tanishishi lozim. Mashg'ulot quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bolalarga yangi bilim beruvchi mashg'ulotlarning o'tkazishdan maqsad – ularning yangi bilimlardan xabardor qilish, tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, voqyealar to'g'risidagi bilimlarini aniqlash va kengaytirishdir. Bunday mashg'ulotlarga yangi ob'ektini kuzatish, hikoya qilib so'zlab berish va boshqalar kiradi. Mazkur mashg'ulotlar hamma yosh guruhlarida o'tkaziladi.

2. Bolalarning to'plagan bilim va tajribalarini mustahkamlovchi va sistemaga soluvchi mashg'ulotlar. Undan ko'zlangan asosiy maqsad idrok etilgan narsalarning anglab olish va dastlabki umumlashtirishga o'rgatishdir. Buning uchun tanish ob'ekt kuzatiladi, ikki narsa, solishtiriladi (xona o'simliklari, daraxtlar, hayvonlar), didaktik o'yinlar, suhbatlar o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotni o'tkazish orqali tarbiyachi bolalar nimani yaxshi o'zlashtirib olgan-u, nima yaxshi o'zlashtirilmaganini bilib oladi. Tarbiyachi mashg'ulot jarayonida bolalarning bilimini yangi narsalar – detallar bilan boyitib boradi.

3. Bolalarning bilimini sinovchi mashg'ulotlar. Bunday mashg'ulotlardan maqsad tarbiyachi bolalar dastur bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va

malakalarni o'zlashtirib oladilarmi-yo'qmi, shuni bilib oladi va o'zini bo'lajak ish mazmuni, metodini belgilaydi. Mashg'ulotning tarbiyachi o'z xohishi bilan kvartal, yarim yil va yilning oxirida, shuningdek mudira va metodistning iltimosiga binoan o'tkazishi mumkin.

4. Kompleks mujassam mashg'ulotlar bolalar bog'chasi tajribasida keng tarqalgan bo'lib, bunday mashg'ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi, egallangan bilimlar mustahkamlanadi va takrorlanadi, sistemaga solinadi, olgan bilim va malakalarning amalda qo'llashga o'rgatiladi. MTMDa tasviriy faoliyat, konstruksiyalash, tevarak-atrofdagi ijtimoiy hayot va tabiat bilan tanishtirish, nutqni o'stirish, savod o'rgatish, eng oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish, musiqa va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Mashg'ulotga to'g'ri tayyorgarlik ko'rib, uyushgan xolda o'tkazilganda bolalar oldiga ma'lum aqliy vazifa qo'yilgan taqdirda, ularning fikrlash faoliyati rivojlanadi. Aqliy vazifalarning birligi va muayyan qiyinchilik bolalarni uyshtiradi va ularning diqqatini ma'lum tomonga yo'naltiradi. Eng avvalo bolaning aqliy vazifani xal etish yo'lidagi qiyinchilikni yengish imkoniyati tug'iladi, natijada bolada faoliyatga qiziqish uyg'onib, u malakani egallah uchun mustaqil intiladi, o'ylaydi va vazifani uddasidan chiqish uchun faxm farosatini ishga soladi.

Nusxa olish tarzidagi vazifani bajarish natijasida bola tarbiyachini ko'rsatmasi va namunasiga qarab malaka va ko'nikmalarni o'rganadi. Bu bolalarni amaliy va aqliy faoliyat usullarini egallab olishlari uchun zarurdir. Bolalar qalamni, mÿyqalamni, qaychini ushlashni, rasm chizish narsa yasash solishtirish umumlashtirish, abstraktiyalashni o'rganadilar. Tarbiyachi bir narsaning xadeb takrorlanaverishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Mashg'ulotning tuzilishi: Mashg'ulot quyidagi tuzilishga ega: bolalarni uyshtirish, asosiy qism, yakunlovchi qism.

Bolalar mashg'ulotga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchun uning mazmuni va metodikasi yaxshilab puxta o'ylanib olinishi kerak. Bolalar o'quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachining e'tibor bilan tinglab, o'yindan mashg'ulotga osonlik bilan o'tadilar.

Bolalarni uyshtirish. Tarbiyachi bolalarni yig'ib, ularning mashg'ulotga tayyorligini tekshiradi: tashqi ko'rinishi, joy-joyiga to'g'ri o'tirishganligi, diqqatini to'plaganini sinab ko'radi.

Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun bolalar oldida turgan faoliyatga qiziqish uyg'otishi, buning uchun bolalarning yoshi, qiziqishi, faoliyatiga mos har xil usullarni qo'llashi kerak.

Kichik guruh bolalarida mashg'ulotga qiziqish uyg'otish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi, kutilmagan, topishmoqli usullardan foydalanadi. «Kuloq solinglar-chi, kimdir eshik qoqyapti! Bu qo'g'irchoq biznikiga mehmonga kelibdi», - deb mashg'ulotni boshlash mumkin. Bolalarning narsalar va ularning nimaga ishlatalishi to'g'risidagi tasavvurini tartibga soluvchi mashg'ulot mana shunday boshlanadi.

Katta guruhlarda qanday mashg'ulot bo'lishini tarbiyachi bolalarga oldindan aytib qo'yadi. Bu bolalarning bo'lajak mashg'ulotga qiziqishini orttiradi. Masalan, mustaqillik maydoniga ekskursiyaga borishni

bolalarga bir hafta oldin aytib o'tadi va ularga rasmlarni ko'rishni, ota-onasi bilan sayr qilganda nimalarni ko'rganini eslashni taqlif etadi. Bolalar bu kunni zo'r qiziqish bilan kutishadi.

Katta va tayyorlov guruhlaridagi bolalar mashg'ulotning zarurligi va majburiyligini tushunishlari, unga ongli ravishda tayyorlanishlari zarur.

Asosiy qism. Mashg'ulotda bolalarga yangi bilim beriladi, topshiriqni bajarish yuzasidan yo'l-yo'riq, ko'rsatiladi, qiyngagan bolalarga yordam beriladi. Bolalar bilan bo'ladigan jamoachilik munosabatlarini alohida munosabat bilan qo'shib olib boriladi. Topshiriqni bajarishni hamma bolalar uddalay olishlari uchun tarbiyachi har xil metod va usullarni qo'llaydi.

Mashg'ulotning boshlanishidanoq bolalarning diqqatini tashkil eta bilish kerak. Bu bolalar oldiga qo'yilgan aqliy vazifaga bog'liq. Bolalarga qanday ishlar olib borish zarurligi ko'rsatiladi va tushuntiriladi, ularni ayrim bolalarga alohida takrorlash shart emas, balki hamma bolalarni e'tibor bilan eshitib o'tirishga o'rgatish kerak, zarurat tug'ilsgina takrorlash mumkin.

Bog'chadagi bolalar o'qish, yozishni bilmaganlari uchun o'tilgan materialni qaytarib mustaxkamlay olmaydilar, shuning uchun bolalarga berilgan bilimni mustahkamlash uchun tarbiyachi takrorlash va mashq qildirish usullaridan foydalanadi. Mexanik qaytarish, yodlatishdan ochish kerak, chunki anglab olinmagan material tezda esdan chiqadi.

Qaytarish, mashq qildirishda tarbiyachi fikrlarni to'ldirib, tartibga solib boradi, bu bolalarda bilimga qiziqish uyg'otadi va shu narsa to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarini chuqurlashtiradi. Mashg'ulotni dastur maqsadi va bolalar yoshiga qarab mustahkamlashning har xil usullari qo'llaniladi.

Bolalar o'zlashtirib olishi va javob qilishi kerak bo'lgan material so'z orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun u yoki bu ishni bajarishda bolalardan uni qanday amalga oshirmoqchi ekanini so'z bilan tushuntirib berish talab etiladi (masalan, son-sanoqga o'rgatishda, qurish-yasashda, rasm chizganda qanday qilishi, qanday tartib bilan bajarishi, buning uchun qanday materialdan foydalanishni tushuntirib berishi talab etiladi).

Mustahkamlash jarayonida didaktik material bilan bajariladigan mashq aqliy vazifani o'z ichiga olsa, bolalarda mustaqillikni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Masalan, son-sanoq mashg'ulotida bolalar sanash material bilan o'zları mashqlarni mustaqil bajarishadi: tarbiyachining topshirig'iga qarab narsalar sonini kamaytirishadi yoki ko'paytirishadi. Buning uchun o'yinchoqlardan ham foydalanish mumkin.

Mashg'ulot davomida pedagog hamma bolalar faol qatnashishini va ishni o'z vaqtida puxta amalga oshirishlarini nazorat qilib boradi. Agar mashg'ulot yakka tartibda olib boriladigan bo'lsa (rasm, loy va plastilindan narsalar yasash, qurish-yasash, konstruksiyalash), bolalar

ishni har xil vaqtda bajarganliklari uchun tarbiyachi mashg‘ulot tugashiga bir necha daqiqa qolganda mashg‘ulotni tugatish kerakligi to‘g‘risida ularni ogohlantiradi.

Mashg‘ulotni tugatayotib, tarbiyachi o‘tkazilgan mashg‘ulotga yakun yasaydi: bajarilgan ishni bolalar bilan bирgalikda baholaydi, bolalarning mashg‘ulotda qatnashganini gapiradi, ba’zan kelgusi mashg‘ulotda nimalar o‘tishlarini aytadi.

Bolalarning o‘quv faoliyatini yaxshi egallab olishlari ular bilimini to‘g‘ri baholashga bog‘liq.

Qo‘yilgan vazifaning bajarilishiga qarab baho berilishi kerak. Bolaning ishini to‘g‘ri baholab, «to‘g‘ri» yoki «noto‘g‘ri» deyish bola uchun oddiy maqtovdan ancha qimmatlidir.

Ish kanchalik yaxshi tahlil qilinsa, u bolaning kelgusida ishini tuzatib olishiga yaxshiroq imkoniyat yaratadi.

Mashg‘ulotdan keyin tarbiyachi bolalarni o‘yinga taklif etadi, boshqa mashg‘ulot bo‘lmasa, sayrga tayyorlanishadi.

Mashg‘ulotda tarbiyachining bolalarga qo‘yadigan talabi ularning yoshi va imkoniyatlariga mos bo‘lishi kerak. Birinchi kichik guruh bolalarini ikkiga bo‘lib mashg‘ulot o‘tiladi. Tarbiyachi birinchi guruh bolalari bilan mashg‘ulot o‘tkazganda ikkinchi guruh bolalariga enaga qarab turadi. Tarbiyachi mashg‘ulot paytida hamma bolalarning faol qatnashishlariga harakat qiladi: savolga to‘g‘ri javob berishlarini, tayyorlanishi kerak bo‘lgan jihozlar, bolalar bilan olib boriladigan dastlabki ishlar (agar bunga zarurat bo‘lsa), mashg‘ulotning borishi va tarbiyachi foydalanadigan metodik usullar ko‘rsatiladi. Mashg‘ulot jarayonini bayon etib yozishda mashg‘ulotning boshi va oxirida (yakun chiqarish va keyingi faoliyat turiga o‘tishda) bolalarni uyushtirishni alohida ajratib ko‘rsatish kerak.

Mashg‘ulot muvaffaqiyatli o‘tishi uchun jihozlarni o‘z vaqtida tayyorlash zarur. Ularni tanlash mashg‘ulotning mazmuniga va tarbiyachi belgilagan metodik usullarga bog‘liq.

Odatda metodika kabinetida «MTMdа ta‘lim-tarbiya dasturi»ning hamma bo‘limlari bo‘yicha metodik qo‘llanmalar bo‘ladi. yetishmaganini tarbiyachi o‘zi tayyorlaydi, ba’zan bu ishga katta va tayyorlov guruhlari bolalarini jalb etadi. Mashg‘ulot uchun kerakli materiallarni bir kun ilgari tayyorlaydi, uning buzuq emasligini, didaktik materiallar hamma bolalar uchun yetarli ekanligini tekshiradi.

Agar tarbiyachi ekskursiya o‘tkazadigan bo‘lsa, u oldindan ekskursiya o‘tkaziladigan joyga borib kelishi, kuzatish uchun ob'ekt tanlashi, bolalarni qanday joylashtirishni o‘ylab qo‘yishi, eng yaqin va xavfsiz marshrutni tanlashi kerak. Mayda sanoq materiali, rasm mashg‘uloti, applikatsiya, qurish-yasash uchun materiallar, she'r, ertak matnlari oldindan tayyorlab qo‘yiladi. Ba’zi mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ancha oldin boshlanadi. Masalan, kichik guruh bolalariga ekish yoki

ko‘chat o‘tkazishga qiziqish uyg‘otish uchun ularga ko‘karib turgan o‘simlikni ko‘rsatish kerak. Buning uchun uni avval yetishtirish zarur.

Navbatchilar mashg‘ulotga kerakli jihozlarni tayyorlaydilar, stol, stillarni qulay qilib joylashtiradilar, qo‘llanma va, materiallarni qo‘yib chiqadilar. Jismoniy tarbiya va musiqa mashg‘ulotlaridan oldin bolalar poyafzalni almashtiradilar, sport formasini kiyadilar.

Mashg‘ulotlarda tarbiyachining yetakchilik roli va uni o‘tkazishga tayyorgarligi. Tarbiyachi MTMDa asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, keljak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g‘oyaviy-siyosiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo‘lgan ijodiy munosabatiga bog‘liq.

Bolaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati ko‘proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi.

➤ Tarbiyachining o‘ziga xos xususiyati – uning yuksak kasb mahoratidir. Eng muhimi – bolaning ruhiyatini, yosh va o‘ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini bilishdir.

➤ Bolalar bog‘chasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtida va qanday namoyon bo‘lishini oldindan ko‘ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi.

➤ Tarbiyachi o‘z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliv nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi. Tarbiyachi har bir boladagi o‘ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o‘ziga xos xususiyatlarni (zararli bo‘lsa) yo‘qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo‘yadi.

➤ Tarbiyachi har bir bolaning keljakda haqiqiy inson bo‘lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta’siri juda katta bo‘ladi. Chunki bu davrdagi har bir ta’surot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

Bolani tushuna bilish va uning ma’naviy dunyosiga kira olish tarbiyachidan zo‘r kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda bo‘lish – fikrlar manbai, pedagogik yangiliklar, quvonch va tashvishlardirki, busiz tarbiyachining ijodiy mehnatini tasavvur etib bo‘lmaydi.

Mashg‘ulotda tarbiyachi o‘z ovozidan qurol sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch ovoz bolaga yaxshiroq ta’sir etishini pedagog bilishi zarur. Bolaga qattiqroq va qat’iy tapirish mumkin, ammo bunda so‘z ohangi bolaga tinchlantiruvchi ta’sir etishi lozim.

Tarbiyachi asosan bolaning normal ruhiy taraqqiyoti asosi bo‘lgan jismoniy rivojlanishiga alohida e’tibor berishi lozim.

Bolaning ko‘p vaqt harakatsiz o‘tirishi uning sog‘lig‘i uchun juda zararli, u bolaning har tomonlama rivojlanishini sekinlashtiradi.

Bolaning ko‘p harakatlarni o‘tirib bajarishi ham gavda tuzilishining noto‘g‘pi o‘sishiga olib keladi. Shuning uchun faoliyat turlarini almashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Yana bolaning normal rivojlanishi uchun har doim tinch, quvnoq muhitni tashkil etish lozim. Bolani: «Tezroq yuvininglar – nonushtaga kech qolyapmiz», «O‘yinchoqni tezroq yirishtiringlar, sayrga yoki mashg‘ulotga kech qolyapmiz» va hokazo deb shoshiltirish kerak emas.

Ta’lim berganda uni shunday tashkil etish kerakki, har bir bola faol ishlasisi va har biri ijobiy natijaga erishsin.

Bolalarning mashg‘ulotda olgan bilim va malakalari boshqa faoliyat turlarida qo‘llanilishi mumkin. Bolalar olgan bilimlarini qo‘llay olishlari ularning yaxshi o‘zlashtirib olganligidan dalolat beradi, ya’ni ular hyech qanday qiyinchiliksiz bu bilimlardan foydalanishlari mumkin. Ta’limning amaliy ahamiyati ham ana shundan iboratdir.

Agar bolalar yetarlicha bilim va malakalarga ega bo‘lsa, ular bilan xilma-xil mashg‘ulotlar o‘tkazish mumkin, bu mashg‘ulotlarda bolalar mavjud bilimlardan ijodiy foydanishlari: bemalol rasm chizishlari, biror narsani qurish yoki yasashlari, hikoya qilib berishlari mumkin. Bu mashg‘ulotlar odatdagagi mashg‘ulotlardan boshqacharoq qilib tashkil etiladi: bolalar ixtiyoriga har xil materiallar beriladi va ularga rasm mavzusini o‘zi belgilash, qurilishni o‘zi o‘ylab topish, hikoya tuzish imkoniyati yaratiladi. Bunday mashg‘ulotlar dasturning ayrim bo‘limlari bo‘yicha ta’limning yakunlovchi bosqichlarida o‘tkaziladi.

Bolalar olgan bilimlaridan o‘z o‘yinlarida keng foydalanadilar: rasm chizish, qirqib olish, qurish-yasash sohasidagi malakalarni qo‘llab zarur jihozlarni tayyorlaydilar, inshootlar barpo etadilar va hokazo. Olingan bilimlar turli xil o‘yinlarning mazmunida aks ettiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
2. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
3. “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentyabrdagi PQ-3276-sonli Qarori.
4. “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PQ-3305-sonli Qarori.

5. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.yedu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.
2. <http://www.uzedu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.
3. <http://www.president.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portalı.
4. <http://www.gov.uz> – O‘zbekiston Respublikasi xukumati portalı.
5. <http://www.xs.uz> – “Xalq so‘zi” gazetasi sayti.
6. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi sayti.
7. <http://www.kun.uz> – O‘zbekiston va jahon yangiliklari, eng so‘nggi xabarlari sayti.

KEYSLAR BANKI

1-кейс:

- Ўзбекистон Республикасида мактабгача ёшдаги болаларни мактабгача таълим муассасаларига қамраб олиш кўрсаткичи 27 фоиз ташкил этиши, давлат ҳукумати томонидан эътироф этилган. Бунинг асосий сабабларини нима ва қандай чора-тадбирлар кўрилмоқда тизимда ислоҳ этиш учун?

2-кейс:

- Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг устувор йўналишида: Таълим соҳасидаги ислоҳотлар тўғрисида умумий таснифни беринг.

3-кейс:

- Ўзбекистон Республикаси Президенти бошчилигида таълим соҳаси бўйича неча марта ва қайси саналарда 2017 йил мобайнида йиғилишлар ўтказилди? Йиғилишларда мактабгача таълим тизимининг қайси долзарб масалалари кўтарилган?

4-кейс:

- Ўзбекистон Республикасида мактабгача таълим тизими янада такомиллаштириш бўйича “Йўл харитаси” мазмун-моҳияти очиб беринг.

5-кейс:

- 2017 йил 30 сентябрда қабул қилинган “Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ти Фармоннинг мақсад ва вазифаларини очиб беринг.

6-кейс:

- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 сентябрдаги “Нодавлат таълим хизматлари кўрсатиш фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ти ПҚ-3276-сонли карор асосий вазифаларини таҳлил қилиб беринг.

7-кейс:

- Ягона интерактив давлат хизматлари портали “Болаларни давлат мактабгача таълим муассасаларига қабул қилиш ва навбатга қўйиш бўйича электрон дастур” жорий этилиши ва унинг фаолияти тўғрисида изоҳли маълумот беринг.

8-кейс:

- Ўзбекистон Республиканинг мактабгача таълим тизими ислоҳ қилиш жараёнида Корея Республикаси билан қандай ҳамкорлик келишуввлар ва меморандумлар имзоланди. Уларнинг аҳамияти.

AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI

Amaliy mashg'ulotlari mavzulari

1. Maktabgacha ta'limga oid me'yoriy xujjalalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ommaviy nashrlar tahlili.
2. Maktabgacha pedagogika fanining maqsad va vazifalari
3. Maktabgacha pedagogikaning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari.
4. Maktabgacha pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.
5. O'zbekiston respublikasida Maktabgacha ta'limi tizimi va uning turlari.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni
7. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
8. Maktabgacha ta'lim – uzlucksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini sifatida.
9. Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimiga yangicha yondashuv.
10. Maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanish tarixi
11. Hozirgi jamiyatda murabbiy tarbiyachilarga qo'yilgan talab va vazifalari.
12. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining pedagogik mahorati
13. Pedagog tarbiyachi shaxsini shakllantirish,tarbiyachining nutq madaniyati
14. Mashg'ulotlar jarayonida pedagog tarbiyachining pedagogik mahorati.
15. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim tarbiyasining o'sib borishida tarbiyachining roli.

MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me'yoriy hujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul mavzularini chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'lim

1-jadval

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
I-semestr		
1	Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda oila va maktabgacha ta'lim hamkorligi.	4
2	Maktabgacha yoshdagi bolalarni muhit ta'sirida tarbiyalash.	4
3	Bolalarmi vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda MTTning o'rni.	4
4	Milliy xalq o'yinlari asosida bolalarga odob-axloqni o'rgatish.	4
5	Qurish o'yinlari asosida mehnatsevarlik tarbiyasi.	4
6	Mashg'ulotlarni tashkil etishning pedagogik texnologiyalari.	4
7	Estetik tarbiya.	2
8	MTMda jismoniy tarbiyani tashkil etishda milliy qadriyatlardan foydalanish.	2
9	Bolalar ruhiyatini o'rganishning pedagogik asoslari.	4
10	Xalq og'zaki ijodiyotida o'rtoqlik do'stlik tarbiyasi.	2
11	O'yin vositasida fidoyilik tarbiyasi.	2

12	Kollej o‘quvchilarida xalq o‘yinlari orqali jismoniy barkamollikni tarbiyalash.	2
13	Barkamol avlodni milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi ruhida tarbiyalash.	4
14	Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish usul va yo‘llari.	4
15	Maktabgacha ta`lim yoshdagi bolalarni shaxsini barkamol qilib tarbiyalashda milliy usul odatlaridan foydalanish.	4
16	Bolalarni kattalar namunasida tarbiyalash.	4
17	Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o‘rni.	4
18	Abu Ali Ibn Sino ijodida oila tarbiyasi.	4
19	Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yohud axloq» asarining komil inson tarbiyasidagi o‘rni.	4
	Jami	66

II-semestr

20	Bola hayotida kun tartibi va uning ahamiyati.	4
21	Sayr orqali bolalarda sadoqat xissini tarbiyalash.	2
22	Bolalarni maktabgacha tayyorlashda aqliy tarbiyaning ahamiyati.	4
23	Tarbiyaning tarixiy va milliy asoslari, tarbiyada urf odatni tutgan o‘rni.	4
24	Xalq ta‘limi tizimida MTTning tutgan o‘rni va uning istiqbollari.	4
25	Ilk yoshdagi bolalarni tarbiyalashning o‘ziga xosligi.	4
26	Bir yoshgacha bo`lgan bolalarni rivojlanishi va unga qo‘yilgan pedagogik talablar.	4
27	Ikki yoshli bolalarga ertaklar orqali axloqiy tarbiya berish.	4
28	Uch yoshli bolalarda xarakatli va so‘z o‘yinlarini tashkil etish.	4

29	Maktabgacha tarbiya muassasalarining rahbarlari va uning faoliyati.	2
30	O‘zbekistonda ijtimoiy maktabgacha ta’limning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari.	4
31	Maktabgacha ta’limni moliyaviy tahminlashda mudiraning roli.	2
32	Xalq ta’limi bo‘limi nazoratchisi tomonidan metodik ishlarga rahbarlik.	4
33	Bolalar muassasasining yillik ish rejasining mohiyati, maqsad va vazifalari.	4
34	Katta tarbiyachining ta’lim tarbiyaviy ishlarga rahbarligi.	4
35	Maktabgacha ta’lim muassasalarida monitoring tizimini tashkil etish.	4
36	Mudira tomonidan ilg‘or ish tajribalarni o‘rganishni tashkil etish.	4
37	Davlatga qarashli bo‘lmagan maktabgacha ta’lim muassasalarida mudiraning ish faoliyati.	4
	Jami:	66
	Umumiy jami:	132

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlanadi va uni taqdimoti tashkil qilinadi. Talabalar tomonidan mustaqil ishlar tayyorlanayotganda ular e’tiborini ilg‘or xorij tajribasi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotida qo’lga kiritilayotgan yutuqlarning asoslarini bog’lash, tahlil etish, o’z fikrlarini hayotiy misollar bilan yoritishga yo’naltiriladi.

GLOSSARY

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Изоҳ
Arxiv hujjatlari	Архивные материалы	Archieve documents	Fuqarolar, jamiyat va davlat uchun ma'lum ahamiyat kasb etgani bois saqlanishi lozim bo'lgan matnli, qo'lyozma va mashinada o'qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar.
Bolalar adabiyoti	Детская литература	Children's literature	Shaxs va ta'limni rivojlantirish, bilimlarni tarqatishning eng muhim vositalardan biri bo'lgan nashr turi. Bolalar kitolari faqatgina o'qish va bilim olish manbai bo'libgina qolmay, balki bolaning estetik va psixologik tarbiyasida muhim o'rinn tutuvchi manbadir.
Boshqarish faoliyati	Управление-ческая деятельность	Management activity	Raxbarning pedagogik, normativ va psixologik asoslarda boshqarish qarorlarini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirishga qaratilgan maqsadga muvofiq hatti-xarakatlari majmui.
Byurokratiya (buyruqbozlik)	Бюрократия	Burucraty	(tom ma'noda- kanselyariya hukmronligi; fransuzcha bureau-byuro, kanselyariya va yunoncha-kratos-kuch, hokimiyat, hukmronlik) Tabaqalangan boshqaruvtizimi bo'lib, uning uchun har bir darajada vakolatlar chegarasining aniq belgilanganligi, qarorlarning mavjud qonunlar va qoidalarga binoan qabul qilinishi xosdir.
Genefond	Генофонд	Genefond	Genlar zahirasi; turli genlarning tarqalishi, ularning nisbiy miqdor va tarkibiy sifati; muayyan organizmlarning tarqalganligi.

			Irsiy belgilarni o‘rganish va aniqlash inson genetikasi, jonivorlar hamda o‘simliklar genetikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtida genofondni saqlash muammosi dunyoning ko‘pgina mamlakatlari uchun dolzarb muammoga aylangan.
Gigeyena	Гигиена	Hygiene	Yashash tarzi va mehnat sharoitining inson sog‘lig‘iga ta’sirini o‘rganadigan, kasalliklarni profilaktika qilish, sog‘liqni saqlash va hayotni uzaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadigan qadimiy tibbiyat sohalaridan biri.
Didaktik o‘yinchoqlar	Дидактические игрушки	Didactic toys	Bolalarning aqliy va sensor rivojlanishi va ta’lim olishida xizmat qiladigan o‘yinchoqlar turi. Bunday o‘yinchoqlarga mozaikalar, stol ustida o‘ynaladigan va bosma o‘yinlar, xalq o‘yinchoqlari (matryoshkalar, piramidalar, rangli sharlar, xushtaklar, chillaklar) kiradi.
Yosh guruhi	Младшая группа	Primary group	Yosh belgisiga ko‘ra birlashtiriladigan kishilarning biron bir shartli katta guruhi. Yoshni davrlashtirishga muvofiq MTMda bolalarning yoshiga ko‘ra ana’naviy ajratiladigan guruuhlar: yasli yoshdagi bolalar guruhi, birinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, ikkinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, katta bolalar guruhi va maktabga tayyorlov guruhi.
Inklyuziv ta’lim	Инклюзивное образование	Inclusive education	Bolalarni bir biridan ajratuvchi to‘siqlarni bartaraf etishga, ularning yoshi, jinsi, diniy va ijtimoiy kelib chiqishi, jismoniy va

	ние		aqliy rivojlanishdan orqada qolishi va iqtisodiy ta'minlanganlik darajasidan qat'iy nazar, umumta'lim jarayoniga to'liq uyg'unlashtirishga qaratilgan davlat siyosati.
Iste'dod	Талант	Talent	Qobiliyatlar, iqtidorlarning yuqori darajada rivojlanganligi bo'lib, ijodiy faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.
Kasbiy faoliyat	Профессиональная деятельность	Professional activity	Biron narsaning bajarilishining murakkab va me'yoriy jihatdan belgilangan usuli. Mehnat sub'ekti faoliyatining sifat jihatdan belgilanadigan shakli. Inson bajarayotgan faoliyatning murakkabligini tavsiflaydigan mezon.
Maktabgacha bolalik	Детский дошкольный период	Preschool period	Bolaning tug'ilganidan to maktabga borguncha bo'lgan rivojlanish davri; bola organizmining jadal voyaga yetishi va ruhiyatining shakllanishi bilan belgilanadi.
Maktabgacha yosh	Дошкольный возраст	Preschool age	Bolaning ruhiy rivojlanish bosqichi. Bola rivojlanishining hozirgi zamon milliy davrlashtirilishi bo'yicha 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davri.
Maktabgacha yoshdagi bola kompetentligi	Компетенция ребенка дошкольного возраста	Competency of preschool age child	Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining asosiy xarakteristikasi. Kommunikativ, ijtimoiy, intellektual kompetentlikni hamda jismoniy rivojlanish borasidagi kompetentlikni o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetentlik bolaning o'z istaklari, niyatlarini nutqiy va nutqiy bo'limgan (imo-ishora, mimik va pantomimik) vositalar yordamida erkin

			ifoda etishida namoyon bo‘ladi.
Maktabgacha ta’lim muassasalari	Дошкол ь-ные образова тельные учрежде ния	Prescholl education al establish ments	<p>Turli yo‘nalishdagi maktabgacha ta'lim dasturlarini amalga oshiradigan ta'lim muassasasi. Ularda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning tarbiyasi, ta'limi, parvarishi va sog‘lomlashtirilishi ta'minlanadi.</p> <p>Yo‘nalishiga ko‘ra maktabgacha ta'lim muassasasi quyidagi turlarga bo‘linadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> umumiyl tipdagisi MTM, tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari mavjud bolalar uchun mo‘ljallangan maxsus MTMlar va surunkali kasalliklar bilan og‘rigan bolalar uchun sanatoriya tipdagisi MTMlar.
Maktabgacha ta’lim muassasalarining vazifalari	Задачи дошколь -ного образова тельного учрежде ния	Tasks of prescholl education al establish ment	ushbu muassasalarning vazifalari: bolalar hayotining muhofazasini, ularning intellektual, jismoniy va shaxs sifatidagi rivojlanishini ta'minlash uchun uning oilasi bilan aloqa o‘rnatish.
Maktabgacha ta’lim muassasasining moddiy- texnik bazasi	Материа ль-но- техниче ская база дошколь -ного образова тельного учрежде ния	Material and technical base of prescholl education al establish ment	Muassasa balansida turgan asosiy vositalar majmui (bino, xovli, qo‘srimcha qurilmalar, kommunikatsiya, yumshoq va qattiq jihozlar).
Maktabgacha ta’lim muassasasining	Концепц ия развития	Concepti on of education	Maktabgacha ta'lim muassasasining kelgusidagi rivojini belgilab beradigan

g rivojlanish konsepsiysi	образова тельного учреждения	al establish mebt	bosh g‘oya; innovatsion jarayonlar natijasida uning yangilanishiga qaratilgan chora tadbirlar majmuini amalga oshirishning yetakchi tamoyili.
Milliy an'analar	Hatsional'nye traditsii	National traditions	Millat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlari, qadriyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan avlodga o‘tishi hamda meros bo‘lib qolishini ifodalovchi tushuncha.
Nodavlat notijorat tashkilot	Негосударственная некоммерческая организация tsiya	Nongovernmental noncommercial	Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, daromad olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni o‘z qatnashchilari o‘rtasida taqsimlaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkiloti.
Oilaviy muhit	Семейная обстановка	Family environment	Oilaviy munosabatlar, tarbiyaviy jarayonlar kechadigan ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy muhitni ifodalovchi tushuncha. Har qaysi millatning o‘ziga xos ma'naviyati, dunyo qarashi, tasavvur va e'tiqodini shakllantirish hamda yuksaltirishda oilaning o‘rni va ta'siri beqiyosdir. Inson qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg‘ular, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlar, eng avvalo oila bag‘rida shakllanadi.
Oliy ta’lim	Высшее образование	Higher education	Turli oliy dargohlarda oliy malakali mutaxasislar tayyorlash oliy o‘quv yurtlari tomonidan xalq xo‘jaligi, fan va madaniyatning turli sohalari bo‘yicha oliy

			malakali mutaxasis bo‘lishni istagan, o‘rta maxsus yoki kasb xunar ta’limini olgan hamda tegishli talablarni bajargan kishilarga ilmiy nazariy bilim berish xamda muayyan ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘li bilan amalgalashuvchi amalga oshiriladi.
Tarbiyalanuvchilar	Воспитанники	Pupil	Maktabgacha tarbiya muassasalariga boradigan bolalar; mehribonlik uylari, ixtisoslashtirilgan maktab internatlarda tarbiyalanuvchi bolalar va o‘smirlar maktabdan tashqari muassasalarda shug‘ullanadigan bolalar.
Tarbiyachi	Воспитатель	Educator teacher	Tarbiyani amalga oshiradigan , o‘zga kishi shaxsining hayot tarzi va rivojlanishi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan shaxs.
Ta’lim muassasasini boshqarish	Руководство образовательным учреждением	Managing educational environment	Faoliyat subektlarining alohida faoliyati bo‘lib, u rejalahtirish , tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish vositasida bolalar, pedagoglar, ota-onalar, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning xamkorlikdagi faoliyatining ta’limni takomillashtirish va ta’lim mussasasini rivojlantirish maqsadlariga yo‘nalganligini ta’minlaydi.
Ta’lim sifati	Качество образования	Quality education	Ta’lim jarayoni va uning natijalarini tavsiflaydigan kategoriya, ta’lim jarayoni qanday bo‘lishi kerak, qanday maqsadlarga xizmat qilishi kerakligi to‘g‘risida jamiyatda tarqalgan tasavvurlarga qanchalik mosligini belgilaydi. Ta’lim sifati ta’lim oluvchilarning bilimlari, malaka va ko‘nikmalari, atrof-olamga va

			bir birlariga nisbatan qadriy- emotsional munosabatlar normalari bilan o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar tizimida ifodalanadi.
Farmon	Указ	Degree	Birqator mamlakatlarda davlat boshlig‘ining normativ akti. O‘zbekistonda Prezident farmoni.

ILOVALAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



"KELISHILDI"
Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi



Maktabgacha pedagogika

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 - Gumanitar
Ta'lif sohasi: 110 000 - Pedagogika

Ta'lif yo'naliishi: 5111800 - Maktabgacha ta'lif

Toshkent - 2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi yo'naliishlari bo'yicha
O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvoqilahtiruvchi Kengashning 2018-yil
“18” 08 dagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil
“25” 08 dagi 244-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini
tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida
ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

G.E.Djanpeisova

Nizomiy nomli TDPU “Maktabgacha
ta'lim metodikasi” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Sh.A.Sodiqova

Nizomiy nomli TDPU “Maktabgacha
ta'lim” kafedrasi p.f.n

Taqrizchilar:

Sh.Shodmonova

“Pedagogika ” fanlari nomzodi
professor

M.X. Tadiyeva

Toshkent Pedagogika kolleji direktori
dotsent

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018- yil “28”
06 dagi 11-sonli bayonnomasi).

I. O'quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta'limganligi o'rni

Dasturda maktabgacha yoshdagagi bolalarni ma'naviy, jismoniy, aqliy – ahloqiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik ta'limgani amalga oshirishning metod va vositalarini asoslab berilgan. O'zbekistonda ijtimoiy maktabgacha ta'limgan tashkil etishning asosiy bosqichlari, asosiy xususiyatlari va maktabgacha ta'limgan bo'yicha yuqori malakali rahbar, metodist-nazoratchi va tarbiyachilarini tayyorlash vazifalari, usul-uslublari, xalq ta'limi bo'limining asosiy vazifalari metodik rahbarlik qilish tamoyillari bu o'quv dasturining mazmunini tashkil etadi.

II. O'quv fanining maqsad va vazifalari

Maktabgacha pedagogika fanining maqsadi:

Maktabgacha pedagogika fani bo'lajak tarbiyachilarini ta'limgan-tarbiya qonuniyatlarini bilan yaqindan tanishtirish. Shuningdek, u maktabgacha ta'limga qo'yilgan talablari, tamoyillari, mazmuni va tarbiyachining shakllantirishni pedagogik asoslarini o'rgatadi.

Maktabgacha pedagogika fanining vazifalari:

- Bo'lajak tarbiyachi oldiga qo'yiladigan maqsad va vazifalar O'zbekiston istiqboli va istiqloli uchun barkamol avlodni tarbiyalashning dastabki bosqichi;

- maktabgacha pedagogikaning mazmuni, o'zi xos xususiyatlari, ta'limiylarini jihatlarini topishi, hamda kasbiga bo'lgan munosabatni tarbiyalash. Tarbiyachining kasbiy xususiyati va unga qo'yilgan talablar;

- maktabgacha pedagogika kursini maqsadi: bulajak tarbiyachi, pedagogik kollej uqituvchilariga maktabgacha pedagogika fanini nazariy milliy asoslar bilan qurollantiradi;

- O'qitish jarayonida mutaxassislik bo'yicha mahorat, tashkiliy metodik malaka, bolalarni jonajon yurtimizni sevish, asrab-avaylash ruhida tarbiyalash jarayonida bilimlarini amalda tadbiq qila bilish qobiliyatini rivojlantirish.

Bakalavr:

- maktabgacha ta'limgan tarixi;
- maktabgacha pedagogikaning rivojlanish bosqichlari;
- davlatga qarashli va qarashli bulmagan maktabgacha ta'limgan muassasalar;
- maktabgacha ta'limgan ta'limgan tizimida tutgan o'rni;
- maktabgacha ta'limgan bo'yicha kasbiy faoliyatning umumiy tamoyillari;
- maktabgacha yoshdagagi bolaning xar tomonlama rivojlanish konsepsiysi;
- maktabgacha pedagogikaning rivojlanish tamoyillari
- bolalarni oilaga, maktabgacha ta'limgan muassasalariga va ijtimoiy jamiyatga moslashtirish;
- bolaning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari;
- bolaning shaxsiy pedagogik-psixologik rivojlanish ko'rsatkichlari;
- intelektual, aqliy rivojlanish ko'rsatkichlari;

- bolani muktabga tayyorlash metodi va usullari;
 - muktabgacha ta'lim muassasalarida bolani muktabga tayyorligini aniqlash *malakasiga ega bo'lishi* kerak.

III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

1-modul Maktabgacha ta’limga kirish

1-mavzu Maktabgacha pedagogikaning predmeti va vazifalari; Maktabgacha pedagogikaning umumiy asoslari.Kadrlar tayyorlash milliy modeli.Maktabgacha ta’limga kirish. Maktabgacha ta’lim – uzluksiz ta’limning alohida turi sifatida. Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi.

2-mavzu Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning tarbiyasi. O’zbekistonda maktabgacha ta’limning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari. Maktabgacha pedagogikaning obyekti, predmeti, magsad ya vazifalari.

3-mavzu Maktabgacha pedagogikada ilmiy-tadqiqot metodlari. Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Jahon mamlakatlari ta'lim tizimida maktabgacha ta'limning tutgan o'smi.

2-modul Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivoilanishi.

4-mavzu Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Hozirgi jamiyatda murabbiy tarbiyachilarga qo'yilgan talab va vazifalari. Tarbiyachilik kasbi uning axloqiy sifatlari. Davlatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga qo'yilgan talablar, vazifalar.

5-mavzu Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yosh guruhlari. Maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyachisining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar.Zamonaviy tarbiyachilar kasbiy kompetentligining uch aspekti. Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir yondoshuvlar.

3-modul Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar qobiliyatlarini rivoilantirish

6-mavzu Bolalarda tashabbusni namoyon etish va o‘zaro muloqot jarayoni; ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni va vositalari, uni tashkil etishning metod va usullari.

7-mavzu Bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta’lim muassasasi, maktab va oilaning xamkorligi. Sotsial tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati.Tarbiya qonuniyatları. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

8-mavzu Kasbiy ijodiy tafakkuri, bilimlarini to'ldirish va yangilashga bo'lgan ehtiyojlarini rivojlantirish. Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.Tarbiya mazmuni, qo'yilgan maqsad va vazifalar

bilan bog'liqlikda tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi.

• **4-modul Maktabgacha ta'lismuassasasi, maktab, oila hamkorligi**

9-mavzu bolalar rivojlanishida oila, maktab, maktabgacha ta'lismuassasasi va mahallaning o'mni. Tarbiyaning umumiy vazifalari. Talabalarning kasbiyo'nalganligini shakllantirish, pedagogik qobiliyat, bilishga bo'lgan intilishi va ehtiyojlarni rivojlanterish.

10-mavzu Bolalar bog'chasida, oilada olib boriladigan ta'lismishining metod va shakllari mazmuni uzviyiligi. Tarbiya jarayonini tashkil etishga doir zamonaviy yondoshuvlar va ularning o'ziga xosliklari. Tarbiya turlarining umumiy tasnifi. Kasb turlari, kasbiy mahorat, tarbiyachi, uslubchi, mudira faoliyati va uni boshqaruvi.

